

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

11

ISSUE-1



Journal of new  
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



[newjournal.org](http://newjournal.org)



# **JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS**

**VOLUME - 11 | ISSUE - 1**

**AUGUST - 2022**



**ICI** JOURNALS  
MASTER LIST

O'QUVCHILARNI O'QISH SAVODXONLIGIDA KREATIV FIKRLASH  
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Shakarova Xamida Dilmuratovna*

*Toshkent shahar Olmazor tumani, 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

*Otajonova Sharofat Rahimjonovna*

*Toshkent shahar Olmazor tumani, 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining*

*Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PISA haqida umumiy tushuncha, PISA dasturining o'quvchilar hayotidagi roli, mavzularga kreativ yondoshuv, vizual o'quv materiallari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarning kreativ fikrlashiga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda Xalqaro PISA dasturining ahamiyati tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, tabiiy-ilmiy savodxonlik, test, kompetensiya.

Ona tili va adabiyot juda murakkab fan bo'lib, ular nafaqat adabiyot fani va uning tur tarkibini, balki ko'plab tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlarni tajribalar asosida o'rganadi. Bunday tajribalarni qiziqarli, ayni paytda ilmiy va ma'lumotli bajarish, o'quvchilarning fanga qiziqishini, faolligini oshirish zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasidir. Hozirgi vaqtda maktabning asosiy muammosi o'quvchilarning o'qishni istamasligi. Ammo o'yin jarayonida hatto eng passiv o'quvchi ham darsga kiritiladi, o'quvchilarhar qanday qiyin topshiriqlarni ham bajara oladilar. Faylasuflarning o'yin borasida o'z nuqtai nazari bor, ular quyidagilarni ta'kidlaydilar: "O'yin o'quvchilarning rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki yaratilgan o'quvchilar hayotining o'ziga xos shakli, bu ma'noda bu maxsus pedagogik ijoddir".

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ushbu dastur dastlab 1997-

yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur asosidagi baholash tizmi hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) tasodifiy tanlov asosida o'tkazilgan va 2009, 2012 yillardagi PISA natijalari o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha yutuqlari quyi pog'onada ekanligi ko'rsatilgan. Keyingi sinovlar 2021 yilda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan. PISA da ilmiy savodxonlik o'quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallash, jarayonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarni dalillar asosida tushintirish hamda xulosalash asosida idindifikatsiya qilinadi va tavsiflanadi. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biridir.

PISA butun dunyodagi 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi olib keladi. PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi o'quvchilarda dalillarga asoslangan xulosaga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishga olib keladi. PISA dasturidagi ushbu faoliyat

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Nickerson kreativ fikrlashni bo'g'uvchi aynan maktab bilan bog'liq bir qator amaliyotlarni mavjudligini e'tirof etadi va ularga quyigalarni kiritadi:

1. Vazifani bajarishning yagona to'g'ri usuli, savolga yagona to'g'ri javob bo'lishi kerak, degan g'oyaning mavjudligi;
2. Nufuzli insonlarga bo'ysunish va ulardan qo'rqish kerak, degan munosabatni targ'ib etish;
3. Har qanday holatda ham dars rejasiga amal qilish;

4. Originallik o‘ta noyob xislat ekanligiga ishonib qolish;
5. Bilim alohida sohalarga bo‘linishi haqidagi ishonchni targ‘ib etish;
6. Qiziquvchanlik va sinchkovlikni ma‘qullamaslik;
7. Bilim olish va muammoni yechishning qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Demak, pedagog ustozlar ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun pedagoglar dars jarayonida yuqorida keltirilgan kreativ fikrlashni bo‘g‘uvchi omillardan vos kechishi lozim.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma‘lumot yig‘ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo‘ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so‘rovnoma. Test qismi o‘quvchilar g‘oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish asosida ma‘lumot beradi. So‘rovnoma ushbu ma‘lumotni o‘quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma‘lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug‘ullanadigan faoliyat kabi ma‘lumotlar bilan to‘ldiradi. Onatili va adabiyoti fanlar savodxonligini aniqlash kreativ fikrlash dasturini bitta bo‘limi bo‘lib, bunda hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasiga ega ekanligi o‘rganiladi. Bu bo‘limning asosiy maqsadi atrofimizdagi olamni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda biologik hodisalarga kreativ yondashishdan iborat. O‘qish savodxonligini aniqlashda birinchi navbatda PISA tizmiga asoslangan o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o‘quvchilarga tadbiq qilish kerak. Tadbiq qilingan o‘quv materiallari sinfda o‘quv jarayonini yaxshilashga va o‘quvchilarning faolligini oshirishga hizmat qilishi lozim. Buning uchun o‘quv materiallari ko‘proq amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lsa, maqsadga muofiq bo‘ladi. Chunki amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilar bilimni boyitishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini

rivojlantirishga va kreativ fikrlashga olib keladi. Gretsiya maktablarida 7- va 9- sinf o'quvchilarining biologiya fanidan bilimni baholashda vizual o'quv materiallaridan foydalaniladi va uning quyidagi hususiyatlari tahlil qilinadi.

- \* Vizual o'quv materiallarini va o'quv qo'llanmalarga kiritish chastotasi
- \* Vizual o'quv materiallarining turlari (rasm, diagramma, jadval va boshqalar)
- \* O'quvchi egallashi kerak bo'lgan bilimlarni aniqlashda vizual tasvirlar aniq roli,
- \* Vizual o'quv materiallarida ma'lumotlar keng doirada tahlil qilishini
- \* Talab qilinadigan javoblar formati (grafik tahlil qilish, jadvallarni to'ldirish, vizual ko'rsatmalarni bajarish, raqamli javoblar).

Shunday qilib, tabiiy ilmiy savodhonlikni oshirishda adabiyot fanidan kreativ fikrlash dasturiga oid o'quv materiallarni ishlab chiqish va dars jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning bilimni boyitishga, egallagan bilimlarini o'z hayotida qo'llashga hamda biologik jarayonlarga kreativ yondashishga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kyriaki Anagnostopoulou, Vassilia Hatzinikita, Vasilisa Christidou. PISA and biology school textbooks: the role of visual material // *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 46 ( 2012 ) 1839 – 1845
2. Lucas, B. and E. Spencer (2017), *Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Generate Ideas and Can Think Critically.*, Crown House Publishing, <https://bookshop.canterbury.ac.uk/Teaching-CreativeThinking-Developing-learnerswho-generate-ideas-and-thinkcritically> (accessed on 26 March 2018).
3. Nickerson, R. (2010), «How to Discourage Creative Thinking in the Classroom», in Beghetto, R. and J. Kaufman (eds.), *Nurturing Creativity in the Classroom*, Cambridge University Press, Cambridge, <http://dx.doi.org/10.1017/CBO9780511781629.002>.
4. OECD. 2012. *Assessment and Analytical Framework*. (Online).

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

*Ernazarova Xurshida Komilovna*

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani, 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi, +998917888238*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlarga ajratish, o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlari aro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi. Tarix darslarida "Pisa" testlaridan foydalanish, "Krossvord" uslubi, "Xaritalar ustida ishlash" va "Raqamli tarix" uslublari ushbu maqola orqali keng va atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, raqamli tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

INNOVATIVE WAYS TO TEACH HISTORY SUBJECTS

**Abstract:** This article is based on interdisciplinary links in the curriculum by establishing interdisciplinary links in the organization of history lessons and dividing the lessons into specific groups based on the topics, combining the content of the subjects studied in the curriculum. input of organized lesson hours; Ensuring the quality of education and strengthening its educational aspects of interdisciplinary lessons; the lessons reveal features such as students' scientific outlook and the formation of specific skills and competencies through the use of concepts in the context of closely related or mixed academic disciplines. The use of the Pisa test in history

lessons, the Crossword method, the Map work method, and the Digital History method are covered extensively in this article.

**Keywords:** history, digital history, PISA, didactic conditions, map, interdisciplinary connection, integration, innovative methods.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlari aro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha. 2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish. 3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish. Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida



tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi: 1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish. 2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-

biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi. 3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi. 4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin. 5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim. 6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat - e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. "Didora-Doro I. qadimgi Fors shoxi"). "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi. Quyida sizlar uchun hozirgi

zamonda innovatsiyon dars o'tish usul va uslublaridan misollar keltirilgan. 1-darslarda "Rasmi testlardan" foydalanish. Bu usul orqali o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati shakllanadi hamda hayotiy masdalalarni hal etishga bo'lgan qarashlari uyg'unlashadi

1. Ushbu rasmda ko'rsatilgan inshoot qaysi shaharda joylashgan? A. Buxoroda B. Samarqandda C. Toshkentda D. Shaxrisabzda

2. Abdullaxon II ga atab ishlangan ushbu miniatura qaysi yilga oid? A. 1570-yil B. 1572-yil C. 1575-yil D. 1577-yil

2. Tarix darslarda «Krossvord» uslubidan foydalanish. Bu uslubda o'quvchilarning matematik savodxonligi ortadi. Ularning fikrlash va mustaqil ishlay olish qobiliyatlari shakllanadi. KROSSVORD – O'YIN METODI Bolalar faqat ular o'zlari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo'ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o'rgatmoqchi bo'lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz.

J. Puaje Quyida 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining bo'limlar yuzasidan tuzilgan krossvordlar jamlanmasini tavsiya etiladi: 1-5-MAVZULAR BO'YICHA KROSSVORDLAR 1-VARIANT KROSSVORD (Ismlar bo'yicha)

ENIGA

2. To'qqiz kitobdan iborat "Tarix" asarining muallifi. 4. Maqbarasiga temirdan bezak ishlatgan Misr fir'avni. BO'YIGA 1. "Aleksandr anabasisi" asarining muallifi. 3. Miloddan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod qilgan. O'z asarida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan qadimgi yunon tarixchisi va geografi. 1 2 3 4 EclipseCrossword.com

4. arix darslarida turli xil mavzulashtirilgan xaritalardan foydalanish. Tarix darslarida avvalo o'quvchilarga xarita bilan ishlashni o'rgatish lozim. lekin afsuski ba'zi darsliklarimizda mavzulashtirilgan xaritalar kamlik qiladi. Ayniqsa 6-sinf o'quvchilari uchun qadimgi manzilgohlarning joylashgan o'rnini o'rganish uchun xaritalarning o'rni beqiyos Shuning uchun quyida beriladigan xaritalar orqali mavzuni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

SONLAR ISHTIROKIDAGI "RAQAMLI TARIX" TA'LIMIY O'YINI O'quvchilaringiz tarix fanida berilgan sonlarni yodlashga erinchoqlik qilayaptimi yoki qiynalayaptimi? Unda o'quvchilaringizni qiziqtirishning samarali yo'llarini havola etamiz. Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi. Agarda o'quvchiga mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq

barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin: Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. O'quvchida qiziqish bo'lmasa, har qanday metod, usulni qo'llamang samara berishi qiyin. Men tarix darslarida o'zim yaratgan qiziqarli boshqotirmalardan iborat "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinidan samarali foydalanishga harakat qilaman. "Raqamli tarix" ta'limiy o'yini quyidagicha o'tkaziladi: Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo'lgan sanalari, statistik ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulida (amallarni noodatiy usullarda hisoblash) shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma'lum son izohlanadi. Tarix darslarida o'quvchilarning matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini mavzuni mustahkamlash va takrorlash vaqtida o'quvchilar yoki guruhlar bilan ishlashda qo'llanishi maqsadga muvofiq. "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur. Qiziqarli boshqotirmalardan iborat bo'lgan "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini tarix darslarida qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin: •Tarix fanini o'rganishning eng murakkab tomonlaridan biri hisoblangan sanalar va statistik ma'lumotlarni o'quvchilarni qiziqtirgan holda ularning xotirasida saqlab qolishida yordam beradi; •Xayolan davrlararo sayohat paydo bo'ladi; •Tarixiy voqealar qaysi davrda yuz berganligini izohlay olish ko'nikmasini shakllantiradi; •Matematik savodxonlikni oshirishga yordam beradi. 6-sinflar uchun 1-10-mavzular bo'yicha Masalan: 1-BOSHQOTIRMA: Hurmatli bilimdonlar! Quyidagi boshqotirmani yeching? Gerodotning mashhur «Tarix» asaridagi kitoblar soni. Gerodotning mashhur «Tarix» asaridagi kitoblar soni. 1 Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan

iborat qismining eng qisqa masofasi (km) Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng qisqa masofasi (km) 2 ? 3 Misrliklar birinchi bo'lib tuzgan taqvimdagi bayram kunlari Misrliklar birinchi bo'lib tuzgan taqvimdagi bayram kunlari 4 ? 5 ? 3 1-boshqotirma: "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinida berilgan boshqotirmaning javobi 22 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining 1-10-mavzular ichidan 22 soni bilan bog'liq ixtiyoriy bitta ma'lumot ayting? Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng uzun masofasi 22 km

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil

**PAXTANING SINFLARI BO'YICHA IFLOSLIKLARINING MASSAVIY  
ULUSHI VA NAMLIKNING MASSAVIY NISBATINI CHEKLANGAN  
ME'YORLARI**

*Shermatova Rayhonoy Jumoboy qizi*

*Farg'ona politehnika insitituti 3919 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Davlatimizning eng asosiy maqsadi aholining moddiy, madaniy va ma'naviy hayot darajasini ko'tarish, erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod hamda farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizning munosib o'rnimizni egallashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Paxta, namlik, yetishtirish, quritish, sifat, tola, iqtisodiyot, texnologiya, qayta ishlash.

**Аннотация:** Основная цель нашего государства - поднять материальную, культурную и духовную жизнь населения, построить экономику, основанную на свободных рыночных отношениях, построить благополучную и процветающую жизнь для нашего народа, занять достойное место в мире. международная арена.

**Ключевые слова:** хлопок, влажность, выращивание, сушка, качество, волокно, экономичность, технология, переработка.

**Annotation:** The main goal of our state is to raise the material, cultural and spiritual life of the population, to build an economy based on free market relations, to build a prosperous and prosperous life for our people, to take our rightful place in the international arena.

**Key words:** Cotton, moisture, cultivation, drying, quality, fiber, economy, technology, processing.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda paxta yetishtirish va uni qayta ishlash sanoati muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik davrida Respublikamizning paxta tozalash sanoati korxonasi davlat dasturi asosida tubdan qayta ta'mirlanib, korxonalari modernizatsiya qilindi, zamonaviy texnikalar bilan jihozlandi. Paxta xomashyosini qayta ishlash uni

quritishdan boshlanadi, chunki paxta xomashyosidan olinadigan mahsulotlarning sifati va texnologik uskunalarning ishlash samaradorligi paxta xomashyosining namlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Quritish namlik va issiqlik almashinuvining murakkab jarayoni bo'lib, paxta xomashyosini qayta ishlashda eng muhim texnologik bosqichlaridan biri hisoblanib u quritish materialining issiqlik-fizik xossalari namlik bilan bog'lanish shakllari asosida belgilanadi. Tayyorlanayotgan paxta xomashyosining sifati uning navi, namligi, ifloslanishi, tashqi ko'rinishi bilan aniqlanadi.

Paxta xomashyosining namligi uning texnologik va tovar qiymatiga ta'sir qiluvchi muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Modomiki, paxta xomashyosi paxta tozalash korxonalariga katta partiyalarda olib kelinar ekan, bir vaqtning o'zida hammasini qayta ishlashning imkoni bo'lmay, ularning ko'p qismini uzoq vaqt davomida saqlashga to'g'ri keladi.

Saqlanayotgan vaqtda namligi yuqori bo'lgan paxta xomashyosining tashqi ko'rinishi va tolasining pishiqligi tez pasayadi, paxta chigiti esa qizib ketib, fizik-mexanik xususiyatlarini yo'qotishga olib keladi. Paxtani qayta ishlash jarayonida esa texnologik mashinalarning normal ish rejimlari buziladi, tozalash samaradorligi pasayadi va paxta xomashyosini texnologik mashinalar tirqishida tiqilib qolishi yuz beradi. Yuqori sifatli tola olish va texnologik mashinalarning stabil ishlashini ta'minlash uchun paxta xomashyosini quritish va uning namligini 8—9 %ga tushirish lozim.

Paxtani quritish, ya'ni undan namlikni chiqarish maxsus qurilmalar — quritkichlarda yoki ochiq havoda amalga oshiriladi. Tabiiy quritish ko'p joyni egallaydi, ko'pgina ishchi kuchini, ob-havo bilan bog'liq bo'lgan sharoitni talab qilgan holda sekin amalga oshiriladi. Shuning uchun tabiiy quritish paxta tozalash sanoati uchun qo'llanilmaydi. 1954-yildan boshlab paxta xomashyosini sanoat usulida quritish aerofantan, tasmali, minorali va boshqa quritkichlarda amalga oshirilgan. Paxtani bu quritkichlarda quritish paxta ekish xo'jaliklarida qoi mehnati kuchini katta sarflash hisobiga amalga oshirilar edi.

Quritish jarayoni uzlukli va barcha sikl bir necha soat davom etib quritkichlar paxta xomashyosi massasini bir tekisda quritishni taʼminlay olmagan. Bu esa tolaning sifatini tushib ketishiga olib kelgan. Paxta xomashyosining yetishtirilishini oʻsishi, hosilni mashinada terishni joriy qilinishi natijasida terish muddatini qisqartirish erishildi.

Natijada paxta xomashyosini quritishda ogʻir qoʻl mehnatini kamaytirish hamda uning tabiiy sifat koʻrsatkichini saqlash va xizmat qilayotgan xodimlarning sogʻligʻini saqlashni taʼminlovchi yuqori unumdorlikka ega boʻlgan quritkichlarni yaratish zarurati paydo boʻlgan. Uzluksiz harakatlanadigan, yuqori samaraga ega boʻlgan mexanizatsiyalashgan quritkichlar yaratildi. Natijada quritish va tozalashda qoi mehnatining ishini sezilarli darajada qisqartirishga erishildi. Hozirgi paytda paxta xomashyosini quritish uchun baraban tipidagi yuqori unumdorlikka ega boʻlgan 2СБ-10 va СБО quritkichlari ishlatimoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Parpiyev, M. Axmatov, A. Usmonqulov, M. MoʻMinov
2. Paxta Xomashyosini Quritish Toshkent — 2009 yil.
3. Mainer R. The Impact of Strategic Planning on Executive Behavior, Boston Safe Deposit and Trust Company. Boston, Mass., 1965.; Tilles S. Strategic Planning in the Multidivisional Company, Boston Safe Deposit and Trust Company, Boston, Mass., 1964.
4. Chandler A.D., Jr. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. Cambridge: MIT Press, 1962. 463 p



УЎТ:638.8

**АРМАН БОДРИНГИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, ЯҚИН ШАРҚ  
МАМЛАКАТЛАРИДА ТАРҚАЛИШ ВА МОРФОЛОГИЯСИ**

*Ибрагимова Насиба, Мамурова Дилфузабону*

*Боздорчилик ва иссиқхона хўжаликларини  
ривожлантириш агентлиги мутахассиси*

**Кириш.** Мамлакатимизда охириги йилларда аҳоли озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, сабзаёт маҳсулотларига бўлган талабини тўла қондириш ва сабзаёт маҳсулотлари хилма-хиллигини кенгайтириш бўйича кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Кейинги йилларда республикамиз экин майдонларига эртапишарлиги, юқори ҳосилдорлиги, турли зараркунанда ва касалликларга чидамлилиги билан ажралиб турадиган сабзаёт турларини экиш тавсия қилинмоқда. Асосий сабзаёт экинлари: помидор, бақлажон, ширин қалампир интродукция йўли билан мамлакатимизга кириб келган ва буларсиз ҳозир ҳаётимизни тасаввур қилиш қийин.

Интродукция деб, ўсимлик тури ва навларининг улар илгари учрамаган, етиштирилмаган жойга иқлимлаштириш, мослаштириш йўли билан кириб келишига айтилади. Янги ўсимликларни интродукция қилиш Ўзбекистонда ўсимликлар, қолаверса, сабзаёт экинларининг турли туманлигини бойитиш учун муҳим ҳисобланади. Ўсимликлар интродукцияси сабзаётлар ассортиментини (нав, турлари) кўпайтиришнинг муҳим манбаидир.

Республикамизда бир қатор сабзаёт турларидан фойдаланаётган бўлсакда, бироқ дунёда уларнинг инсон саломатлиги учун қимматли хусусиятларга эга бўлган, халқимиз кам истеъмол қиладиган ва деҳқонларимиз томонидан жуда кам етиштириладиган, ноанъанавий хилма-хил турлари мавжуд бўлиб, уларга руккола, брокколи, барг салат, бош салат, артишок, бамия ва янги сабзаёт тури арман бодринги экинлари мисол бўлади.

**Калит сўзлари:** арман бодринги, ҳосилдорлик, генетик, вегетатив, репродуктив, наслчилик, биологик, дифференциация, куртак, новда, ҳосил, тупрок, намлик, минерал ўғит, ёруғлик.

Арман бодринги, (*Cucumis melo var. Flexuosus*), узун, ингичка полиз меваси бўлиб, таъми ва ички қисми бодрингга ўхшайди. Бу аслида бодринг (*C. sativus*) билан чамбарчас боғлиқ бўлган қовун (*C. melo*) туридир. У узун бодринг, илон бодринг, илон қовун, чанбар деб ҳам аталади. Форсчада **Тирози**, курдчада **Шенг**, Семнани ури, япон тилида **Асур какадее**, хинд тилида **Тар**, италян тилида **Соммарелла** ёки **Тортарелло** деб аталади. Арман бодринги мева пўсти нозиклиги, ранги оч яшил ва бурмалиги билан ковоқдошлар оиласига кирувчи илон ковоқлардан ажралиб туради. Унинг аччиқлиги йўқ ва мева деярли ҳар доим тозаланмасдан ишлатилади.

Арман бодринги пояси яшил рангли, шохланувчан, қиррали, тукли бўлиб, 4-5 та барг пайдо қилгач, ерга ётиб, ёйилиб палак отадиган ёки атрофдаги нарсаларга (жингалаклари билан) чирмашиб юқорига ўсадиган ўсимликдир. Асосий пояси узунлиги тахминан 76-91 см етади. Арман бодринг ўсимликлари куннинг кўп қисмида тўлиқ куёшда ўсишни афзал кўради. Мева узунлиги 12-15 см га етганда енг мазали бўлади. Тузланган арман бодринги Яқин Шарқ бозорларида “тузланган ёввойи бодринг” номи билан сотилади

Арман бодринги (*Cucumis melo var. Flexuosus*) анъанавий ва қадимий Ўрта ер денгизи сабзавотидир. Исроил ва Фаластин ҳудудидаги қишлоқ хўжалиги далаларида ўстирилди. Турли хил ерларда ҳосилдорлик морфология ва микдорий хусусиятларда сезиларли фарқларни кўрсатди ва тўртта сабзавотчилик навига бирлаштирилган.



Нав орасидаги генетик масофалар географик масофа билан кучли боғлиқ бўлиб, ўртача узок муддатли март ёгинлари билан ҳосилнинг ўзгариши апрел ойидаги максимал ҳарорат билан боғлиқ. Арман бодринги юқори ҳосилга олиб келиши мумкинлигини кўрсатади. Иқлим ўзгарувчанлиги ўртасидаги боғлиқлик, қуруқлик ва маҳаллий муҳитга мослашувчан бўлади.

Табиий омилларга қўшимча равишда, маҳаллий ер ирқларига ўсимликларнинг фенологияси ва анатомиясини бевосита шакллантирадиган ва узок муддатли истикболда популяциялар ўртасидаги ирсий фарқларни аниқлайдиган селектив таъсирга ега бўлган фаол қишлоқ хўжалиги амалиётлари ҳам таъсир қилади. Уларни "умумий сабзавотчилик" экспериментида турли муҳитлардан популяцияларни кўпайтириш орқали аниқлаш мумкин.

Арман бодринги қовоқдош экинлар орасида генетик жиҳатдан енг хилма-хил экиндир. Улар орасида Арман бодринги мевалар аччиқ емас, лекин ҳали ширин бўлмаган ва қовоқ ва бодринг каби янги, тузланган ёки пишмаган мева босқичида пиширилиши мумкин бўлган тетиклантирувчи сабзавотни тури. Кейинчалик, улар биологик пишиб етилганда истеъмолга яроқсиз бўлади. Ҳозирги вақтда арман бодринги анъанавий сабзавот экинлари бўлиб, асосан Қуйи Жалилейда ва Фаластиннинг Яҳудия, Самария ва Иордания водийси қишлоқларида ёмғирли қишлоқ хўжалигида исроиллик араб фермерлари томонидан етиштирилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Славсон ДЛ. Анъанавий тропик қишлоқ хўжалигида экинларнинг хавфсизлиги ва тур ичидаги хилма-хиллик. Иқтисодиёт боти. 1984 йил; 39:56–67.
2. Данин А., Плитманн Й. Исроил ва Синайнинг вегетатив-географик ҳудудларини қайта кўриб чиқиш. Ўсимлик Сист Евол. 1987 йил; 156:43–53.
3. [www.supersadovnik.ru/plant.aspx](http://www.supersadovnik.ru/plant.aspx)
4. [www.cofe.ru/garden/article.asp?article=12928&heading=52](http://www.cofe.ru/garden/article.asp?article=12928&heading=52)
5. [http://nauka/relis.ru](http://nauka.relis.ru)

**БИОНИКАНИНГ ТУЗИЛИШ ПРИНЦИПЛАРИ УМУМИЙ ТУШУНЧА**

*Маткаримов Алишер Исмоилович*

*Урганч давлат университети техника факультети,*

*Архитектура кафедраси уқитувчиси*

**А Н Н О Т А Ц И Я**

**Бионика** (грекча βίον — *жонли*) —техник тизимлар ва қурилмаларда жонли табиатнинг тузилиши, хоссалари ва хусусиятларини қўллашни ўргатувчи амалий фан.

Бионика тирик табиат функциялари ва тузилиши принципларини қўллашни ўргатиш билан бирга ,тирик табиатнинг саноатдаги аналоглари ҳисобланади .яна ҳам соддароқ қилиб айтганда бионика биология ва техниканинг бирлашувидир.Шу билан бирга бионика биология ва техникани умуман бошқа тарафдан яъни қандай умумий ва қандай хусусий томонлари борлигини ўргатади.

Бионика қуйидаги турларга бўлинади:

*Биологик бионика.Биологик тизимларда кечувчи жараёнларни ўрганадиган назарий бионика.Биологик жараёнларнинг математик моделини тузади*

*Техник бионика.Мухандислик масалаларини ечиш учун Назарий бионика яратган моделларни қўллашни ўргатади*

Бионика биология физика кимё.кибернетика ва мухандислик фанлари (электрон навигация)алоқа,кемачилик,архитектура ва бошқа амалий фанлар ўзаро боғланган

*Бионика қадимги юнон тилидаги бион — «ҳаёт ячейкаси» сўзидан олинган.Бионика биологик тизимлар ва жараёнларни чуқур ўрганиш орқали мухандислик масалаларини ечишда қўлланилади.Табиатдан олинган ғояларга асосланиб ўзига хос техника ва технологиялар ишлаб чиқилади*

### **Биомиметика**

Инглиз ва бошқа кўп тилларда **биомиметика** (юнонча βίος — ҳаёт, и μίμησις — ўхшаш) маъносини англатади. Бу фикрнинг ёрқин мисоли швейцариялик муҳандис Жорж Де Местрал томонидан ёпиштиргични келтириш мумкин. Ўз ити билан сайрга чиққан бу муҳандис ит юнгигига маҳкам ёпишиб қолган шолғом мевасининг ширасининг хоссасига асосланиб ёпиштиргични ихтиро этди

### **Ривожланиш тарихи**

Бугунги замонавий билимларга асосланган қурилиш ва архитектура мўжизаларини кўриб, ота-боболаримиз бунёд этган тарихий обидалар, мачит ва мадрасаларда аждоқларимизга хос улуғворлик, жонли табиат билан уйғунликни кўриб ота-боболаримиз ақлу заковатига лол қоласиз. Улуғвор минораларга назар ташласангиз Хоразмдаги терак дарахти тузилишидан олинганини, масжид ва мадрасалардаги гумбазсимон тузилишни Хоразмдаги қадимги гужумлардан „(халқимиз “Қоромон” деб ҳам айтади) улғу олгандек туюлади Жонли табиат тўғрисидаги билимларга асосланиб муҳандислик вазифаларини ечиш буюк рассом Леонардо да Винчи ҳам уриниб кўрган. Машҳур рассом қушларнинг қанотига асосланиб учувчи аппарат ихтиро қилган эди. Фан техниканинг ривожланиши айниқса кибернетика ривожини яъни тирик организм ва машиналарни бошқариш тизимлари ва алоқани ўхшашлигини ўрганиш янги-янги машиналар жиҳозларни яратиш ва амалда қўллашга имконият берди

### **Биониканинг асосий тушунчалари**

Биониканинг асосий йўналишлари қуйидаги муаммоларни ечишга қаратилган:

Инсон ва ҳайвонот дунёсининг асаб тизими, асаб толарининг моделлаштириш (нейрон ) асосида ҳисоблаш техникаси ,автоматика ва телемеханика қурилмалари таркибини такомиллаштириш ёки янғисини яратиш (нейробионика);

Тирик организмлар сезги органлари тузилишини чуқур ўрганиш орқали янги таҳлил ва ташхис қурилмалари аниқлаш тизимлари датчикларини такомиллаштириш ёки янгисини яратиш

Тирик организмларнинг мўлжаллаш .эшитиш ва навигация (океан.денгиз дарё ва кўлларда ҳаракатланиш) таойилларини техникада қўллаш

Тирик организмларни морфологик.физиологик ,биохимик ўзига хослигини ўрганиш орқали янги ғояларни ишлаб чиқиш

### **Моделлаштириш**


Бионикада моделни яратиш дегани натижага эришиш эмас,ишнинг ярми бажарилди ҳисоб дегани .Аниқ вазифани бажариш учун зарур хоссага эга бўлган моделни яратиш билан бирга олдиндан белгиланган кўрсаткичларга ва тавсифларга асосланган ҳисоблаш услубини яратиш ҳам талаб этилади.Бунда синтез яъни масалани қисмларга ажратиш ва орқали умумий ечимга келиш усулидан фойдаланилади.Бионика ривожланишига компьютер техникаси ривожланишининг ҳам катта таъсири бор.

Шу сабабли бионик моделлар ўзини дастлабки кўриниши ва техникада қўлланилишини компьютерда топади.Моделнинг математик тавсифи яратилади Шу асосда компьютер дастури тузилади.Бундай компьютер модели асосида яратилаётган қурилманинг камчиликлари аниқланади ва бартарапф этиш йўллари излаб топилади.

Шундай қилиб моделлаштириш дастури бўйича моделнинг динамик ишлаши ўрганилади.

Мақсадли техник қуриш асосида кучланишлар,зўриқишлар аниқланади.Мақсад такомиллашган ҳар томонлама мукамал техник моделни яратишдир.Ўта мураккаб моделларни яратиш эверистик усуллар ҳам қўлланилилади.Бундай усулларга асосланиб экспериментал ва техник физика масалалари,иқтисодий муаммоларни ҳал этиш,кўп тармоқли тизимни конструкторлик ечимларини ҳал этишда қўлланилмоқда

**Архитектура ва қурилиш биониқаси**



Расмда Биомиметика –табиат тизимлари таъсирига асосланган архитектура-кўрғазма бинолари ва лойиҳалари китоби Потсдам Германия, май 2014 йил муаллиф архитектор Моти Бодека

**Био-тек**

Архитектура қурилиш биониқаси тирик организмлардаги шаклланиш ва тизимлар пайдо бўлиш қонунларини ўрганиш орқали қуриладиган бино ва иншоотларни пухталигини ошириш, материаллар ва энергия тежамкорлиги масалаларини ечиш вазифасини ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Нейробионика инсон ва бошқа мавжудотлар миясини ўрганиш орқали хотира, сезиш уларнинг ички реакцияларини ўрганиш орқали компьютер ва бошқа машиналарни такомиллаштириш вазифасини ўз олдига қўяди. Архитектура қурилиш биониқасининг ёрқин намунаси сифатида ёпишиб ўсувчи чирмовуқ дарахти ва унинг новдаларини ўрганиш орқали бино ва иншоотларни барпо қилиниши ҳисобланади. Бундай дарахт нрвдаси жуда катта кучланишда ҳам синмайди. Агар шамол таъсирида ерга қапишиб қолса ҳам тезда ўзининг олдинги вазиятини эгаллайди. Мухандислик ечимларининг энг кейинги ютуқларидан бири ушбу ғояга асосланган баланд қувурлар шаклидаги иншоотлардир. Новдаларнинг склетсимон тузилмаси вазифасини кўндаланг ўрнатилган арматуралар бажарса оралиқ халқа вазифасини пухталик халқалари бажаради. Агар кундалик

ҳаётимизга назар солсак инсон ўзининг деярли барча кашфиётларини табиатдан олган. Масалан тугма ўрнига ишлатиладиган чакмоқсимон илгичлар (молния) кушларнинг патига ўхшайди

Дунёга машҳур испан архитекторлари М. Р. Сервер ва Х. Плез бионик архитектура фидоийлари ҳисобланади. Улар 1985 йилдан “Динамик тузилмалар” ғоясини ўрганиб 1991 йилда “Архитектура инновацияларни қўллаб-қувватлаш” жамиятини тuzдилар. Архитекторлар, биологлар, рухшунослар, муҳандислар ва дизайнерлардан иборат гуруҳ “Вертикал минора-шаҳар” лойиҳасини ишлаб чиқдилар. 15 йилдан кейин ушбу лойиҳа асосида Хитойнинг Шанхай шаҳрида мўжизавий бино барпо этилади. Чунки яна 20 йилдан кейин Шанхай аҳолиси 30 миллионга етади. Минорасимон шаҳар 100 минг кишига мўлжалланган бўлиб дарахт конструкцияси тамойилига асосланган. Минора шаҳар кипарис дарахти шаклига эга бўлиб баландлиги 1228 метр, пастки асоси 133 ва 100 метр, энг йўғон қисмида 133 ва 166 метр энига эга бўлади. Минорада 300 қават бўлиб 12 та вертикал кварталларнинг ҳар бири 80 метрга тенг. Қаватлар орасидаги қатлам ҳар бир кварталнинг кўтарувчи конструкцияси ҳисобланади. Кварталлар ичида эса вертикал боғлар мавжуд. Бу ўта пухта ўйланган лойиҳа кипариснинг асоси ва новдалари тузилишидан келиб чиқиб яратилган. Минора шаҳар қозиксимон пойдеворга эга бўлиб, баландлик ошган сайини фақат пастга эмас балки ҳамма тарафга ёйилиши ҳам кипарис илдизини эслатади.

Хўш бундай улкан минора шамол таъсирига бардош бера оладими? Минора шаҳарнинг тузилиши шамол минора орқали ўтиб кетишига асосланганлиги туфайли деярли таъсир кўрсатмайди. Ташқи деворларга ишлатилган махсус пластик материаллар ҳам кипарис пўстлоқларига ўхшайди. Тажриба мувафақиятли чиқса бундай минора шаҳарларда бир қанчасини қуриш режалаштирилмоқда.

Архитектура қурилиш бионикасига асосланган энг янги технологиялар самарали ва чиқиндисиз конструкцияларни яратишни мақсад қилиб қўймоқда. Бунга мисол қилиб қат-қат конструкцияларни кўрсатиш




мумкин. Бундай конструкцияларни яратиш ғояси денгиз ва океанлар чуқурлигидаги моллюскалар- чиганоқларни тузилишидан олинган. Чиганоқларнинг алмашинувчи қаттиқ ва юмшоқ қатлами ўта мустаҳкамликни таъминлайди. Агар қаттиқ қатламда дарз пайдо бўлса остидаги юмшоқ қатлам деформацияни пастки қатламларга ёйилишига йўл қўймайди. Бундай технологияларни автомобилларнинг ғилдиракларида ҳам қўлланилиши мумкин.

### **Нейробионика**

Нейробиониканинг асосий йўналиши инсон ва бошқа мавжудотлар асаб тизими ва толаларини ўрганиш ва моделлаштиришдан иборатдир. Бу эса архитектура, электрон ва ҳисоблаш техникасининг ривожига асос бўлади. Шунингдек нейробионика ютуқлари сунъий интеллект яратишга ҳам асос бўлиши кутилмоқда.



*Айланувчи осмонўпар бинолар лойиҳаси.  
Архитектор Дэвид Фишер (David Fisher)*



*6 қаватли айланувчи бино лойиҳаси  
Архитектор Константин Мельников (1924 йил).*



*кемасисимон бино. SUBMARINE HOUSE*



*Рон Арада лойухаси(Ron Arad)*



*Бионика панарамаси*



Хулоса ўрнида:

Дунё архитектурасида сўнги 40 йилда тирик табиатдаги шаклланиш қонуниятларига асосланган янги сифатдаги “НТС“ юзага келди. Бионик архитектура “НТС“нинг йўналишларидан бири ҳисобланади. Архитектура бионикаси асрлар давомида шаклланган архитектура шакллари билан фарқли ўлароқ ўзининг эстетик ва ўзига хослиги билан ажралиб турадиган шакллари юзага келтирди. Бу эса муҳандислар ва архитекторларнинг ўта қизиқишларига сабаб бўлмоқда. Бионикани- “ҳаёт элементи” деб аташ ҳам мумкин. Бионика фанда биологик тизимлар ва жараёнларни ўрганиш ва архитектура қурилиш соҳасида, қўллашни қонун ва қоидаларини ўрганувчи фаннинг янги йўналишини яратилишига сабаб бўлди.

Архитектуравий бионика техник бионика ўхшаш бўлсада ўзига хослиги туфайли алоҳида йўналиш бўлиб, техник масалалар билан бирга архитектуравий муаммоларни ҳам ечини ўргатади. Архитектуравий биониканинг илмий асосларини архитекторлар В. В. Зефельд ва Ю. С. Лебедевларнинг алоҳида ҳиссаси бор. Техника ва қурилиш архитектура соҳасида тирик табиат қонунларини ўрганиш ва қўллаш тўлиқ асослидир. Чунки табиатда ҳеч бир нарса ўз қобиғига ўралиб қолмасдан ўзаро ва табиат билан боғлиқдир. Бунинг асосида инсон ва табиатнинг яхлитлиги ўзаро боғлиқлиги туради. 20 аср бошларида испан архитектори **Антонио Гауди** (1852 - 1926 йй.), мураккаб конструкциялар ва шакллари ўзаро боғлиқлигини исботлаб берди. Лекин бу жараёнга ўта берилиб кетган бу архитектор формализмга ўтиб кетди. Архитектура қурилиш бионикаси ривожига австриялик архитекторлар Земпер, Фельдега, Бауэр ўзларининг “Қурилиш санъатида Дарвин назарияси” номли рисола яратдилар. Бионикани илмий асослашда **Фрэнк Ллойд Райт** хулосалари эътиборга лойиқ. У органик архитектура ўсимликлар ва ҳайвонот оламига таалуқли органика эмас балки инсон эҳтиёжлари ва талабларига жавоб берадиган бўлиши абстракт шакллари билан холи бўлишга чорлайди. Иккинчи жаҳон уруши тамом бўлган ер юзаси аҳолиси енгил тин олиб илм фан ривожига катта қадамлар қўйилди. Инсон космик фазони забт эта бошлади. Компьютерлар ва интернет

тармоғи ривожлана бошлади. Архитектор **Отто Фрай 40 йиллардаёқ** тежамли қурилиш ва архитектура ечимларига бағишлан илмий ишларни олиб борган. Шунини таъкидлаш лозим бионик қурилиш архитектура ривожда компьютерларнинг ривожланиши .кескин бурилиш ясади. Замонавий биониканинг асосий таълимоти фақатгина тирик табиат билан боғлиқликни эмас ўзаро ва тирик табиат билан боғлиқлик қонунларини яхлит тизим сифатида ўрганишдир. Вазифадан шакл ва қонуниятга- бу қурилиш архитектура бионикасининг асосий ғояси ҳисобланади. бионик қурилиш архитектура ривожда фазовий конструкцияларни қўллаш ҳам муҳим ўрин тутди. Бунда улгу асосан табиатдан олинган бўлади. Бундай ечимлар кўп пролетли ва баланд бино ва иншоотларда, тез ўзгарувчи конструкция ва стандарт элементларда ўзини аксини топди. бионик қурилиш архитектураинг вазифаларидан яна бири нсон учун микроиклим яратиш масаласидир. Бионик қурилиш архитектураси нафақат функционал вазифаларни ечиш . функцияларни синтези асосида синтетик шакл ва тизимларни яратиш ҳам ҳисобланади.

### **“ Бионика “архитектураси истиқболлари:**

1. Энергия тежамкор ва ўзи энергия ишлаб чиқарадиган бинолар. Инсон доимо янги энергия манбаларини ахтариб яшайди. Чунки энергия – бу ҳаёт... Лекин инсоният учун улар фойдаланаётган энергия қимматга тушмоқда. Энг ёмони атроф муҳит ифлосланиб бормоқда. Парник жараёни тезлашмоқда. Эндиликда энергияни тежаш биринчи галдаги вазифалар қаторида турибди. АҚШда иссиқлик изоляцияси туфайли 40 фоиз энергия тежашга эришилган бўлса Германияда 2020 йилга бориб 15 фоиз бинолар ўз-ўзини энергия билан таъминлайди

2. Замонавий қурилиш ва архитектурада тезкорлик ва мобиллик кундан-кунга муҳим аҳамият касб этмоқда. Тезкор ва шиддатли замон қурилиш ва архитектура соҳасини шиддат билан ривожланишини талаб этмоқда. Фазовий трансформация архитектура ривожига янада туртки беради. Эндиликда иш ўрни

иш фазоси билан уйғунлашади. Меҳнат инсон яшаш манбаси сифатида кескин сифат ўзгаришларга юз тутди

3. Классик анъанавий иш ўринлари ўрнини тезкор ва мобил иш ўринлари эгаллайди. Француз архитектори Жан Нувель таъкидлашича дунё меҳнат театри юзага келиб. Асоий ғоя келажакдаги меҳнат-бу ўзгаришлардир

4. Инсоният ҳадемай 21 аснинг биринчи чорагини яшаб кўйди. Архитекторлар олдида қандай вазифалар ва истиқболлар мавжуд? Ер-осмон ғояси билан космик фазони эгаллашми? Технологияларни ривожланиши иқтисодий ва ижтимоий ва маданий глобаллашувига олиб келди. Горизантал чегаралар барҳам топиб биз ер деб аталган фазода космонавтларга айланмадикми? Эндиликда вертикал фазони эгаллаш масаласи инсоният олдида қўйилмаптими? Реал космик фазони эгаллашдаги илмий кашфиётлар сир бўлиб қолмаслиги архитектура ривожига ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатиб келажакда АРХИТЕКТОР касбини янада улуғворлигини исботлайди

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. А. И. Бабаев, Биомиметика , 2014 й
2. Интернет материаллари <http://cih.ru/k>
3. Биологияда моделлаштириш, инглиз тилидан таржима қилинган, Н. А. Бернштейн, М., 1963; Парин В. В. ва Баевский Р. М., тиббиёт ва физиологияда кибернетика, М., 1963;
4. Бионика масалалари. М. Г. Хаасе-Рапопорт, М., 1967; Мартека В., бионика, инглиз тилидан таржима, М., 1967; Крейзмер Л. Р., Сочивко В. Р., бионика, 2-ад., М., 1968; Бринесс С. Н., Свечинский В. В.,
5. Нейроцибернетика ва нейробионика муаммолари, М., 1968:
6. Бионика бўйича библиографик кўрсаткич, М., 1965.

**TEXNOLOGIYA FANI AMALIY MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI**

*Ahatova Dilfuza Nurmahamatovna*

*Namangan viloyati Kosonsoy tuman 3- son kasb-hunar maktabi*

*Maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fani amaliy mashg'ulotlarining ahamiyati, texnologiya darslarini amaliy tarzda olib borilishi, natijada o'quvchilar amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lib borishlari, zamonaviy texnologiyalar va metodlar bilan tashkillashtirilishi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, amaliy mashg'ulot, metod, pedagogik mahorat, texnik-texnologik ishlar.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda.

Ta'lim - tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini amalga oshirishning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda texnologiya darslari orqali aqliy va jismoniy mehnat turlari, texnik va texnologik ishlar, kasblar olami bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, ko'nikmalari, malakalari va kompetensiyalari, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnatni ulug'lash va kasblarni qadrlashga, ularning mohiyatini tushunish, mehnat kishilariga hurmatda bo'lish, ijtimoiy faol mehnatda ishtirok etishga o'rgatib boriladi. Ushbu vazifalarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishda

o'qituvchidan yuksak mahorat talab etiladi. O'z kasbining fidoyisi bo'lgan o'qituvchigina yoshlarga fanning sir-asrorlarini o'rgatishda qiynalmaydi.

O'quvchilarni texnologiya faniga qiziqtirishning yana bir usuli bu amaliy mashg'ulotlarni ko'rgazmali qurollar va axborot texnologiyalari vositalari orqali yoritib berish hisoblanadi. O'quvchilar eshitgandan ko'ra ko'rgan narsasini xotirasida yaxshi saqlaydi. O'qituvchi darsni yaxshi tashkillashtirish chun bir qancha qulayliklar yaratilgan, masalan, har bir darsning multimediyasi va video darslarni misol keltirishimiz mumkin.

Texnologiya fani boshqa o'quv fanlaridan o'zining qator xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi:

- fanni o'qitishda amaliy mazmun ustuvorligi;
- ishlab chiqarish bilan bevosita uzviy va chambarchas bog'liqligi;
- mujassam fan ekanligi, ya'ni uni o'qitishda o'ndan ziyod o'quv fanlari bilan aloqadorligi hamda bir necha mustaqil fanlarni qamrab olganligi;
- o'qitishda o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi;
- shahar va qishloq maktablarining moddiy texnika jihatdan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqligi;
- mahoratining shaklla nishi bilim, ko'nikma va malakalarining o'ziga xosligi;
- o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq kasb-hunarga yo'naltirish ishlari amalga oshirilishi;
- kasb tanlashga yo'llash ishlari texnologiya fani darslarining 1-9-sinflarida olib borilishi;

-texnologiya fani o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichi o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'qishni davom ettirishga zamin yaratadi.

Texnologik ta'lim bo'yicha ishlarni amalga oshirayotganda o'quvchilar u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilish kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlaridan iborat.



Har bir o'quv yilida va barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi. Birinchidan, o'quvchilar ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo'llanilishi bilan tanishadilar. Texnologiya darslarida turli metodlardan foydalanish o'qituvchining ishini yengillashtiradi va darsni qiziqarli o'tlishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalish va maqsadlarda qullanilayotganligiga bog'liq. Har bir texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo'llarini bandma-band aniqlash va unga suzsiz erishishdan iborat.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-o'quvchining extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan. oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. - T.: "Delta print", 2017.
2. A.I.Vorobyov. Mehnat ta'limi. - T., 1993.
3. Z.Sattorova, N.Abdusalomova, N.Ahmedova. Texnologiya. Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
4. U.Inoyatov, S.Ahmedov, R.Nurimbetov. Iqtisodiyot va tadbirkorlik. - T.: "O'qituvchi", 2004.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INTERAKTIV PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY TALQINI

*Aynura Muratbekova Sharibaevna*

*Qaraqalpaqstan Respublikasi Informatsiya Texnologiyalari texnikumi:*

*No'kis qalasi, To'rtkul guzari*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv pedagogik texnologiyalarning zamonaviy talqini haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy, ta'lim, nazariya, mazmun, metod, tushuncha, loyihalashtirish, jarayon, interaktiv, innovatsion.

Ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham talaba-o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi talaba-o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va talaba-o'quvchilarga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, O'TV ni, eng asosiysi, o'quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi [ularni mustaqil](#), erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy

yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogik va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llanilishini taqozo etadi. Ular juda xilma-xil bo'lib, biz ulardan ba'zilar xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida uslubiy ko'rsatma beramiz. Ushbu metodik ko'rsatmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba-o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, [tanqidiy](#), mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash,

o'quvchularning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. "Innovatsiya" inglizcha — innovatoin yangilk yaratish, yangilik ma'nolarini anglatadi. Zamonaviy ta'lim tizimi hozirgi davrning barcha o'ta jiddiy talablariga javob bera olmayotganligini juda ko'pchilik olimlar va mutahassislar tomonidan tan olinayapti. Ushbu holatni tubdan o'zgartirishning asosiy yo'llaridan biri - ta'lim tizimiga zamonaviy texnologik rivojlanishning eng yangi dasturiy-texnik vositalarini keng miqyosda jalb qilishdir. Bunday vositalardan biri - insonlarning ishlab chiqarishdan va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan holda to'laqonli ta'lim olishiga imkon beradigan raqamli platformalardagi ochiq masofaviy ta'lim tizimidir (MOOC - massive open distance education sistem - ommaviy ochiq onlayn ta'lim tizimlari). Bundan bir necha yillar oldin, ya'ni, 2012 yilning kuzlarida Stenford universitetining ikki professori Sebastyan Trun va Piter Norvig internetda barcha istovchilar uchun sun'iy intellect bo'yicha ma'ruzalar tinglashni taklif qilishdi. Bu ma'ruzalar o'z tarkibiga barcha kerakli materiallarni, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab olgan edi.

Mashg'ulotlar esa faqat online ko'rinishida tashkil etilgan edi. Ma'ruzachilar eng ko'pi bilan 2-3 ming talaba ushbu mashg'ulotlarga qatnashishini rejalashtirgan bo'lsalarda, semester boshida unga dunyoning 200 ta mamlakatidan 160 ming kishi yozilib bo'lgan edi. Bunga o'xshash masofaviy ta'lim tizimlari borgan sari murakkablashib va sifati oshib borayotganini ta'kidlamasdan iloji yo'q. Kun sayin yanada ko'proq tajribali o'qituvchilar va professorlar o'z ma'ruzalarini boshqalar bemalol foydalanishi uchun YouTube va iTunes tizimlariga yozib qo'yayaptilar. Ularning ba'zilar, masalan, siyosiy falsafa bo'yicha Garvard professori Maykl Sendel o'zining ma'naviyat haqidagi «Justicye» deb nomlangan kursini haddan tashqari ommalashib ketgani tufayli internetdagi eng mashhur shahslardan biri bo'lib qoldi. Har yili dunyo miqyosidagi eng yaxshi bilimlarni to'plash va ularni internet orqali barcha foydalanishi uchun tarmoqqa joylashtirish bo'yicha yangidan-yangi ishlar qilinib, filantrop va venchur tadbirkorlar buning uchun o'nlab million dollar mablag'lar ajratayaptilar.

Ularning birgalikdagi say'i-harakatlari dunyoning istalgan joyida yashovchi insonlarning zamonaviy va sifatli ta'lim olishlariga sabab bo'lishi kuzatilayapti. Professorlar Sebast'yan Trun va Piter Norvig larning ta'kidlashlaricha, 2050 yilga kelib, jahon miqyosida bor-yo'g'i o'ntagina katta zamonaviy universitetlar qolib, ularda bir vaqtning o'zida millionlab talabalar o'qitilishiga erishiladi. Tabiiyki, bunday biznes unga jalb etilganlarning barchasi uchun ham foydali, ham raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar yetishtirishga katta ahamiyatga ega bo'ladi. STEAM tushunchasi. Ta'lim berishda hozir noan'anaviy bir uslubini ko'rishimiz mumkin. Unda bolalar o'nlab fanlar va darsliklarni maxsus fan qilib o'qishmaydi.

Bu STEAM ta'lim tizimi. STEAM ta'lim tizimi o'zi nima? Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu - S -science, T - technology, E - engineering, A - art va M - math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona

ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'siri shuki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak.

Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "o'qib oladilar". STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni, bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini. Ta'limga ushbu yangi yondashuv, nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham. So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari

vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha. haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimigina haqiqatan ham qadrlidir. Asosiy qism.

Xo'sh, nega ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha ham xuddi shunday qiziqarli interaktiv electron kitob va ma'ruza matnlari yaratish mumkin emas! Ammo ko'pchilik eski va qotib qolgan dunyoqarashli pedagoglar qog'oz ko'rinishidagi an'anaviy kitob va qo'llanmalar yaratishning afzal tomonlarini siz va bizga o'nlab soat tushuntirishga urinishlari mumkin (buni ta'lim tizimidagi o'ziga hos stagnatsiya jarayoni deb atash ham mumkin - eskilik yangilikka osonlikcha joy bo'shatib bermaydida!).

Chunki ular birinchidan, bunday raqamli electron kitoblarning afzalliklarini tushunishga ma'nan tayyor bo'lmasalar, ikkinchidan, bunday raqamli dunyo kitoblarini yaratishga va undan foydalanishga qodir emaslar. Uchinchidan esa ilgari zamon tushunchalari va hozirgi zamon tushunchalari orasidagi katta farq 20- asr odamlari bilan 21-asr odamlari orasida o'ziga hos katta bo'shliq hosil qilgan. Shuning uchun ham hozirgi davrda yoshlar va kattalarning bilim olish va malaka oshirish jarayonlari turli ko'rinishlarda amalga oshib, turli xildagi samara berayapti. Xuddi shuning uchun ham raqamli electron kitoblar yaratish jarayoni mavjud kitob va qo'llanmalarni asta-sekinlik bilan raqamli formatga o'tkazish bilangina chegaralanib qolayapti - bu ishlarning samarasi esa juda ham past bo'lishini oldindan aytib berish katta qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ammo bu holat vaqtinchalik bo'lib, tez orada o'zgarishiga umid qilish mumkin, chunki respublika o'quv muassasalarida interfaol ta'lim usullarining tezkorlik bilan tadbiiq qilinishi raqamli innovatsion ta'lim usullarini amalga oshiradigan electron adabiyotlar va saytlar yaratishni taqozo qiladi va buni kimdir albatta amalga oshiradi.

Shuni ham aytish kerakki, faqatgina maktab darsliklarini raqamli innovatsion usullar vositasida tayyorlash va ularni sotishdan tushadigan mablag‘ juda katta miqdorni tashkil qiladi. Agar bunga litsey, kollej, institutlar, universitetlar va akademiyalarda foydalaniladigan raqamli electron darsliklarni qo‘shsak, juda katta pul miqdoriga ega bo‘lamiz. Bunday katta va doimiy manba‘li mablag‘ ishlab olish imkoniyati ko‘pchilik tadbirkorlar va venchur biznes namoyondalarini jalb qila olishini aniq fakt deyishimiz mumkin

Agarda bu yumush yuqorida tavsif etilgan o‘quv muassasalari xodimlari tomonidan o‘sha ta‘lim dargohlarida ishlaydigan dasturchilar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi tashkillantirilsa, bunday tadbirkorlik faoliyati ta‘lim muassasalariga ko‘plab pul mablag‘lari kelishiga sabab bo‘lar edi va ular o‘z ichki imkoniyatlari hisobiga tezda rivojlanib ketgan bo‘lar edilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. SS Gulyamov, RH Ayupov, OM Abdullayev, GR Boltaboyeva Blockchain technologies in the digital economy. Tashkent - 2019.
2. M. Butaboyev, A. Urinov, F. Mulaydinov, Isroiljon Tojimatov. Digital economy. SamDu Publishing House - 2021.
3. Solidjonov, D. Z. O. G. L. (2021). STEAM EDUCATION SYSTEM AND ITS TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Science and Education, 2 (3).
4. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. Ilkogretim Online, 20 (3), 1474-1479.
5. “WHAT ARE PUBLIC OPEN ONLINE COURSES (MOOC)?” <https://uz.ipponline.org/what-are-massive-open-online-courses-moocs-7202>
6. Solidjonov, Dilyorjon. (2021). THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON EDUCATION: ADVANTAGE AND DISADVANTAGE "Economy and Society" №3 (82) ch.1 2021 www.iupr.ru. 3. 284-288.

JADIDLAR TA'LIM TIZIMIDA ONA TILINI CHUQURROQ O'RGATISH  
MASALALARI (ABDULLA AVLONIY MISOLIDA)

*Akbarova Surayyo Rustamovna*

*Toshkent shahar Mirobod tumani 94-maktab*

*O'zbek tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflar xalq ta'limi tizimining asosiy va muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, shuning uchun ham pedagogik jamoatchilik e'tiborini tortadi. Keyingi yillarda dasturlar, darsliklar takomillashtirildi, yangi pedagogik qo'llanmalar chiqarildi. Bu borada adabiy til me'yorini biladigan, rus tilidagi ish mazmuni va tizimini, yangi pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularda esa, Abdulla Avloniy ilmiy adabiyotlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.


**Kalit so'zlar:** Maktab, Abdulla Avloniy, ma'rifat, ma'naviyat, o'zbek tili, pedagogika, ta'lim-tarbiya.

Abdulla Avloniy ta'lim berishda bolalar uchun qanday bilimlar qo'yilganligi bizning ertangi kunimizga bog'liq degan fikr uni olg'a yurishga harakat qilgan. Pedagogikaning muhim tarkibiy qismlari: shaxsni shakllantirishga yordam berish, iste'dod va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Bolalarni sevish, ularni eshitish va tinglash, qiyin savollarga javob topish va yangi yutuqlarni rag'batlantirish, muvaffaqiyatga ishonish uchun yordam berish muhimdir, degan g'oya esa uning shiori, ertangi kunga ishonchi bo'ladi. Chunki, ayrim ulamolar va ruhoniylar hamda hukmron hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qarshiliklarga qaramay o'z manfaatidan ko'ra xalq millat manfaatini ustun qo'ydi.

Ma'rifatparvar murabbiy Abdulla Avloniy o'zining "Ifodai maxsusa" asarida o'sha davr maktabxonalaridagi o'qitish jarayoniga to'xtalib: "... o'z ona tilini durust bilmag'on, endigina harflarni bir-biridan ayirg'on bir yosh bolaning qo'liga "Chohor



kitob” berib, “Ibtido mekunam banome xudo” yoki “Sabot ul — ojizin» berib»: “sano lil — xoliqi gabronu afloq” yoki “Fuzuliy» berib: “Qal anoral-ishqdil ushshoq, minhojal — xudo” yoki “Xoja Xofiz” berib: “Alo yo ahyuvas-soqiy, adar qa’san va novilho” va soyiralar kabi forsiy, arabiy lisonlarida yozilmish eng adabiy va hikmatlik jumalarni uqitmak ila yerdan turib yulduzlarga kul uzatmak orasida farq yuqdur, zane daram. Vorsun, bu zannim xato ulsun-da, bolalarning onlardan bir narsa anglamaklari mumkin-da o’lsun”<sup>1</sup>,— deya o’zining tanqidiy munosabatini bildirib o’tadi. Darhaqiqat, bolaning yoshiga mos bo’lmagan kitoblar berib, ularni bilimli qilishga intilishning o’zi salbiy bir holatdir. Chunki, yoshiga mos kelmagan adabiyotlar bolada bilim olishdan ko’ra unda yoshiga mos kelmaydigan fikr va dunyoqarashni vujudga keltiradi.



## Abdulla Avloniyning 100 yilligiga bag'ishlangan Guliston jurnalining

7- soni 1978-y.

<sup>1</sup> Абдулла Авлоний. Т анланган асарлар. I -жилд. — Т.: “Маънавият”, 2006. —Б. 82-83.

Ona tilida dars o'tish o'quvchilarda darsni o'zlashtirishni osonlashtirish bilan birga ularda milliy ma'naviyatni saqlab qolishini nazarda tutgan jadidlar ta'lim tizimida ona tilini chuqurroq o'rgatish, ona tilidagi darslarni ko'paytirish, boshqacha aytganda, o'quv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, oxir oqibatda esa bu yoshlarda milliy-ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi, deb hisoblaganlar. Abdulla Avloniy tili bilan aytganda esa, "Milliy tilni yuqotmak millatning ruhini yuqotmak"<sup>2</sup> desak adashmagan bo'lamiz. Biz tilni daraxtga o'xshatishimiz mumkin, daraxt o'sgani sari uning shoxchalari ham ko'payadi, kelajak avlod qancha vaqtgacha daraxtni avaylab, uni parvarish qilsa, daraxt o'saveradi, lekin uni avaylab, asramasa, daraxt qurib qoladi. Xuddi shunday tilni ham qadrlab asrasa, u buyuklashadi. Mintaqada va dunyoda tilimizni qadri va nufuzini oshirish bizga bog'liq. Afsuski, sobiq ittifoq davrida bizning tilimiz go'zalligi ancha zarar ko'rdi. Bizni tilimizni yo'qotmoqchi bo'lganlar ham uchradi, tarix buni yaqqol isboti. Lekin bizning xalqimiz o'z Vataniga, diniga, tiliga sodiq qoldi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlatimiz konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi qonunan mustahkamlab qo'yildi. Bunda o'z-o'zidan barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritildi, gazeta va jurnallar esa o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993- yil 2-sentabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, tilimiz rivojiga katta hissa qo'shdi. Masalan, chet elliklarni tilimizga qiziqishi keyingi yillarda oshdi. Afsuski, ittifoq davrida boshlangan, undan keyingi yillarda esa chetdan kelgan har xil jargonlar tilimiz obro'siga zarar yetkazayotgani hammamizga ma'lum. Zero, bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, yani sinonim so'zlari qancha ko'p bo'lsa, aynan shu til boy hisoblanadi. Shunday tilimizni nomunosib so'zlar bilan buzish bizga yarasharmikan? Shuning uchun ota-bobolarimiz bizga uni qoldirdilarmi? Yo'q. Demak, biz tilimizni boyligini, go'zalligini undanda nufuzini oshirib qoldirishga majburmiz. Shu tufayli ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar. Masalan, Abdulla Avloniy shunday yozadilar: "Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilib, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur" yoki "Har bir millatning dunyoda borlig'ini

<sup>2</sup>Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. Toshkent: "Turon Iqbol", 2010. - B. 35-36.

ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adbiyotdir" degan gaplari bugungi kunda o'z isbotini topmoqda. Til har bir millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi-balki, xalqning urf-odati, tarixi, madaniyati ham hisoblanadi.

Boshqa millat vakillarini tillarini hurmat qilish, o'zaro tushunishni va muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Barchamizga ayonki, tillarni saqlab qolish uchun esa bu tillarni qo'llab quvvatlash zarur. Ona tilimizni xalqimiz ijtimoiy hayotida va dunyo miqiyosida obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'liq joriy etish maqsadida, O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganini 30 yilligini nishonlash arafasida 2019-yil

21- oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Bu esa o'z-o'zidan bizning tilimiz qonun himoyasidaligining yana bir isboti bo'ldi. Bundan tashqari 2020-yil 20-oktabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatimizda O'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra: 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi va unda quyidagilar nazarda tutilishi belgilandi:

-mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish;

-ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

-davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;


-davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash;

-davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

-mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab qo‘yilgan. Bu esa yurtimizda tilimizni mavqeini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, biz o‘z tilimizni dunyo miqyosiga chiqarish uchun, avvalambor, o‘zimizdan boshlashimiz kerak. Tilimizni Abdulla Avloniy aytganidek, ruhini buzmay saqlab qolishimiz zarur. Ona tilimizni imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish, uning xalqaro maydonda nufuzini yuksaltirish, bizning - har birimizning burchimizdir. Avloniy millatni xor qilayotgan bu jaholatdan qutqarmoqlikning yo‘lini ilm va uni beruvchi maktabdan izlash kerak, degan fikrni ilgari surdi:

Hamma xursandlikni ma’danidur ilm, ey o‘g‘lon,  
 Hamma fazlu qaramni manbaidur ilm, ey o‘g‘lon,  
 Hamma xo‘blarni xo‘bin maskandir ilm, ey o‘g‘lon,  
 Hamma Islom elini masnanidur ilm, ey o‘g‘lon,  
 Qo‘lingga bir kun muhri sulaymonni berur maktab,  
 Shahodatnomai firdavsi g‘ilmonni berur maktab<sup>3</sup>.



<sup>3</sup> Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. Toshkent: “Turon Iqbol”, 2010. - B. 93.

Avloniyning ijodida, she'rlarida o'z zamonasidagi ayrim ota-onalarning farzandiga bo'lgan e'tiborsizligidan kuyunib yozgan bo'lsa-da, lekin bugungi ayrim ota-onalarga ham uning she'rlari tegishli desak adashmagan bo'lamiz.

*Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.*

Vatan har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar. Hatto bu - Vatan hissi - tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar, bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-farog'atda yashamas. Maishati talx bo'lur, har vaqt dilining bir go'shasi o'z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimular shimol taraflarini eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz "Kishi yurtida sulton bo'lguncha o'z yurtida cho'pon bo'l", demishlar.

*Men ayblik emas, ey Vatanim, tog'larim,*

*Bevaqt tashlab ketdim oy, bog'larim.*

*Hijron qilodur meni judolig',*

*Do'ndi g'ama ro'zu, shabu chog'larim.*

Hammaga ma'lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, havlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining tufroqlarining mehru muhabbatidir.

*Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,*

*Banga na g'am qolur avlodima uyu vatanim.*

*G'ubora do'nsa g'anim, yo'q vujud asri vahm,*

*Charoki o‘z vatanim xokidur go‘ru kafanim,*

*Tug‘ub o‘san yerim ushbu Vatan vujudim xok,*

*O‘lursa aslina roje‘ bo‘lurmu man g‘amnok<sup>4</sup>.*

Ma‘rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she‘riyatida markaziy o‘rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi tushunchalar shoir she‘rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, “jaholat” va “nodonlik” esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, “Maktab” she‘rida shunday ta‘riflanadi:

*Maktabdur oftobi jahon saodating,*

*Maktabdur osmoni zamon sabovating.*

*Maktab u joyi dilkash shirin maqomdur,*

*Maktab behishtu jannat hur tabiating.*

*Maktab dilingga soch-usi ilmu fununni,*

*Maktab ziyoda qilg‘uchidir aqlu hikmating.*

*Maktab qo‘lingni tutdimi, boshlar hidoyata,*

*Maktab raisu rahbaridur din, millating.*

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash kerakki, bugungi o‘zbek pedagogikasi, didaktikasini Abdulla Avloniyning samarali mehnatlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu jihatdan adib ijodiy merosi ta‘lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlik asosida o‘qitiladi. Adib o‘zining pedagogik qarashlarida ham, badiiy-publitsistik asarlarida ham, avvalo, insonning ruhiy-ma‘naviy kamolotini tarbiyalashni ustuvor deb biladi. Insoniy

---

<sup>4</sup>Rahimova N.”Abdulla Avloniyning pedagogik risolalarini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish”.Buxoro. 2019. 12-13.

fazilatlar, odamiylik sifatlarini ulug‘laydi, yaxshilik, ezgulikni, ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдулла АвлониЙ. Танланган асарлар. I -жилд. — Т.: “Маънавият”, 2006.
2. Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. Toshkent: “Turon Iqbol”, 2010..
3. Rahimova N. ”Abdulla Avloniyning pedagogik risolalarini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish”. Buxoro. 2019.
4. Khegay M.A. O‘zbek maktabida rus tili og‘zaki nutqini boshlang‘ich o‘qitish mazmunining lingvistik asoslari. T .: Fan, 1997. B

YURTIMIZ MAKTABLARIDAGI RUS SINFLARDA O‘ZBEK TILINI  
O‘QITISHNING AMALIY MOHIYATI

*Nizomova Dilfuza Isamovna*

*Toshkent shahar Mirobod tumani 94-maktab*

*O‘zbek tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Respublikaning “Davlat tili to‘g‘risida”, yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunlarida umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning o‘zbek tilida o‘qitish, rus va boshqa tillar bilan bir qatorda o‘zlashtirishlari ham belgilangan. Shulardan kelib chiqib, mazkur maqolada siz rus sinflarida o‘zbek tili fanini dolzarbligi va uni yangicha metodlardan foydalanib o‘rgatish tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, Davlat tili, ta‘lim, o‘zbek tili, tarbiya, maktab.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘limning hozirgi bosqichdagi faoliyati uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qurilishining asosiy yo‘nalishlari va qonuniyatlari bilan belgilanadi.

O‘quvchilar tomonidan rus sinflarda o‘zbek tilini amaliy o‘zlashtirishning asosiy bo‘g‘ini boshlang‘ich maktabdir. Psixologlar isbotladilarki, boshlang‘ich maktab yoshida bolalar ona tilisi bo‘lmagan tilni tezroq va yaxshiroq o‘rganadilar va til to‘sig‘i osonroq yengiladi. Rus sinflarda o‘zbek tilini o‘rgatish vazifasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yelkasiga tushganligi sababli, unga yuqori talablar qo‘yiladi. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi rus sinflarda o‘zbek tilini bilishi, uni nazariy va amaliy jihatdan mukammal o‘rganishi kerak. Ikkinchidan, o‘qituvchi ona tilini o‘zlashtirish psixologiyasini, o‘zi ishlayotgan maktabning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, o‘quvchilarning ona tilining aralashish ta‘sirini hisobga olishi kerak.

Rus sinflarda o‘zbek tilini amaliy o‘qitishda zarur nutq materialini tanlash, uning joylashishi, so‘zlarning takrorlanishi, namunali jumlar, grammatik shakllar katta



ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yetakchi rol jumalarni tanlashga tegishli - nutq aloqasining asosiy birligi, ularni kontekstda qo'llash, chunki tilning barcha jihatlarini (lug'at, fonetika, grammatika, imlo) jumlada amalda takrorlanadi. Demak, gap ustida ishlash til o'zlashtirishning asosiy shakli hisoblanadi.

Biroq, ta'limning amaliy yo'nalishi muayyan til hodisalarini umumlashtiruvchi grammatik elementlarni o'rganishni istisno qilmaydi. Mohirlik bilan tanlangan grammatik ma'lumotlar, qoidalar o'quvchilarga tilni amaliy o'zlashtirishda yordam beradi. Rus sinflarda o'zbek tili darslari mustaqil ishni oqilona tashkil etish ko'nikmalarini, aqliy mehnat madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Ta'lim va tarbiya asoslari boshlang'ich maktabda qo'yiladi. Til faktlari va hodisalarini umumlashtirish va tushunish, har xil turdagi gaplarni o'zlashtirish natijasi bo'lgan grammatikani o'rganish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda esa rus tili katta rol o'ynaydi. Boshqa fanlardan (adabiyot, tarix, geografiya va boshqalar) ruscha so'z orqali muvaffaqiyatli ishlash ko'p jihatdan o'quvchi nutqining rivojlanish darajasiga bog'liq.

O'zbekiston maktablaridagi rus sinflarda o'zbek tilini o'qitish bir vaqtning o'zida muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi, o'quvchilarda demokratik ahloqni shakllantiradi. O'zbek tili xalqaro va vatanparvarlik tarbiyasining manbaidir. Maktab milliy zamindan ajralmasdir. U milliy madaniyatni shakllantiradi va saqlaydi, umuminsoniy milliylik bilan uzviy boyitadi. Binobarin, maktabning milliy qiyofaga yo'naltirilganligi istisno etmaydi, aksincha, millatlararo muloqot, baynalmilal tarbiya, milliy madaniyatlarni o'zaro boyitish, o'zbek-rus va rus- o'zbek ikki tillilikni uyg'un rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Rus sinflarda o'zbek tilini o'rgatish, pirovardida, o'zbek maktab o'quvchilarining o'rganilayotgan tilda og'zaki va yozma shaklda erkin muloqot qilish, rus tilida badiiy adabiyot, ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish, o'qiganlarini tushunib yetish ko'nikmalarini rivojlantirish; bolalarning kognitiv qiziqishlarini kengaytirish, yuksak axloqiy shaxsni shakllantirishdir.

Rus sinflarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi – o'zbek tilini o'qitish tamoyillari, usullari va vositalari haqidagi fan.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili metodikasi kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchisini ushbu fan bo'yicha bilimlar bilan o'quvchilarga rus sinflarda o'zbek tilini o'rgatishning o'ziga xos usullari va uslubiy texnikasi, bolalar tomonidan ikkinchi tilni amaliy o'zlashtirishning asosiy qonuniyatlari bilan qurollantirishga qaratilgan.

Metodika o'zbek bo'lmagan o'quvchilar tomonidan o'zbek tilini o'zlashtirish qonuniyatlari haqida bilim beradi, alohida bo'limlar va mavzularni o'rganish usullari va usullarini ko'rsatadi.

O'zbek bo'lmagan o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim usuli o'zbek maktabidagi rus tili metodologiyasidan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bu xususiyatlar o'zbek maktabida o'quvchilarga rus sinflarda o'zbek tilini o'rgatishning vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi.

O'zbekiston maktablarining boshlang'ich sinflarida rus sinflarda o'zbek tilini o'qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang'ich o'zbek maktabida rus sinflarda o'zbek tilini o'qitish hajmi va mazmunini aniqlash.

2. Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchilarga o'zbek tilidan og'zaki va yozma shaklda erkin foydalanish imkonini beradigan hajmda o'zbek tilini amaliy o'qitish.

3. O'zbekiston maktablari o'quvchilariga rus tilini amaliy jihatdan o'rgatishning o'ziga xos sharoiti hamda ona tili va rus tillarining xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada samaraliroq uslub va vositalarni ishlab chiqish.

4. Alohida leksemalar, tovushlar va tovush birikmalarining, grammatik shakllarning, sintaktik konstruktsiyalarning mavjudligi yoki qiyinligini aniqlash uchun rus va ona tillarining qiyosiy tipologik tahlilini o'tkazish.

Rus sinflarda o'zbek tilini o'qitish va ona tilini o'rgatish, bolalarda demokratik g'oyalarni tarbiyalash bilan bog'lash usullarini aniqlash.

Mavzu va vazifalar aniq tadqiqot usullarini belgilaydi:

1. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, mustaqil ijodiy ishlarini kuzatish.
2. O'qituvchilarning ilg'or ish tajribasini umumlashtirish.

3. Uslubiy va psixologik maqsadlarda rus va ona tillarini qiyosiy-tipologik o'rganish.

4. Rus va o'zbek maktablarida rus tilini o'qitish sohasidagi uslubiy merosni o'rganish.

5. Ishlab chiqilgan uslubiy texnika va tavsiyalar samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba yoki tajriba asosida o'rganish.

Umuman olganda, rus sinflarda o'zbek tilini boshlang'ich sinflarda bilim berishning uslubiy tizimi o'qitishning ongli ravishda kommunikativ printsipiga asoslanadi. U o'quv jarayonini shunday tashkil qilishni maqsad qilib qo'yadiki, bunda, bir tomondan, o'quvchilar lingvistik va nutqiy materialni ongli, mazmunli o'zlashtirishga erishiladi, ikkinchi tomondan, tilning ijtimoiy funktsiyasi ta'minlanadi. Bu funktsiya bilim va mashqlar tizimiga, nutqni rivojlantirish bo'yicha mavzular va namunali ish turlariga bo'ysunadi. Yurtimizdagi kichik maktab o'quvchilariga rus sinflarda o'zbek tilini o'rgatishning asosiy usullari va shakllari quyidagilardan iborat:

1. Rus tilidan aloqa vositasi sifatida amaliy foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun minimallashtirilgan, ammo yetarli lingvistik yordam.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tilidagi nutqining sintaktik tuzilishini diversifikatsiya qilish, ularning his-tuyg'ulari va fikrlarini yanada aniq va to'liq ifodalash maqsadida mustahkamlangan o'quv birliklarini (standart jumlar yoki nutq modellari) bosqichma-bosqich joriy etish.

3. Faol (1000 so'z) va passiv (potentsial) lug'atni assimilyatsiya qilish.

4. Rus tilida o'quvchilarning nutq faolligini faollashtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'z ona tiliga tayangan holda rus tili nutq tizimining o'zagini amalda o'zlashtirishlari kerak.

Inson o'z fikrlarini alohida so'zlar bilan emas, balki ma'lum konstruktsiyalar yordamida ifodalaganligi sababli, bu hodisani nutqni dastlabki o'rganish bilan ham bog'lash mumkin.

Boshlang'ich til o'rgatishning asosiy materiali nutq qoliplarining tipik jumalari tizimi va ularning variantlari bo'lganligi uchun uni o'zlashtirishning asosiy usuli vaziyatli-vizual usul bo'lishi kerak.

Asl nutq birliklarini o'zlashtirish faqat real vaziyatlar asosida sodir bo'ladi. Ta'lim maqsadlarida vizualizatsiya qo'llaniladi.

Boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tili darsliklarida ko'rsatilgan maqsadlarga xizmat qiluvchi ko'plab vaziyatli dinamik rasmlar mavjud.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy vaziyatlarni yaratishda darslar - ekskursiyalar alohida ahamiyatga ega. Ekskursiyalar o'quv jarayonini qiziqarli, hissiy, nutq va fikrlash faoliyati nuqtai nazaridan muammoli qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda o'zbek tili darslarida birinchi vazifa - bolalarda boshlang'ich lug'at va artikulyatsiya bazasini yaratish; ikkinchi vazifa - oddiy iboralarni va oddiy suhbatni quloq bilan tushunishga o'rgatish; uchinchi vazifa - oddiy savollarga javob berish va bir xil savollarni berishni o'rgatish; to'rtinchi vazifa - maktab o'quvchilarini tipik iboralar va gaplar qurishga asoslangan izchil hikoya qilishni o'rgatish; beshinchi vazifa - matn mazmunini o'zlashtirishga o'rgatish, busiz o'qishning mazmunli va ongiga erishish mumkin emas.

O'zbekiston maktablarida qo'llaniladigan, og'zaki nutqning chambarchas bog'lanishini ta'minlovchi usul va uslublar bilim va ko'nikmalarning mustahkam poydevorini yaratish imkonini beradi, ular ta'limning keyingi bosqichlarida kollej, gimnaziya, gumanitar yo'nalishdagi litsey yoki o'rta maktablarda yanada rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungu kunda dars ko'p qirrali, doimo rivojlanib boruvchi hodisadir. Zamonaviy dars bugungi kun nuqtai nazaridan ham psixologik-pedagogika fanining so'nggi yutuqlarini, ham innovatsion o'qituvchilar tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirilgan darsni anglatadi.

Rivojlanayotgan ta'lim o'quvchining diqqatini, xotirasini, tafakkurini, irodasi va hissiyotlarini, qiziqishlarini, qobiliyatini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Uspenskiy L. Tilning o'rgatish yo'llari haqida. M.: Bolalar adabiyoti, 1980.
2. Khegay M.A. O'zbek maktabida rus tili og'zaki nutqini boshlang'ich o'qitish mazmunining lingvistik asoslari. T.: Fan, 1997. B
3. Nikitin M.V. Osnovi lingvisticheskoy teorii znacheniya. Uchebnoe posobie. – M.: —Visshaya shkola, 1988.
4. N.Muslimov va boshqalar. Pedagogik komponentlik va kreativlik asoslari Toshkent. 2015.
5. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil

**PAXTA TOLASI VA IPAK TOLALARINI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARI**

*Omonova Ozoda Mirzamaxmud qizi*

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Farg'ona politehnika insitituti*

*3919-guruh talabasi*

*Shermatova Rayhonoy Jumaboy qizi*

*Farg'ona viloyati Quva tumani Farg'ona Politexnika Instituti*

*3919-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta va ipak kalava ipi, iplarning chiziqliq zichliklari, texnologik ko'rsatkichlar, halqa qadami, halqa qatorini balandligi, halqa ipi uzunligi, gorizontal zichlik, vertical zichlik, , yuza zichlik, qalinlik, xajm zichlik.

Trikotaj ishlab chiqarishni jadallashtirishning zamonaviy bosqichida xomashyo sarfi kam bo'lgan to'qimalarni olish uchta yo'nalishda:

- ikki ignadonli mashinalarda yengil ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish;
- bir ignadonli mashinalarda bir qavatli trikotaj to'qimalarini olish;
- ikki ignadonli mashinalarda yengil bir qavatli to'qimalarni olish ustida tadqiqotlar olib borilayotganligi o'z aksini topgan.

Xomashyodan samarali foydalanish bo'yicha Rossiyalik olim prof. I.I. Shalov tomonidan trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda ikki qavatli to'qimalar o'rniga bir qavatli to'qimalarni qo'llash, chiziqliq zichligi kam bo'lgan kalava iplardan va to'liq bo'lmagan trikotaj to'qimalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari taklif etilgan. Latviya ilmiy tekshirish instituti olimlari yengillashtirilgan to'qimalarni ikki xil rangli to'liq bo'lmagan jakkard to'qimasi bilan boshqa to'qima elementlari, masalan, arqoqli to'qima bilan birlashtirish yo'li orqali olish mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Bunda yuqori

hajmli kalava iplari har bir to'rtinchi ignaga qo'yiladi, natijada g'ovak strukturaga ega bo'lgan trikotaj to'qimasini olishga erishiladi.

Yuqorida qayd etilgan usulda trikotaj olish, xomashyo sarfini 10 - 15% ga kamaytirish imkonini berdi. Aralash to'qimalar hajmiy zichligi asos to'qimasiga

( lastik, interlok) qaraganda katta hajmiy zichlikka ega bo'lib, bu ulardan keng ko'lamda foydalanishga to'sqinlik qiladi. Aralash trikotaj to'qimasining boshqa afzallik tomonlarini saqlab qolgan holda, hajmiy zichlikni kamaytirish usullarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. To'liq bo'lmagan trikotaj asosida aralash trikotaj to'qimalarini olish (ignalarni o'chirib qo'yish hisobiga) aralash trikotaj to'qimasining hajmiy zichligini kamaytirish usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki bunda trikotaj to'qimasining halqalar qatoriga sarflanadigan ip uzunligi qisqaradi. Ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qimasi assortimentini kengaytirish, xomashyo sarfini kamaytirish, xomashyolarni chiziqliy zichliklarini trikotajni texnologik ko'rsatkichlariga hamda fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini va shakl saqlash xususiyatini oshirish maqsadida

Xitoyda ishlab chiqarilgan "LONG XING" rusumli yassi ikki ignadonli 14 klass trikotaj to'quv mashinasida bir-biridan iplarning chiziqliy zichliklari bilan farq qiladigan ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qimasining 8 ta variantini tuzilishi va olish usuli ishlab chiqildi. Ishlab chiqarilgan ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qima namunalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini taqqoslash uchun asos to'qima sifatida glad va press halqa qatorlari asosida ikki qatlamli trikotaj to'qimasining namunasi paxta kalava ishlab chiqarildi (III.1.1- rasm). I-variant to'qima namunasini olishda 20 teks x 3 chiziqliy zichlikka teng bo'lgan 100 % paxta kalava ipidan foydalanildi.

Ishlab chiqarilgan ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qima namunacining tuzilishi (a) va grafikli yozuvi (b) III.1.1.-rasmda keltirilgan. Ishlab chiqarilgan namunalarning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari TTESI qoshidagi "CENTEXUZ" sinov laboratoriyasida standart usulda aniqlandi va olingan natijalar III.1, III.2-jadvalda keltirildi. To'qimaning yuza zichligi an'anaviy ravishda xomashyo sarfi bo'yicha hisoblanadi. Ma'lumki, trikotaj to'qimasining yuza zichligini kamaytirish, uning ekspluatatsion va gigienik xususiyatlarini o'zgarishiga olib keladi.

Shuning uchun bir vaqtning o'zida to'qimaning xomashyo sarfini va sifat ko'rsatkichlarini tavsiflovchi hajmiy zichlik ko'rsatkichi kiritilgan. Trikotaj to'qimasining hajmiy zichligi hajm birligida to'qimachilik iplarining miqdorini ko'rsatadi.

Xomashyo sarfi kam bo'lgan to'qimalar qatoriga asos to'qimasiga nisbatan sezilarli darajada qalinlikka va g'ovaklikka ega bo'lgan to'qimalar kiritiladi va yengillashtirilgan to'qimalar deyiladi. Turli tuzilishga ega bo'lgan ikki qatlamli paxta ipakli trikotaj to'qimalarning hajmiy zichligini taqqoslaganda, ma'lum bo'ldiki, bunda ikki qatlamli trikotajni tuzilishida ipak ipining mavjudligi, to'qimaning nafaqat hajmiy zichligini kamayishiga, balki trikotaj to'qimasining shakl saqlash xususiyatining oshishiga ham olib keldi. Ko'pgina ilmiy xodimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, bunda ma'lum chegarada trikotajni yuza zichligini kamaytirish, xomashyo sarfi kamayishiga olib keladi va uning pishiqlik xususiyatlari uchun unchalik xatarli emas, chunki trikotaj matolari pishiqligining mutlaq kattaligi yuqori, mahsulotdan foydalanish jarayonida esa, uzilish kuchiga nisbatan 20% dan oshmaydigan kuchlanishlarga duch keladi.

Xomashyo sarfi mezonlari an'anaviy ravishda mato-ning yuza zichligida hisoblandi. Ma'lumki, trikotaj yuza zichligini kamaytirish ekspluatatsion va gigienik xususiyatlar o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ishda bir vaqtning o'zida ham matoning xom ashyo sarfini, ham sifat ko'rsatkichlarni tavsiflochi ko'rsatkich kiritilgan. Bunday ko'rsatkich, trikotaj strukturasi yengillashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi, unda yuza zichligi bilan bir qatorda uning qalinligi ham hisobga olinadi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Двухслойное трикотажное полотно. Заявка 2787124. Франция “МКИ7 ” D04 В 1/14. D03 D11/00. 01.02-12 В 126. Бюль. 00/24. 16.06.2000.
2. Мирусманов Б., Наливкина Е.И. Комбинированный трикотаж из нитей натурального шелка и хлопчатобумажной пряжи. Тез.докл.на научн. прк. конф. Ташкент. ТИТЛП. 2001г.
3. Двухслойное полотно. Патент 6854296. США “МПК7 ” D04 В 11/04. 13.01.2004 .
4. Патент № 2167966 (Россия), МПК7 D 04 В 1/100. Двухслойный трикотаж. Зиновьева В.А., Крайнова Е.С. Заявил 20.06.2000. Оpubл. 27.05.2001.
5. Mukimov M.M., Yunusov K.Z., ”Halqa hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari” fanidan “O’quv qo’llanma”. Toshkent. O’zbekiston

УДК. 636.32/38

**ҲИСОР ВА ЖАЙДАРИ ЗОТЛАРИ БЎЙИЧА ИККИНЧИ БЎГИНГА ЭГА  
СОВЛИҚЛАРДАН ТУҒИЛГАН ДУРАГАЙ ҚЎЗИЛАРНИНГ ТИРИК  
ВАЗНИ**

*ЧПИТИ Оҳангарон бўлими бошлиғи, қ.-х.ф.д. Н.Р.Рўзибоев,*

*Таянч докторант Х.Э.Бердиева*

**Аннотация.** “Ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлардан туғилган қўзиларнинг туғилганда, 30 кунлик, 3 ойлик ва 5 ойлик ёшларидаги тирик вазни соф жайдари зотли совлиқлардан туғилган тенгқурларникидан юқори кўрсаткичларга эга бўлганлиги аниқланди. Бу эса жайдари зотли қўйларнинг селекция белгиларини такомиллаштиришда, уларнинг генотипларига боғлиқ ҳолди “ўз ичида” урчитишдан олинган авлодлардан фойдаланиш самарали эканлигидан далолат беради.

**Аннотация.** Установлено, что живая масса ягнят, полученных от разведение «в себе», при рождении ягнят, 30-дневном, 3-месячном и 5-месячном возрасте была выше, чем у ягнят, рожденных от ягнят чистопородных пород. Это свидетельствует об эффективности использования потомства, полученного разведение «в себе», в зависимости от их генотипов, для улучшения селекционных признаков овец.

**Калитли сўзлар:** зот, қўй, қўчқор, жайдари, чатиштириш, дурагай, гўшт, жун, қўзи.

**Ключевые слова:** порода, овец, баран, джайдара, скрещивание, помесь, мясо, шерсть, ягнята.

**Мавзунинг долзарблиғи.** Чорвачилик соҳасида қўйчилик етакчи тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади, мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган гўштнинг асосий қисми шу тармоққа тўғри келади, бу эса ушбу тармоқни янада илмий асосда ривожлантиришни тақозо этади. Бунинг учун қўйларни меъёр



даражада парваришланиш, тўла қийматли озиклантириш ҳамда наслчилик ишларини янада яхшилаш муҳим ва долзарб вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Халқ селекциясида ўзимизда яратилган, Республикамизнинг тоғли ва тоғолди ҳудудларида урчитиб кўпайтиришга мослашган, бош сони жиҳатидан етакчи зотлардан бири бўлган маҳаллий жайдари қўй зотларининг генетик имкониятларидан фойдаланиб, уларнинг сермахсул генотипларини яратиш, махсулдорлик хусусиятларини ирсий жиҳатдан такомиллаштириш, зотнинг сермахсул селекция сурувларини барпо этиш, гўшт махсулдорлиги бўйича юқори махсулдор қўйларни етиштириш, улардан олинган авлодларнинг махсулдорлиги бўйича селекция белгиларини яхшилаш усулларини ишлаб чиқиш муҳим илмий–амалий аҳамиятга эга (1,2,3,4,5,6).

**Тадқиқот мақсади.** Республикамизда тоғолди ҳудудлари шароитларида урчитиб кўпайтиришга мослашган маҳаллий ҳисор ва жайдари зотлари бўйича иккинчи бўғин дурагай қўйларни “ўз ичида” урчитиш самарадорлигини аниқлашдан иборат.

**Илмий янгилиги.** Илк бор ҳисор ва жайдари зотлари бўйича F2 бўғинга эга дурагай қўйларни “ўз ичида” урчитиш самарадорлигини аниқланади.

**Амалий аҳамияти.** F<sub>2</sub> бўғинга эга сермахсул совлиқларни мақбул зотдорлик ва махсулдорлик хусусиятларига эга насли кўчқорлар билан “ўз ичида” урчитишдан олинган авлодларнинг насли сурувлари яратилади.

Лойиҳани амалга ошириш натижасида “ўз ичида” урчитишдан олинган авлодларда режали танлаш ва жуфтлаш натижасида гўшт махсулдорлиги бўйича юқори қўйлар етиштирилади. Республикамизда гўшт ишлаб чиқаришда стратегик аҳамиятга эга бўлган масалалар ечимига хизмат қилади.

**Тадқиқотларни бажариш жойи.** Илмий-тадқиқот ишлари 2021-2023 йиллар давомида Тошкент вилоятининг Оҳангарон туманидаги “Холтўраев Ойбек ХМ” наслчилик фермер хўжалигида олиб борилмоқда. Тадқиқотлар соф жайдари зотли ва ҳамда ҳисор ва жайдари зотлари бўйича F2 бўғинга эга дурагай қўйларни “ўз ичида” урчитишдан олинган қўйларда бажарилмоқда.

Тажрибалар учун I гуруҳда 50 бош соф жайдари зотли совлиқлар, II гуруҳда 50 бош ҳисор ва жайдари зоти бўйича F2 бўғинга эга дурагай қўйларни “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлар танлаб олинди.

**Тадқиқот натижалари.** Биз ҳисор зоти бўйича  $\frac{3}{4}$  х жайдари зоти бўйича  $\frac{1}{4}$  зотдорликдаги F2 дурагай қўйларни “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқларнинг тирик вазни ва жун миқдорини ўргандик. Ушбу маълумотларимиз 1- жадвалда акс этган.

1 жадвал

**Совлиқларнинг тирик вазн ва жун миқдори, кг**

Гуруҳлар	Б ош сони	Т ирик вазни	Тирик вазни		Жун миқдори	
			$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	С v, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	С v, %
I- Соф жайдари зотли совлиқлар	50	5	59,2 $\pm 0,51$	6 ,11	2,20± 0,037	1 1,83
II- F2 бўғинга эга совлиқлар	50	6	65,0 $\pm 0,56$	6 ,09	1,80± 0,044	1 7,35

2-жадвал маълумотларидан кўринишича, I- гуруҳдаги соф жайдари зотли совлиқларнинг тирик вазнидан II-гуруҳдаги тенгқурларининг тирик вазнидан 5,8 кг га ёки 9.8% га юқори бўлди. Шунинг билан бирга I- гуруҳдаги совлиқларнинг жун миқдори. II-гуруҳдаги F2 бўғинга эга ҳисор ва жайдари зотлари генотипидаги қўйларни “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқларнинг жун миқдорига нисбатан 0,4 кг га юқори бўлди.

2- жадвалда тажриба гуруҳларидаги совлиқлардан туғилган кўзиларнинг туғилганда, 1 ойлик, 3 ойлик ва 5 ойлик ёшларида тирик вазни келтирилади.

Тажриба гуруҳларида “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлардан туғилган қўзиларнинг тирик вазн кўрсаткичлари, кг

Гуруҳлар	Кўрсаткичлар	жинси	Бош сони	Туғилганда		1 ойликда		3 ойликда		5 ойликда	
				$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C <sub>v</sub> , %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C <sub>v</sub> , %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C <sub>v</sub> , %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C <sub>v</sub> , %
I гуруҳ	Соф жайдар и зотли қўзилар	Кўчқорча	24	5,17±0,06	5,88	17,05±0,27	7,72	33,06±0,55	8,11	41,26±0,63	7,46
		Урғочи қўзи	22	4.74±0.13	12.58	16.46±0.33	9.40	31.93±0.60	8.75	39.50±0.93	7.11
II гуруҳ	“Ўз ичида” урчитишдан туғилган қўзилар	Кўчқорча	26	5,62±0,10	9,47	18,64±0,32	8,74	35,60±0,40	5,72	44,52±0,55	6,28
		Урғочи қўзи	23	5.08±0.072	6.79	17.7±0.382	10.36	34.03±0.579	8.16	41.65±0.627	7.22

Жадвал маълумотларидан кўринишича, II-гуруҳдаги “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлардан туғилган қўзилар туғилганда, кўчқорчалари 5,62 кг, урғочи қўзилари эса 5,08 кг ни ташкил этиб, соф жайдари зотли совлиқлардан туғилган қўзиларга нисбатан мос равишда 0,45 (8,7%) ва 0,34 кг (7,2%)га юқори эканлиги аниқланди.

Тажриба гуруҳидаги қўзиларнинг тирик вазни 1 ойлик ёшида I-гуруҳдаги кўчқорчаларнинг тирик вазни 17,05 кг, урғочи қўзилар эса 16,46 кгни ташкил этиб II-гуруҳдаги тенгқурларига нисбатан 1,59 кг ёки 5,3% га, урғочи қўзилар эса 1,24 кг ёки 7,5 % кам кўрсаткичга эга бўлдилар.

3 ойлик ёшида “ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлардан туғилган кўчқорчаларнинг тирик вазни 35,6 кг га эга бўлиб, I-гуруҳдаги соф жайдари зотли совлиқлардан туғилган кўчқорчаларнинг тирик вазнидан 2,54 кг (7,7%), Урғочи қўзилар 34,03 кг ни ташкил этиб I-гуруҳдаги тенгқурларига нисбатан 2,1кг(6,6%) га юқори натижани қайд этди.

Тажриба гуруҳларидаги кўчқорчаларнинг 5 ойлик ёшида ўсиши ва ривожланиши жадал кечганлигини кўрсатди. II-гуруҳдаги “ўз ичида” урчитишдан олинган кўчқорчаларнинг тирик вазни 44,52 кгни ташкил этиб, I-гуруҳдаги соф жайдари зотли совлиқлардан туғилган кўчқорчаларнинг тирик

вазнига нисбатан 3,26 кг ёки 7,9%га, урғочи қўзилари эса 41,65 кг га эга бўлиб, I-гурухдаги тенкур урғочи қўзиларнинг тирик вазнидан 2,15 кг ёки 5,4% га юқори эканлиги аниқланди.

Тадқиқотларимиздан олинган маълумотлар қўзиларнинг туғилганда, бир ойлик ва уч ойлик ва 5 ойлик ёшдаги тирик вазни уларнинг генотипига боғлиқ эканлигидан далолат беради.

Биз турли хил генотипли қўзиларнинг мутлоқ ва кунлик ўсиш кўрсаткичларини ўргандик (3- жадвал).

3- жадвал

**Турли генотипга эга қўзиларнинг мутлоқ ва нисбий ўсиши**

Гуруҳлар	I				II			
	қўчқорча		урғочи		қўчқорча		урғочи	
Бош сони	24		22		26		23	
	мутлоқ	кунлик	мутлоқ	кунлик	мутлоқ	кунлик	мутлоқ	кунлик
1 ойлик	11,88	0,39	11,72	0,39	13,02	0,43	12,62	0,42
3 ойлик	27,89	0,30	27,1	0,30	29,9	0,33	28,95	0,32
5 ойлик	36,09	0,24	34,76	0,23	38,9	0,25	36,57	0,24

Жадвал маълумотларининг таҳлили шуни кўрсатадики, I гуруҳ соф жайдари зотли қўзиларнинг тирик вазнига нисбатан II гуруҳ ўз ичида урчиттишдан олинган қўчқорчаларнинг мутлоқ ўсиши бир ойлик ёшида ўртача 13,02 кг, уч ойлик ёшида 29,9 кг ва 38,9 ни ташкил этиб I гуруҳдаги тенкурларига нисбатан 1,14 кг(%) , 2,01 кг(%) га ва 2,81 га юқори бўлди.

Худди шунингдек II гуруҳ қўчқорчалардан олинган қўшимча вазни ушбу ёшларда 0,43, 0,33 ва 0,25 граммни ташкил этади.

II гуруҳ урғочи қўзиларнинг бир ойлик ёшдаги мутлоқ ўсиши бир ойлик ёшида 12,62 кг ни ташкил этиб I гуруҳ соф жайдари зотли қўзиларнинг тирик вазнига 0,9 кг га, уч ойлик ёшида эса 1,8 кг га ва беш ойлик ёшида 1,81кг га юқори бўлди. Қўзиларнинг бир ойлик уч ойлик ва 5 ойлик ёшдаги тирик вазни уларнинг генотипига боғлиқ эканлигидан далолат беради.

**Хулоса.** “Ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқларнинг тирик вазни соф жайдари зотли тенгқурларига нисбатан юқори эканлиги, жун миқдори эса бирмунча камроқ кўрсаткичларга эга бўлганлигини кўрсатди

“Ўз ичида” урчитишдан олинган совлиқлардан туғилган кўзиларнинг туғилганда, 30 кунлик, 3 ойлик ва 5 ойлик ёшларидаги тирик вазни соф жайдари зотли совлиқлардан туғилган тенгқурларникидан юқори кўрсаткичларга эга бўлганлиги аниқланди. Бу эса жайдари зотли кўйларнинг селекция белгиларини такомиллаштиришда, уларнинг генотипларига боғлиқ ҳолди “Ўз ичида” урчитишдан олинган авлодлардан фойдаланиш самарали эканлигидан далолат беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Рўзиев Н.Р. Республикамизнинг тоғ ва тоғолди ҳудудлари шароитида яратилган жайдари зотли кўйларнинг сермахсул генотиплари. Республикамизнинг тоғ ва тоғолди ҳудудлари шароитида яратилган жайдари зотли кўйларнинг сермахсул генотиплари. “Республикада чорвачиликни ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. ЧПИТИ, 2019. 123-127 б.
2. Рўзиев Н.Р., Б.Б.Шаюсупов. Жайдари зотли кўйларнинг сермахсул генотиплари. Чорвачилик ва наслчилик иши. Ж. №02, 2019. 8-10 б.
3. Рўзиев Н.Р. Жайдари зотли кўйларнинг сермахсул типини яратиш ҳамда гўштдор-жундор кўйларнинг генофондини сақлаш ва кўпайтириш бўйича тавсиянома. Тошкент-2020. 22 б.
4. Рўзиев Н.Р. Кўйларни озиклантириш, асраш ва наслчилик ишлари. Аҳоли, деҳқон ва фермер хўжаликлари учун ўқув-услубий қўлланма. Тошкент-2021. 14 б.
5. Турдиқулов Т, Махамдиев З. Ҳисор х жайдари кўйларининг насл бериш қобиляти. Ж. “Зооветеринария”, № 2, 2017, 33-34 б.
6. Юсупов С.Ю. Сатторов С.Б, Хасилбеков А.Я, Ўринбоева М. Тоғли ва тоғ олди ҳудудларда урчитилаётган думбали кўзилар жун маҳсулдорлиги. Ж. “Зооветеринария”, № 1, 2017, 35 б.

**SOME ISSUES OF ENSURING THE SAFETY OF THE PARTICIPANTS IN  
THE CRIMINAL PROCEEDINGS**

(On the example of international experience)

*Mamatalieva Shakhnoza*

*Lecturer of the Department of Criminal Procedure Law of  
Tashkent State University of Law*

The effectiveness of criminal proceedings largely depends on the creation of a high-quality State system for the protection of victims, witnesses and other participants in the criminal process. Many States have developed and implemented effective systems of institutions and mechanisms that guarantee State protection of this category of persons. Thus, in European countries, the system of protection of victims, witnesses and other participants in criminal proceedings has been in operation for several decades, the fundamental principles have been developed for a long time, are being successfully implemented and form the basis of international norms in the field of protection of this category of persons.

At the same time, in Uzbekistan, the institute for the protection of victims, witnesses and other participants in criminal proceedings is still in its infancy, although there are positive trends in ensuring the safety of persons subject to state protection.

Modern trends of interstate integration, expansion of economic cooperation within the framework of the Eurasian Economic Union, along with obvious positive changes, can ensure the growth of transnational crime, acting in ordinary and organized forms. The need to confront these challenges makes us think about the prospects for international cooperation in the field of state protection of participants in criminal proceedings<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ващенко О.Ю. Новации правового регулирования в области госзащиты // Вопросы совершенствования деятельности по обеспечению безопасности лиц, подлежащих государственной защите: материалы Всерос. совещания-семинара / сост. Д.А. Васин. Домодедово, 2016.

The EU Council has adopted a number of legal documents regulating the situation of participants in criminal proceedings. In particular, Recommendations on the situation of the victim in the framework of criminal law and criminal procedure were adopted by the Committee of Ministers of the Council of the EU at the 387<sup>th</sup> meeting of Deputy Ministers in 1985, and Recommendations on the issue of intimidation of witnesses and ensuring the rights of the defense were adopted. The Committee of Ministers of the Council of the EU in 1997, in the first document, one of the basic principles of ensuring the personal safety of the victim is recognized as protection from disclosure of any facts that may unjustifiably to affect the privacy or offend the dignity of the victim of a crime. The second document provides for the anonymity of a witness assisting criminal justice as a criminal procedural measure of protection. A witness is considered "anonymous" when his personal data is not known to the prosecution<sup>2</sup>. As an example, let's consider the features of the functioning of the Institute of State protection in Slovakia.

The police in Slovakia are in the system The Ministry of Internal Affairs. Just as in Russia, the tasks of the police include:

- 1) protection of fundamental human rights and freedoms (protection of life, health, freedom and personal integrity, security of persons, right and protection of private property);
- 2) carrying out investigation of crimes, operational and investigative activities;
- 3) ensuring public order and taking measures in cases of its violation;
- 4) witness protection and other tasks provided for by law.

In addition, the tasks of the police are:

- 1) ensuring the personal security of the President, the Chairman of the National Council Of the Slovak Republic, Prime Minister The Government of the Slovak Republic and other persons whose list is approved by the Government;

---

<sup>2</sup> Рамазанов Т.Б. Государственная защита участников уголовного судопроизводства: опыт зарубежных стран // Вестн. Дагестан. гос. ун-та. 2012. № 2.

- 2) ensuring the security of diplomatic missions, the protection of other institutions, as well as the protection of organizations and institutions in accordance with international agreements;
- 3) ensuring the physical protection of nuclear materials;
- 4) protection of the state border.

The activities of the police in Slovakia are regulated by the 1993 Law "On the Police Corps", the 1998 Law. "On the official status of employees of the Police Corps, the Slovak Information Service, the Judicial Guard Corps of the Railway Police", the Law of 1991 "On the Provision of Police" and other regulatory acts. During the transformations that took place in In the Slovak Republic since 1993, thousands of police officers have been dismissed from the police department, which has led to an increase in crime. Another reason for this was the unwillingness of citizens to cooperate with the police in solving crimes due to the inability of the state to ensure their safety. To remedy the situation, various detective agencies were created, which, among other things, began to take over the functions of witness protection. All this served as the basis for the preparation of a draft witness protection program. Despite the distrust of Western countries and the social bloc, the draft program for the protection of witnesses by the criminal police was developed in two years. This circumstance was facilitated by the absence of pressure from the press and politicians, as a result of which it became possible to work quietly. The program for the protection of witnesses and their family members operating in the United States was taken as a basis for the preparation of the project. So, in the USA, witnesses whose life and health are in danger, before the start of the trial, as well as for the period of its conduct, can be settled in specially adapted protected dwellings, for the duration of the investigation they can be assigned special code names, etc. Witnesses in particularly serious criminal cases after testifying in court receive documents for a new a name, they are assigned new numbers in the social security system, the costs of moving to a new place of residence are reimbursed, they are helped to find a job, new biographies are developed for them and the person who divulged this information may be brought to criminal responsibility and punished with imprisonment for up to five years or a fine of up to 5 thousand dollars. In addition,



federal and state legislation is in force in the United States against attempts "by means of bribes, false statements, intimidation or force, or by threatening to create obstacles, detain or prevent any person from informing the investigator of information concerning a violation of any criminal law of the United States." The law also provides for punishment for causing personal or property damage to any person who gave information to the investigator. A lot of attention was paid to the implementation of the developed program of state protection of witnesses and victims, as well as training of police officers in tactics and methods of conducting relevant events in Slovakia. The improvement of the witness protection program in Slovakia is carried out depending on the experience in the application of operational investigative activities, experience in combating organized criminal groups and communities, and the practice of law enforcement agencies in other countries. Witness protection programs in countries The EU also has Poland, Latvia, Hungary, Croatia, Bosnia and Herzegovina, Serbia, Ukraine, Germany, Austria, Italy, Norway, the United Kingdom, etc., which they support Slovakia in witness protection, including when the protected person is moved to other countries. The program for the protection of witnesses and victims includes persons who provide important information to the court about the criminal activities of terrorist organizations, persons committing or preparing terrorist acts, about the criminal activities of organized criminal groups. Even those persons who themselves took part in the commission of crimes fall under the program, but refused to commit them further and give incriminating testimony against accomplices. Due to the fact that the protected persons are former criminals, any information received from them is rechecked. If the protection of a witness for crimes of minor gravity is required, then the witness may also fall under the program. Police officers are not covered by the program. Other special social norms are provided for them. The decision to accept a witness under the witness protection program in Slovakia is made by a commission composed of the investigation, employees of the State witness protection service, a judge, a prosecutor, and employees of the penitentiary sector. The program does not yet provide for the protection of informants and anonymous witnesses. This issue is currently being considered, and there is also a proposal to protect whistleblowers as a

means of stimulating a witness. In cases where the protected person may be in great danger, a change in the person's identity is used to create long-term protection. At the same time, the appearance of not only the witness, but also the appearance of his relatives changes. In the form of special measures, relocation to a new place of residence, to another city or abroad is used. A "new story" is written to the family with documentary confirmation of the main life milestones, new documents are made, a legend is developed, and they are moved to a special protected place. When identity changes a person must take into account immutable biometric data, according to which there is a possibility of establishing the location of the protected person. If the protected person or his relatives express a desire to use the worldwide system of integrated computer networks on the Internet or any social networks, there is a real threat of decrypting their location. To prevent the occurrence of such a problem, they are given appropriate instructions on compliance with certain norms and requirements that are imposed on them, including when using a global computer network. At the same time, the specialists of the witness protection service train the protected persons and their loved ones to use social networks, including the use of webcams, offer them to post virtual data on networks, etc. The placement of information about themselves, as well as the placement of video and photographic materials should take place only under the supervision of the witness protection service. In different countries, the change of identity is legally regulated in different ways (according to documents, by changing appearance).

The change of identity can have different terms: permanent, temporary, for an indefinite period. However, the return of identity after a change in appearance is not allowed. There was a case when a witness after changing his appearance more. He lived in Germany for 10 years, and then performed on trial in Slovakia. If after a while the witness does not want to live under someone else's identity anymore, this is a problem for the witness protection service, therefore measures are taken to make the person change his decision. Work with a witness is based on the principle of reciprocity, i.e. a person gives testimony voluntarily and undertakes to comply with all conditions for being in a protected place, to lead an established lifestyle, to maintain a developed

legend, to observe measures of secrecy. When a witness is under the influence of the program, social norms also apply to him. As an example, it is possible to indicate that a witness underwent a complex spinal surgery as a result of a bullet wound after an attempt on his life, and this operation was carried out abroad. At the expense of budgetary funds, in compliance with the rules of secrecy, the employees of the witness protection service fulfill the financial obligations of the protected person, pay for his contracts, mortgages and loans, alimony, represent interests when entering into the right of inheritance, etc. Giving false testimony or refusing it after the approval and verification procedures, concluding the relevant contract and including the witness in the program is a problem for the prosecutor, witness protection service. All necessary measures are being taken to prevent this.

Slovakia is a rather corrupt country, and therefore it is necessary to strictly observe the rules of secrecy while ensuring the safety of witnesses. Disclosure of witness data can occur for various reasons: betrayal by an employee.

The Ministry of Internal Affairs, leakage through cellular communication channels, through colonies and prisons, the mistake of partners from other countries, etc. To exclude the decryption of measures carried out by the witness protection service to ensure the security of the protected person, as well as to exclude the disclosure of information about the change in the identity of the protected person, it is provided criminal liability in the form of imprisonment for up to 2 years. Giving testimony in court always involves a risk to the life of a witness when an attempt may be made on him. In order to exclude these circumstances (in approximately 30% of cases), the protected the person is not brought to court, and his testimony is broadcast via video link<sup>3</sup>.

Various mistakes are made by the staff of the witness protection service. So, for example, when moving the protected person and his family across the border, there were problems with documents and medical support, because the witness had

---

<sup>3</sup> Спиридонов С.А. Зарубежный опыт организации работы по защите свидетелей в рамках уголовного судопроизводства: аналитический обзор. Домодедово, 2016.

previously changed his appearance, a new legend was written, new passports were issued. The error occurred due to the fact that there were no rules and procedures for medical care in the host country. Another mistake was the absence of a corresponding stamp in the new passport, as required by the rules of the country to which the witness was moved, as well as violations in the reflection of his biometric data were revealed. The second problem was that the protected person had a dog that had to undergo a month-long quarantine, which was also not provided for.

All these facts were shortcomings of the witness protection service, and it was necessary to eliminate mistakes with the help of colleagues of the host country. As another example of an error, the following can be cited. The protected person was placed in a special place (house) in which there was no access point to the global computer network and mobile and wired telephone communication did not work. The displaced person and his family members wanted to talk to relatives, but there was no such opportunity, which is why the witness's son committed suicide.

Thus, it seems appropriate to borrow some very effective measures provided for by the legislation of certain foreign countries, the main purpose of which is to provide citizens with relatively safe and more attractive forms of participation in criminal proceedings, increasing their security and importance in criminal proceedings.

#### **References:**

1. Mamatalieva S. K. ENSURING THE SAFETY OF THE VICTIM AND WITNESS IN CRIMINAL PROCEEDINGS (On the example of the Russian Federation) //Herald pedagogiki. Nauka i Praktika. – 2022. – T. 2. – №. 2.
2. Mamatalieva S. K. INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING THE PROTECTION AND SECURITY OF PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCEEDINGS BY THE STATE //Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Mamatalieva S. K. ENSURING THE SAFETY OF WITNESSES IN CRIMINAL PROCEEDINGS //Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference. – 2022. – T. 2. – №. 2.
4. Kudratillaev K. SPECIFIC FEATURES OF THE USE OF PRECAUTIONARY MEASURES //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 215-218.

5. Александров А.С. Проблемы теории уголовно-процессуального доказывания, которые надо решать в связи с переходом в эпоху цифровых технологий // Судебная власть и уголовный процесс. 2018. №
6. Воскобитова Л.А. Уголовное судопроизводство и цифровые технологии: проблемы совместимости // Науки криминального цикла. 2019. № 5.
7. Ващенко О.Ю. Новации правового регулирования в области госзащиты // Вопросы совершенствования деятельности по обеспечению безопасности лиц, подлежащих государственной защите: материалы Всерос. совещания-семинара / сост. Д.А. Васин. Домодедово, 2016.
8. Рамазанов Т.Б. Государственная защита участников уголовного судопроизводства: опыт зарубежных стран // Вестн. Дагестан. гос. ун-та. 2012. № 2.
9. Спиридонов С.А. Зарубежный опыт организации работы по защите свидетелей в рамках уголовного судопроизводства: аналитический обзор. Домодедово, 2016.
10. Полиция Словакии. URL: <http://www.naslovensko.com/policija-slovakii/>
11. Лозовский Д.Н. Методы расследования организованной преступной деятельности. Майкоп, 2010.
12. Лозовский Д.Н. Отдельные аспекты государственной защиты свидетелей обвинения и других участников уголовного процесса по делам об организованной преступности // Вестн. Майкоп. гос. технолог. ун-та. 2012. № 4.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SINFI O'QUVCHILARIGA DARS O'TISH  
JARAYONIDA AKTLARDAN FOYDALANISH**

*Nilufar Rajabov Nosirovna*

*Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, 23-maktab*

*Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari, hozirgi zamon innovatsiyalaridan foydalanish, yangi ta'lim texnikalari, o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnika, o'quvchi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida ta'lim tizimida ham turli fanlarni o'qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

AKT nafaqat o'quvchilarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko'plab psixologik va ilg'or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT o'quvchilarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta'kidlanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv shakllana boshladi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — inson hayotida egallaydigan bilimlar olamining poydevori bo'lib hisoblanadi, kelajakda o'zlashtirib boradigan fanlarga, umuman o'qishga qiziqishi aynan bolaning ilk o'qituvchisi, boshlang'ich sinflarda egallagan savodxonligiga bog'liq bo'ladi.

Shu sababli ham boshlang'ich sinflar o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Ilgari boshlang'ich sinflarda o'quvchi asosan o'qish, yozish, dastlabki matematik bilimlarni o'zlashtirishi kerak deb qaralgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchini fikrlashga, faollikka, mustaqillikni rivojlantirishga va bilimlarni mantiqiy jihatdan mukammal egallashga undovchi ta'lim jarayonining muhim bosqichi sifatida yondashilmoqda. Shu sababli ham ta'lim jarayonining qiziqarliligi va samarasini

yanada oshirish zarurati yuzaga keladi va bunda mazkur jarayonga AKTni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining faoliyati eng avvalo, jajji o'quvchi-bolajonlarni ta'lim muhitiga moslashtirish bo'lib hisoblanadi. Ularda o'qish jarayoniga qiziqish hamda zamonaviy o'quvchilarga zarur bo'lgan xususiyatlarni shakllantirish, ta'lim jarayonining o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish birinchi o'qituvchining vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davr boshlang'ich sinflar o'qituvchisi o'quvchi-bolalarni zamonaviy axborot jamiyati sharoitlarida o'qitish, ta'lim va tarbiya berish, ularga dastlabki bilimlarni zamon ruhiga muvofiq ravishda, yetkazib bera bilishi zarur. O'qitishning asosiy maqsadi — o'quvchi bolalarning bilimlarni o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonida olgan axborotlardan amaliy foydalanish jarayonlarini ham anglab borishga o'rgatishdan iborat. Ma'lumki, bugungi kunda deyarli ko'pchilik zamonaviy o'quvchi-bolalar umumta'lim maktablari ostonasiga qadam qo'ygunga qadar, oilada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan tanish bo'lgan, hatto ulardan foydalana biladigan holda kelmoqdalar. Ular haqiqatdan ham axborot asrida tug'ilib, hali atrof-olamni anglamay turib, zamonaviy aloqa qurilmalari, kompyuter va boshqa gadjetlarni ko'rib, ularning funksiyalari bilan tanish bo'lgan holda ulg'aymoqdalar.

Bunday vaziyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng muhim ahamiyatga molik vazifalari — bu o'quvchilarga mazkur qurilmalar, ulardan foydalanish me'yorlari haqida ilk tushunchalarni berishdan iborat. O'quvchilarda axborotlar olamidani o'zlariga taalluqli axborotlarni to'g'ri tanlay bilish dastlabki salohiyatini shakllantirishda birinchi o'qituvchining o'rni muhim ahamiyatga molik. Bunda nafaqat o'qish, ta'lim va tarbiya jarayonida tushuntirish ishlari, balki boshlang'ich ta'lim muassasasining AKTdan foydalanish darajasi, o'quv dasturidagi boshqa asosiy fanlarni o'qitish jarayoniga ham AKTni joriy etib borish katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'qituvchilari zamon talabiga mos dars o'tishlari uchun AKT sohasida salohiyatga ega bo'lishlari zarur. Bu hozirgi davrda uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Umumiy ma'noda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi salohiyati tushunchasida insonning AKT



savodxonligi, ya'ni kundalik hayotida ham, kasbiy faoliyatida ham undan to'g'ri foydalana olish qobiliyati nazarda tutiladi.

Pedagogning AKT sohasidagi bilimlari salohiyati ularning ushbu sohada malaka oshirishlari orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari muntazam ravishda, AKT bo'yicha malaka oshirishlari, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimi talablariga muvofiq bo'lish uchun mustaqil ta'lim orqali ham o'z bilimlarini oshirishlari zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilar Internet vositasida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar materiallaridan foydalanishlari, hamkorlar bilan tajriba almashish maqsadida hozirgi davrda kengayib borayotgan o'qituvchilar forumlaridan foydalanishlari ham foydadan holi bo'lmaydi.

Shunday qilib, AKTni joriy etish va Internet tarmog'idan foydalanish o'qituvchi kasbiy mutaxassislik sohasida quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi;

- o'qituvchining o'z kasbiga ijodiy yondashuvi uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi;
- o'qituvchining mustaqil ta'lim olishi, masofaviy malaka oshirishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2008 yil., 160 bet.
4. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari Бекмуродова, Ж. А. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari / Ж. А. Бекмуродова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 2 (292). — С. 445- 447. — URL: <https://moluch.ru/archive/292/65552/> (дата обращения: 12.01.2021).
5. Овчарова Р. В. Практическая психология в начальной школе. — М.: ТЦ Сфера,1998. — С. 240.

**ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH  
ISTE'DODLARINI BAHOLASH**

*Nukus davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi  
Ospanbaeva Aynura*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matni o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning fiziologik, psixik, umuman psixofiziologik xususiyatlari haqidagi mulohazalar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qib tushunish, nutq, ko'nikma, psixologik, matni o'qish, fiziologik, psixofiziologik, dekodlash, vizual kirish leksikoni.

**KIRISH**

Psixolingvistikaga oid ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayoni to'rt xil kognitiv malakalar asosida amalga oshadi, mazkur nutqiy malakalar o'zaro bog'liqlikda rivojlanadib boradi. Bu malakalar og'zaki va yozma nutq bilan bog'liq bo'ladi. So'zlash va eshitib tushunish malakalari og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lsa, yozish va o'qib tushunish yozma nutq bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Shuningdek, mazkur ko'nikmalar muloqot jarayonida mazmuni ifodalashi yoki idrok qilishi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan farqlanadi. Umuman, bu jarayonlar psixolingvistikada kodlash (fikrni signallar: tovush yoki grafemalar bilan ifodalash) va dekodlash (grafemalar yoki tovush bilan ifodalangan ma'lumotlarni idrok qilish) jarayoni deb yuritiladi. Bu tushunchalar psixolingvistik tadqiqotlarda o'rganilgan, ilmiy asoslari isbotlangan. Dekodlash jarayoni psixologiyada nutqiy persepsiya deb ataladi<sup>1</sup>. Persepsiya – inson borliqni idrok qilishi jarayoni hisoblanadi. Nutqiy persepsiya – bu verbal va vizual birliklar yordamida borliqdagi hodisalarni idrok qilish, talqin qilish va tushunish jarayonidir. Idrok qilish jarayoni eshitib

<sup>1</sup> Ismailov A. v.b., Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.

tushunish yoki o‘qib tushunish tarzida amalga oshadi. Eshitib tushunish og‘zaki nutqda ifodalangan ma’lumotlarni anglash, fahmlash jarayoni hisoblanadi. O‘qib tushunish – grafemalarda, tasvirlarda, chizmalarda, rasmlarda ifodalangan ma’lumotlarni anglash, idrok qilish jarayonidir.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

O‘qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmuyini qabul qilamiz, ular grafema deb ataladi. U vizual kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi va so‘z chizmadan iborat tashqi shaklidan mazmundan iborat mohiyatiga aylanadi va idrok qilinadi. Ya’ni, mazkur tasvirga bog‘langan ma’no faollashadi. Bir so‘z bilan aytganda, yozma matndagi so‘zni turli belgilar tizimi – grafemalar yig‘indisi sifatida qabul qilamiz va uni mazmun parchasi sifatida idroqqa boshlaymiz.

Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, “matnni o‘qish, uni tushunish jarayoni pedagogik (biror shaxs tomonidan takrorlab o‘rgatish, ko‘rsatish), psixologik (diqqatni yig‘gan holda o‘rganilayotgan narsaga qarash, tikilish), jismoniy (boshqa harakatlarni to‘xtatgan holda ko‘zni faqat harf, bo‘g‘in yo so‘zga qaratish) va fiziologik (o‘rgatilayotgan harf yo so‘zni takrorlay olish, o‘qiy olish qobiliyatining mavjud yoki mavjud emasligi) jarayon hisoblanadi”. Shuning uchun ham o‘qibtushunish murakkab nutqiy psixofiziologik faoliyat hisoblanadi. Bu jarayon haqida ko‘plab xorij va o‘zbek olimlari ilmiy ishlar qilganlar, tajribalar o‘tkazganlar va ularning tahlillari asosida natijalarni taqdim qilganlar.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

O‘zbek tilshunosligida esa olim I.Azimova matnni tushunishning beshta darajasini keltiradi<sup>2</sup>:

- a) assotsiativ daraja;
- b) leksik-morfologik daraja;
- c) kontekstual daraja;
- d) struktural daraja;

---

<sup>2</sup> Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasiningpsixolingvistik tadqiqi: monografiya. – T., 2019. 158 bet

g) matn darajasi.

O'rganishlarimiz natijasida, bizningcha, matnni o'qib tushunish, uni idrok qilish, o'zlashtirish quyidagi bosqishlardan iborat.

1-bosqich: grafik tasvirni tanish va so'zni o'qish;

2-bosqich: so'zning matndagi ma'nolarini angash;

3- bosqich: rasmlarda, chizmalarda, diagrammalarda ifodalangan ma'lumotni tushunish va so'zlarning o'zaro mazmuniy bog'lanishini, birliklarning matndagi vazifasini idrok etish;

4- bosqich: matnning qismlarini anglash va ular o'rtasidagi mazmuniy bog'liqliklarni idrok qilish;

5- bosqich: matndagi umumiyva yashirin ma'nolarni tushunish, matn maqsadini anglash, matndagi ma'lumotdan real hayotiy vaziyatda foydalana olish;

6- bosqich: matnga aynan shu mavzuda yozilgan boshqa matnlar bilan qiyoslab baho bera olish.

Hammada ham matnni o'qib tushunish bosqichlar bir xil amalga oshavermaydi. Shuning uchun ham muayyan matnni bir xil o'qib chiqqan o'quvchilar tushunishining har xil bo'lishini guvohi bo'lamiz. Bu uning fiziologik va psixologik jihatlarigabog'liq bo'ladi, ya'ni qabul qilish qobiliyati yoki ruhiy-psixik holatiga, yoki jismoniy holatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnni o'qib tushunishga bir nechta omillar ta'sir etishim mumkin.

Shuning uchun pedagogik o'lchovlarga doir tadqiqotlarda o'qib tushunish malakasini baholashda natijalarga salbiy ta'sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlashtiriladi<sup>3</sup>:

- matn omillari;
- o'quvchi omillari;
- vazifa omillari.

---

<sup>3</sup> Sharopova F.V. 5-sinf o'quvchilarida matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari. ped.fan.magist. dis. –T., 2020. – 108 b.

*Matn omillari* – matn bilan bog‘liq bo‘lgan omillar: matn tilining og‘irligi, berilish uslubining murakkabligi, matn turlari va unda mavzular tematikasi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

*O‘quvchi omillari* – o‘qib tushunuvchi bilan bog‘liq omillar: o‘quvchining yoshi, fiziologik va psixologik holati, tajribasi, kognitiv darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

*Vazifa omillari* – topshiriq bilan bog‘liq omillar: topshiriqlar hajmi, miqdori, mazmunining aniq va lo‘nda ifodalanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi, o‘zgalar fikrini, matndagi axborotlarni idrok eta olishi psixofiziologik jarayon bo‘lib, baholashda foydalaniladigan savol va topshiriqlar uning nutqiy malakalarini va tafakkurini rivojlantirishga, ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham mos bo‘lishi, ularda mustaqil munosabatini bayon etishga, hayotni va o‘zgalarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: monografiya. –T., 2019. 158 bet
2. Ismailov A. v.b.,. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.
3. J. Charles Alderson. Assessing Reading. Cambridge University Press 2000. Mavlonova K., Hakimova N.. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini egallash imkoniyatlari. O‘zbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari. Res.ilm.amal.konf. mater. – Toshkent, O‘zkitobsavdo nashriyoti, 2020. 340 b. –B.217–224.
4. O‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitishni qayta qurish hamda takomillashtirish dolzarb masalalari. O‘zbek tili doimiy anjumani birinchi yig‘inining tezislari. –Samarqand, 1991.
5. Sharopova F.V. 5-sinf o‘quvchilarida matnni o‘qib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari. ped.fan.magist. dis. –T., 2020. – 108 b.

УДК 821.51.

**B.QAYIPNAZAROV BALLADALARINING BADIY  
O‘ZGACHALIKLARI**

*Ktaybekova Zulfiya Kengesbaevna*

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
Ajinoyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi,  
Qoraqalpog‘iston, Nukus. (ktaybekova77@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada ballada janrining badiiy o‘zgachaliklari talqiniga olingan. Qoraqalpoq adabiyotida ballada janrining poetikasi belgili badiiy so‘z chevari B. Qayipnazarovning badiiy asarlari misolida o‘rganilgan. Ballada janrining paydo bo‘lishi va qoliplashishi, nazariylik, badiiylik o‘zgachaliklari haqidagi o‘zgachaliklari qisqacha shakli yasalgan. Qoraqalpoq adabiyoti tarixida balladaning o‘z oldiga alohida janr sifatida qoliplashishining ikkinchi jahon urushidan so‘nggi davrlarga to‘g‘ri kelishi misollar orqali talqinlangan. Shoir B. Qayipnazarovning bir qator balladalaridagi syujetlik mazmuni, g‘oya -tematik yo‘nalishlari, badiiylik xususiyatlari atroflicha ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ballada, janr, liro-epik, poema, syujet, badiiylik, chevarlik, obraz, lirizm, drammatizm.

Jahon adabiyoti ilm-fanida ballada janrining qoliplashuvi va rivojlanib borishi, janr sifatida belgilari hamda badiiylik xususiyatlari bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanish ishlari olib borilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida, shuning ichida, o‘zbek adabiyotida M. Ibragimov [1], A. Eshhqobilov [2], qozoq adabiyotida Gulnaz To‘kenqizi va Nusipbek Rizabekning [3] ilmiy izlanishlari hamda bir qator maqolalarida ballada janrining paydo bo‘lishi va qoliplashishi, nazariyasi, badiiylik xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilm-fanida ballada janri o‘z oldiga alohida turda o‘rganilmadi. O‘sha sababli bu janrning o‘ziga xos

o'zgachaliklarini, badiiylik xususiyatlarini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik ilmfanidagi o'rganilishi muntazir masalalardan biri demakdir.

«Ballada (italyancha “oyoq raqsi”) -deb, qahramonlik, tarixiy va fantastik mavzudagi qisqacha syujetli badiiy asarlar»[4. 198]-tushuniladi. Shuning bilan birga, shoirning ichki kechinmalari, yolg'iz hislari tasvirlanadi.

Eng dastlab ballada janridagi badiiy asarlar XIII asrda qadimiy Provansal qo'lyozmalarida yozilgan. U bu termini poetik soqiynoma sifatida ballada Farangistonda XIII asrning oxirida qo'llana boshladi. [3. 75] Rus adabiyotida ballada janri XIX asrda vujudga kelgan, ya'ni Pushkin, Jukovskiy, Belinskiy, M. YU. Lermontov, A. K. Tolstoy va t. b. bir qator badiiy so'z chevarlari ushbu janrda qalam tebratgan.

Qoraqalpoq adabiyotida ballada janridagi badiiy asarlar XX asrning 30 - yillarining oxirida ko'zga tashlana boshladi. Bunday badiiy asarlarning o'z oldiga janr sifatida qoliplashishi ikkinchi jahon urushidan so'nggi davrlarga to'g'ri keladi.

Balladada voqiya qisqa turda ixcham tasvirlanadi, eng hal qiluvchi moment alohida tezlik bilan romantik pafos orqali bayon qilnadi. Shu jumladan mahalliy aholi hayotiga xos belgilar, milliy kolorit beriladi. Qoraqalpoq adabiyotida ballada janrining paydo bo'lishi va rivojlanishiga belgili darajada hissa qo'shgan badiiy so'z chevari, Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi respublika mukofotiing laureati Bayniyaz Qayipnazarovdir. U teran lirizm bilan yozilgan badiiy asarlari bilan o'quvchilarni mavzuning kengligi, badiiyligi, teran falsafaga to'la ekanligi bilan o'ziga jalb qiladi. O'sha sababli badiiy so'z chevarini keng jamoatchilik «Gullarning shaydasi», «Gul oshig'i» bo'lgan shoir sifatida baholaydi.

Gul ishqida to'lib-to'shib kuylagan shoirning ashularining mavzusi umrni, tug'ilgan yerni, ona vatanni, yoshlik muhabbati, sevimli farzandni, vafodor yorni, tinchlikni, do'stlikni kuylashga mo'ljallangan bo'lib, ularning ko'plarida deyarli manzarasini, ayniqsa, gul obrazini g'oyat chevarlik bilan foydalangan. Shu sababli B.Qayipnazarov adabiyotda lirik shoir sifatida tanilgan. Uning ijodkorligida lirik badiiy asarlar bilan bir qator, liro-epik badiiy asarlari qoraqalpoq adabiyotini janr tarafdin atroflicha boyitadi. Xususan, shoir ijodkorligida, «Polvonbek», «Bo'zjap

bo'yida», «Qo'sh qaldirg'och», «Lola», «Aqcha ko'l», «Tilla uzuk, «Bahodir va dono», «Ikkita ayoq», «Tekin non», «Erjan ko'k» va t. b. hajmli poemalari bilan bir qator va «Ikkita soldat», «Ko'k eman va Zo'ya haqida ballada», «Odam ayağı», «Varshava haqida afsona», «Qurbon botir», «Medsestra Oksana», «Tiniq buloq», «Yetim», «Bog' va bog'bon», «Shoq gul», «Qon tomgan qayin» kabi bir qator balladalarini bilan boyitdi. Shunday keng syujetli poema va balladalarida realistlik obrazlar qahramonlarning obrazi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, shoirning yuqorida ismi olingan ko'pchilik balladalarida urush yillaridagi insonlarning taqdiri, ularning jang maydonida qilgan mardligi, qahramonliklari keng turda tasvirlanganligini ko'ramiz. Masalan, «Ikkita soldat» balladasida quyidagicha voqiyalar tilga olingan : 1945 - yilning bahorida Germaniya shahrida ikkita soldat bir - biri bilan uchrashadi. Ularning biri nemis, biri rus. Ular ikkisi ham yarador, biroq biri ikkinchisini otmoqchi bo'lib turadi. Ular bir - biriga dushman bo'lsa ham, yarador bo'lganligidan, suyanishib, hospitalga ketadi. U yerdan sog'ayib chiqib, urushdan so'ng bir-birini izlaydi. Ular tinchlik zamonida bir- biri bilan uchrashadi.[5. 94-98]. Bu badiiy asarda insonlarning odamgarchiligi, umumiy insoniylik g'oyasi lirik qahramon obrazi orqalii teran chevarlik bilan ochib berilgan.

«Ko'k eman va Zo'ya haqida ballada» asarida urushda nobut bo'lgan Zo'yaning eri, uning begunoh o'lib ketishi, qahramonlik harakati botirlik obraziga misol bo'la oladi. Badiiy asarda lirik qahramon urush yillardagi voqealarni eslab, Rossiya tomonga yo'l oladi. Don, Volga bo'ylarini, shaharlarini, dalasin, to'qaylarini oralab, o'q tekkan emanning shoxasini shamol tebratib, yaproqlari chitirlab, ko'karib ketganini ko'radi. Zo'yaning kulimsirab turgan rang-ro'yini ko'z oldiga xayoliy sharpalatib, uchrab qo'lishni umid etadi. Lekin umidlari pushga chiqib, uning qabriga duch keladi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari quyidagicha teran lirizm bilan berilgan :

Xush hid taratib sochilmay,

Quribdi yosh gul ochilmay,

Sog'inch qoldi yurakda,

Ko'rishib mudom bosilmay. [6.139-147]



«Qurbo botir» balladasida ham urush yillaridagi voqealar tasvirlangan. Badiiy asarda urush maydonida o‘lim xafvini pisand etmay, qorday tushib turgan oqning ostiga, o‘zini zirh etgan mard Qurbonning mardligi bir kichkina epizod orqali ochib beriladi. Hamon sodiq Qurbon o‘ziday jangari yigitlarni boshqarib, chekinmasdan, Vatan uchun oldinga chiqqan, dushmanlarning jazosini berish uchun, ular bekingan yerga hujum etadi. Masalan:

Urta! Mening izimdan olg‘a,  
Yov qo‘rg‘onin bosib olinglar.  
G‘alaba bizni kutadi oldinda,  
-Deganda yetib boringlar.

Bir o‘q kelib tegdi Qurbonga,  
Yer quchib yiqildi botir,  
Yurakda alam qaynab dushmanga,  
- Otinglar! – deb baqirayotir. [7.19]

Azamatlar qahrga minganlaridan so‘ng ololmaydigan qamal qolmaydi. Bu jangda bizning mard jangarilarimiz, dushmanlarini yer tishlatib g‘alabaga erishadi.

Undan beri ko‘p yillar o‘tdi,  
Qurbon bo‘lsa shinelin tashlab,  
El ishiga kirishib ketdi,  
Mehnat yerini yuribdi boshlab.[7.21]

Oradan yillar o‘tib, Qurbon el ishiga kirishib, mehnat faxriysi bo‘lib, xalqiga xizmat etmoqda.

«Medsestra qiz Oksanaga» balladasida jang maydonida yarador bo‘lgan soldatlarni o‘limdan qutqarib, meditsinalik yordam ko‘rsatgan shifokor qiz Oksananing qaharmonligi tasvirlangan. Asar voqeasi jangarir soldat tilidan oddiy tasvirlash shaklida bayon qilinadi. Urushni ko‘k yelkasiga o‘q tegib, yarador yotgan vaqtida Oksana pana yerga olib kelib, dori surib, qonini to‘xtatib, toza mato bilan bog‘lab yordam beradi. Oksananing odamgarchiligi, ochiq ko‘ngilligi, mehnatkashligi va chaqqonligi shoir tarafidan quyidagicha tasvirlangan:

- Botir yigit qaytmay qarshi bording deb,  
O‘z qo‘ling bilan o‘n fashistni otding deb,  
Quvonasan tanangdagi yarangning,  
Ziyoni yo‘q o‘zing omon qolding deb.

Meni olib borib pana yerga,  
Tanang yuzi gulday botib terga,  
Jang maydoniga ketding yugurib,  
Yordam berish uchun yarador mardga... [7.20-21]

Jangavor yigit urushib, yana jang maydoniga otlanadi. Oksana bo‘lsa, o‘qqa uchgan har bir soldatni topi olib, o‘z yordamini ayamaydi. Uning qaharmonligi quyidagicha ifodalangan:

Sen bo‘lsang davom etib yo‘lingda,  
Yaradorga uzatib yordam qo‘lingni.  
Yaralangan har askarning ustidan,  
Quvib turding qo‘rqinchli o‘limni.[7.21]

Qishlog‘iga g‘alaba bilan qaytgan askar Oksananing urushdagi martligini sog‘ingan holda esga oladi va uning bilan uchrashib qolshni istaydi.

«Qon tomgan qayin» balladasida ham ikkinchi jahon urushi davrida yarador soldatning qayin tagida turib, dushmanga qarshi kurashgan martligi tasvirlanadi. Shoir ko‘ngilning kuchi orqali yengilmas botirni tasvirlaganda ishonchli qilishga, o‘zining mardona ko‘rinishini botirlarga singdirib ko‘rsatadi. Masalan:

...Shoxlarini dushmanga qilichday kerib,  
Qimirlamay turar ekan o‘sgan yeridan.  
...Ko‘rindi botirday o‘q otib turgan,  
Uning martligiga egaman boshni. [8.36].

B. Qayipnazarovning «Shoq gul», «Tiniq buloq», «Yetim», «Bog‘ va bog‘bon» kabi bir qator balladalarida hayot tajribalari, odamgarchilik g‘oyalari tasvirlangan.

«Shoq gul» balladasida XX asrning 30 -yillarida xalqni g‘olib tasvirlash ishiga o‘zgachalik kiritib, Nurimning dushmanlar tarafidan o‘ldirilishi tasvirlangan. Qula

tuzda, taqirlikda o'sib turgan shoq gul botir Nurimning yoshligini eslatib turar edi. Dushman Muratboyning ko'milgan yeriga tikon o'sib juda ko'paydi. Bu voqealarning bari yo'lovchi cholning tilidan esga tushirish shaklida tasvirlanadi. Balladaning syujeti quyidagicha: Tug'ilib o'sgan qishlog'iga kelayotgan yo'lovchi qo'lida tayog'i bor bir choli bilan uchrashib, yo'ldosh bo'ladi. Yuzi issiq, dilbar so'zli bu kekxa chol uzoq yo'lni qisqartirish maqsadida qula duzda, sirli taqirda o'sib turgan ajoyib shoq gul haqida hikoyasini boshlaydi.

Shoir tarafidan keng dala hech qanday tirik jon yoki cho'p, yoki giyoh yo'q ekanligi badiiy turda quyidagi qo'shiq qatorlari orqali tariflangan:

Biyday dala juda keng,

Yotibdi tinch ko'silib,

Qumli yerni yel qazib,

Kurar gohi uchirib.[8.40]

Bu tashbehdan ko'z oldimizda katta yalanglik rasmi paydo bo'ladi.

Tartibsiz yillarda aholining o'g'il -qizlarini o'qitish, ommaviy rivojlantirish maqsadida kelgan Nurim, dushmanlaridan qo'rqmay minbarda so'z so'zlab, yoshlarni bilim olishga, ilm-fan, hunar egallashga chorlaydi. Masalan

Muallimiman, elimning,-

O'qitaman o'g'il-qizin,

Yashnatsam deb bilimning,

Eng bir yorug' yulduzin.[8.41]

Majlis tugab kechqurun uyiga qaytib kelayotganda xafvda qolib, o'ch olmoqchi bo'lgan Muratboy kutilmaganda paydo bo'lib, tashlanib bir-birini pichoqlaydi. Masalan:

Kelar Nurim bir o'zi,

Tik ko'tarib boshini,

Chalg'ib ketgan sal ko'zi,

Siltanib yiqilgan bir tiyiqni.

Goh intilib, goh qochib,

Qo‘l siltasa dol tiygan,  
Pichoqlashib, talashib,  
Bir-birini o‘ldirgan. [8.44]

Tasodifan bo‘lgan to‘polondan Nurim jarohatlanadi, «O‘ynoqlagan ot bosar» deganday, dastlab pichoq siltagan Muratboy ham o‘sha yerda ko‘ziga qum quyilib o‘ladi.

Nurimning pok qoni to‘kilgan yerga har yili bahorda gul unib chiqadi, dushman ko‘milgan yerga tikon g‘uj-g‘uj o‘sadi.

Balladada badiiy asar mazmuniga mos, shavqatsiz, yosh shahid ketgan halol yigitning hayoti haqida, uning mazmuniga mos idiomalarning shoir tomonidan chevarlik bilan tanlanganligini quyidagi qatorlardan ko‘rishimizga bo‘ladi. Masalan:

Dastlab pichoq siltagan,  
Qora yurak to‘kdi qon,  
Endi baxti gullagan,  
Mard bemahal berdi jon.

Erta ketgan yosh jonga,  
Yodgorlikday shoq gul bu,  
Shu bag‘ri tosh dushmanga,  
Dol otilgan oq gul bu! [7.42]

Darvoqe, e‘tiborga olingan idioma yalla mazmunida, qahramon xarakteriga, syujet chizig‘iga bamisoli, to‘g‘ri tanlab olingan va u yerda qahramonning harakati voqeaning yechimi nima bilan tugallanganligi ushbu idiomalar orqali, teran emlikosional-eksperssivlik, badiiy tasvirlar bilan berilgan.

Shox gul - yoshlik belgisi kabi har yili botir, mardum farzandi Nurimning yoshligini eslatib, manguga hilpiraydi.

«Yetim» balladasida cho‘pon bola Bobojonning ayanchli taqdiri tilga olingan. U Lepesboyning xizmatida bo‘lib, uning qo‘ylar -echkilarini boqib, kun kechiradigan edilar. Bir kuni qattiq qor yog‘ib, yomg‘ir yog‘ib, dovul turgan mahalda qo‘ylarga bo‘ri kelib, Lamser ismli qo‘zisini olib ketadi. Lepesboy qo‘ylarini sanab, kam ekanini bilib,

bolaning yerga urib, mushti bilan urib, yovuzlarcha, ayovsiz urib jazolaydi. Bobojon esini yig'ib, oradan vaqt o'tkazib, Lepesboydan o'ch olishga bel bog'laydi. Og'ir yotarda, hamma qattiq uyquga ketganda Lepesboyning uyining eshigini mustahkam ilib, o't beradi. Lepesboy bilan ayoli Ayzada yongan o'tga chala kuyib, dunyo-molini ololmay o'ladi. [6.124-126]

Bu badiiy asar orqai yetimlarga ozor bermaslik kerakligi, ishlagan yomonliklari bir kuni o'zinga qaytishi ochib berilgan.

Shoirning «Tiniq buloq» balladasida o'z sevgilisiga erisha olmagan oshiqi-beqarorlarning ayanchli taqdiri haqida afsona tilga olingan. To'rt tarafi soy, bog'i boqchasi bor bir boyning Yulduz ismli yolg'iz qizi oddiy yigitni yaxshi ko'rib, ko'ngil beradi. Yulduzga talabgorlar ko'payib, og'iz solib turli-tuman sovchilar kela boshlaydi. Qiz bechora ham qo'rqib, uyidan ko'p chiqmaydi. Boyning tirrancha bolasi Alangg'asar ham sovchi yo'llab, qizning izidan qolmaydi. Yulduz javob bermaganidan so'ng, asabiylashib, iziga tushadi. Bir kuni qizga xat tashuvchi bola cho'lda yurgan yigitchadan xat berib ketadi. Xatda har kuni tiniq buloq bo'yida kutib yurganligi yozilgan edi. Oshiqi-beqarorlar bir-biri bilan uchrashgan vaqtida, soyga gavgim tushgan mahalda Alangg'asar kuzatib kelib, otadi va ikkita yosh baravar ovozsiz qotadi. Tiniq suvli buloq boshi qizil qonga bo'yalib qoladi.

«Varshava haqida afsona» balladasida ham baliqchi yigit Vars bilan Sava ismli qalam qoshning bir-biri bilan tanishib, turmush qurib baxtli umr surganligi haqidagi afsona tasvirlangan. Oshiq yoshlarning Vara bilan Savaning topishishiga sirang yordam etibdi. Mavjli dengiz tomonda bir shahar paydo bo'lib, ikki yoshning ismi birikib, Varshava shahrining go'zal ko'chalari, mustahkam qal'a vujudga kelganligi aytiladi.

Shoir B. Qayipnazarov ikkita balladasida afsona, afsonalarning syujet mazmunida chevarlik bilan qo'llana olgan.

Xulosa qilib aytganda, B. Qayipnazarovning balladalari o'qishga qulayli, ixcham, qisqa syujetga qurilgan. Badiiy asarlarida voqealar teran lirizm va drammatizmga qurilgan. Qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilm-fanida shoir B.

Qayipnazarovning liro-epik badiiy asarlarini, shuning ichida, balladalarining badiiylik xususiyatlarini ilmiy nazariylik tarafdin hali ham o'rganish zarur.

### **Adabiyotlar**

1. Ibragimov M. O'zbek balladasi,-Toshkent: Fan.-1974.-200 b.;
2. Eshhqobilov A. O'zbek balladasining nazariy-poetik tahlili (XX asrning 70-90-yillari misolida): Filol. fan. Bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissert. muallif.- Samarqand, 2020.
3. Gulnaz To'kenqizi., Nusipbek Rizabek. Ballada janrining shakllanishi va shu asnoda o'zgachaliklari. // «G'. Musirepov va yangi zamonaviy adabiyot, g'ilim men madaniyat» respublikalik g'ilimi-tajribasi onlayn konferensiyaning materialdan.- Petropavl q. 29 savr, 2022 y. 75-80 bb.
4. Axmetov S., Sultonov Q. Adabiyotshunoslik. -Nukus, «Qoraqalpog'iston», 1987.
5. Qayipnazarov B. Tanlangan asarlari (bir tomlik).- Nukus, Qoraqalpog'iston, 1993.
6. Qayipnazarov B. Men sening bir shoxngman (tanlangan asarlari).-Nukus, Qoraqalpog'iston, 1977.
7. Qayipnazarov B. Badiiy asarlari. II tom.- Nukus, «Bilim», 1997.
8. Qayipnazarov B. Erjan ko'k.- Nukus, Qoraqalpog'iston, 1983.

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI  
SHAKLLANTIRISH

*Abdurasulov Abdumannop Abdumajidovich*

*O'zHSA huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlilik sudi, Sudya*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada huquqiy ong - zamonaviy jamiyatda huquqiy madaniyatining asosiy elementi ekanligi masalalari ko'rib chiqilgan va bu hususda muallifning shaxsiy nuqtai nazarlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy jammiyat, demokratiya, xalq ishonchi.

Huquqiy davlatning shakllanishining ko'rsatkichi bu jamiyatning va undagi insonlarning huquqiy madaniyati holati bo'lib, u asosan insonlarning huquqiy ongi darajasi, fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy faoliyatiga ta'sir qiladigan demokratik institutlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali tizimini yaratish barqarorlik va rivojlanish nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jamiyat huquqiy madaniyatini ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan huquqiy ong - bu huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlar, g'oyalar, in'ikoslar, his-tuyg'ular, odamlar, ularning birlashmalari, umuman butun jamiyat bilan alqoador tushunchadir. Bu tushuncha odamlarning o'tmishdagi va amaldagi qonunchilikka, g'oyalarga, uni yanada takomillashtirishga, qonuniylik, odil sudlovga bilim va baholovchi munosabatni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Bunga zamonaviy jamiyatda qonunning ob'ektiv zarurligini anglash, uning ijtimoiy maqsadi, adolat, erkinlik, Jamiyat huquqiy madaniyatini ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan huquqiy ong - bu huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlar, g'oyalar, in'ikoslar, his-tuyg'ular, odamlar, ularning birlashmalari, umuman butun jamiyat bilan alqoador tushunchadir. Bu tushuncha odamlarning o'tmishdagi va amaldagi qonunchilikka, g'oyalarga, uni yanada takomillashtirishga, qonuniylik, odil sudlovga bilim va baholovchi munosabatni

shakllantirishda namoyon bo'ladi. Bunga zamonaviy jamiyatda qonunning ob'ektiv zarurligini anglash, uning ijtimoiy maqsadi, adolat, erkinlik,

Zamonaviy jamiyatlardagi huquqiy ong o'ta xilma-xil, ziddiyatli va asosan deformatsiyalangan holatda namoyon bo'ldi. Yuridik nigilizm, qonun va qonunlarga nisbatan hurmatsizlik munosabati rivojlanib jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ham qildi. Jinoyatchilik va boshqa noqonuniy harakatlar ko'paygan. Huquqiy ongning bu holatga kelishiga esa jamiyatning inqiroz holatida, fuqarolarning siyosiy, huquqiy va axloqiy madaniyatining pastligi, huquqni muhofaza qilish organlarining samarasiz ishlari sabab bo'ldi.

Taniqli faylasuf F. Engels millatni buzishning ikki yo'li bor, deb yozgan edi: aybsizlarni jazolash va aybdorlarni jazolamaslik. Afsuski, o'sha davrda bu ikki holatning ham birga kuzatilishi ro'y berdi. Odamlar jinoyat borligini ko'rsalar-da, jazo yo'q, yoki aksincha, jazo mavjud, ammo jinoyat yo'q, demak, ularning huquqiy ongi jiddiy deformatsiyaga uchragan, ular qonun, kuch, adolatga ishonishni to'xtatganlar.

Huquqiy ong jamiyatning huquqiy hayotini takomillashtirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa huquqiy davlatni yaratishda zarur omil hisoblanadi. Darhaqiqat, huquqiy normalarda ifodalanishidan oldin, qonun ijodkorligi organlari faoliyatining natijalari, odamlarning ma'lum manfaatlari va ehtiyojlari huquqiy normalarni yaratuvchi shaxslarning irodasi va ongidan o'tadi. Shuning uchun huquqiy normalarning sifati, ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligi huquqiy g'oyalar va huquqiy normalarni yaratuvchilarning huquqiy ongi darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

Fuqaro va jamiyatning huquqiy ongining rivojlanishi qoloq qarashlarni bartaraf etishga, odamlarning xulq-atvoridan chetga chiqishga, o'zboshimchalik va shaxsga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olishga yordam beradi. Fuqarolarning ongiga ilmiy asoslangan, mutanosib huquqiy g'oyalarni, qarashlarni kiritish, jinoyatchilikka qarshi kurash qonuniylik va qonuniylikni mustahkamlash uchun zaruriy shart bo'lib, ularsiz fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligini qurish mumkin emas. Bularning barchasiga davlatdagi huquqiy madaniyat sifatini oshirish orqali erishish mumkin.



Huquqiy madaniyatni jamiyat va shaxsning huquqiy holatini tavsiflovchi va doimiy ravishda o'zaro bog'liq va tarkibiy qismlarning ajralmas tizimini ifodalovchi maxsus ijtimoiy hodisa deb tushunish mumkin. Demak, huquqiy madaniyat - bu ma'lum bir huquqiy ong va qonuniylikni, qonunchilik va yuridik amaliyotning mukammalligini aks ettiruvchi ijtimoiy madaniyatning bir turi. Shu bilan birga, u huquqiy sohada yaratilgan barcha qadriyatlarni qamrab oladi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarini taqqoslab shuni ishonch bilan aytish mumkinki, oxirgi tushuncha birinchisiga qaraganda ancha kengroq. Agar huquqiy ong aynan jamiyatning ma'naviy hayotini qamrab oladigan bo'lsa, faqat ijtimoiy ongning tarkibiy bo'g'ini bo'lsa, demak, huquqiy madaniyat, aksincha, ikkala ma'naviy xususiyatlardan va huquqning "moddiy" tarkibiy qismlaridan iborat. Masalan, huquqiy institutlar, ularning tashkil etilishi va munosabatlari.

Zamonaviy jamiyatda kechayotgan jarayonlarni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, hozirgi kunda fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni takomillashtirish masalasi jahon arenasida etakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Biroq, boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, huquqiy madaniyat darajasiga ta'sir ko'rsatadigan bu juda muhim omildir.

Xulosa qilib yatganda zamonaviy davrda insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqish uchun huquqiy ongning umumiy darajasini ko'tarish, fuqarolarning huquqiy nigilizmini engishga qaratilgan choratadbirlarni qabul qilish va amalga oshirish zarurati va ehtiyojini keltirib chiqaradi. Biz jamiyatda qonun va qonunga hurmat-har bir insonning shaxsiy ishonchiga aylanishi uchun harakat qilishimiz kerak.

Huquqiy jamiyatda bosqichma-bosqich shakllanib boradigan shaxsning ehtiyojlari va manfaatlarini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biri sifatida ushbu tadbirlar orasida huquqiy madaniyat va huquqiy ong, huquqiy ta'lim alohida o'rin tutishi kerak. Huquqiy tarbiyaning maqsadi qonunlarga hurmatni shakllantirish bo'lishi kerak. Ular kuchli huquqiy e'tiqodga, qarashlarga, baholarga, munosabatlarga asoslangan bo'lishi kerak va insonning huquqiy sohada qonuniy va ijtimoiy faol xulq-

atvorini shakllantirishi lozim. Shunday qilib, huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni sifatida qaraladigan shaxsning huquqiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Demak, barcha madaniyatli inson va davlat bu bir-birini to'ldiruvchi ikkita tushuncha. Shuning uchun madaniyatli odamni hatto davlatsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. madaniyatli odamni shakllanishida esa huquqiy ong muhim o'rin tutadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Белканов Е.А. Лояльность правосознания // Российский юридический журнал. - 1996. - №3. – С. 52-56.
2. Осипов Р.А. Правовая культура, правосознание, правовая информированность: вопросы соотношения // Юридическая техника. 2016. №10. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-kultura-pravosoзнание-pravovaya-informirovannost-voprosy-sootnosheniya>
3. Рыбаков В. А. Правосознание: к вопросу о понятии // Вестник ОмГУ. Серия. Право. 2015. №3 (44). URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/pravosoзнание-k-voprosu-o-ponyatii>

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДАГИ  
ИСЛОҲОТЛАР: ҲОЗИРГИ ХОЛАТИ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ**

*Ҳамроев Маъруф Зарип ўғли*

*Банк-молия академияси магистранти*

**Аннотация:** Мақолада давлат молиявий назорати тизимидаги такомиллаштириш йўллари бўйича дунёнинг етакчи олимлари фикрлари ўрганилган, Ўзбекистонда давлат молиявий назорати тизимини ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ислохотлар ўрғанилган, вазирликлар ва идоралар томонидан бугунги кундаги давлат бюджети маблағларини сарфланиши бўйича қонунбузилиш ҳолатлари 2019-2020 йилларда соҳалар ва вилоятлар кесимида таҳлил қилинган ва мавзу бўйича асосланган хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилган ҳамда мамлакатимизда қўллаш бўйича тавсиялар берилган.

**Таянч сўзлар.** молиявий назорати, қонунбузилиш, давлат бюджети, молиявий сиёсат.

**REFORMS IN THE STATE FINANCIAL CONTROL SYSTEM OF  
UZBEKISTAN: CURRENT STATE AND WAYS OF IMPROVEMENT**

**Hamroyev Ma'ruf Zarip ugli**

Graduate student of The Banking and Finance Academy

**Annotation:** The article examines the opinions of the world's leading scientists on ways to improve the state financial control system, examines the reforms being implemented in Uzbekistan regarding the development of the state financial control system, the cases of violations of the law on the spending of state budget funds by ministries and agencies today, 2019 -In 2020, conclusions and proposals were analyzed in terms of sectors and regions, and recommendations were made for their application in our country.

**Keywords:** Financial control, violation of law, state budget, financial policy.

## **1. Кириш**

Барчамизга маълум, ислохотлар ва янгиланишлар ўз-ўзича амалиётга татбиқ қилинганда охири яъни якуний самара кутилганидек бўлмаслиги ёки кутилган натижага кейинроқ эришиш мумкин бўлади. Шунинг учун, янги иқтисодий тизим ва муносабатларнинг қарор топишида барча тармоқлар керакли даражада ҳукумат томонидан қўллаб-қувватлаб борилади, бу олиб борилаётган ислохотларнинг самарали бўлишини кафолатлайди.

Мамлакатимизда иқтисодий ислохотлар ва янгиланишларни босқичма-босқич аста-секинлик билан амалга ошириш ва бу жараёнда давлатнинг бош ислохотчи вазифасини бажариши мамлакатимизнинг бозор иқтисодиётига ўтишида ўзига хос туртки бўлиб ҳисобланади. Бу жараён инвестицияларни жалб қилиш ва уларни бошқаришни тартибга солиш борасида кўплаб янги ва мамлакатимиз иқтисодиёти учун муҳим қарорлар қабул қилишни талаб қилади.

Яъни, мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларни жадаллаштириш ва янги босқичларга олиб чиқишда қаратилган чоратadbирларни ишлаб чиқиш ва уларнинг амалга оширишлиши устидан молиявий назоратни йўлга қўйилиши том маънода ҳақиқий натижасини бериши шубҳасиздир. Сабаби, ҳурматли прездентимиз томонидан Янги Ўзбекистоннинг янги келажагини қуришдаги сай ҳаракатлари ўз-ўзидан янги-янги марраларни ва янги инновацион лойиҳаларни амалга оширишни тақозо этади.

Шу ўринда давлат бюджетининг даромадлар ва харажатлар қисмини оптималлаштириш бюджетдан сарфланадиган ҳар бир маблағнинг тўғри ва оқилона ишлатилишини йўлга қўйиш ва унинг назортини амалга ошириш бугунги кунда иқтисодчиларни олдида турган долзарб масалалардан бир ҳисобланади.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Мавзуга оид адабиётларни таҳлил этиш жараёнида давлат молиявий назорати тизимидаги такомиллаштириш йўллари юзасидан бир қанча етакчи иқтисодчи олим ва мутахассислар томонидан илмий изланишлар олиб борилганлигига гувоҳ бўлдик, улар куйдагилардан иборатдир. Улардан,

С.О.Шохин, Л.Н.Воронина молиявий назоратни ташкилотларнинг молиявий-хўжалик фаолиятини назорат қилиш ваколатига эга бўлган давлат ва жамоат органлари тизими сифатида белгилайди, уларнинг фаолиятининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш, иқтисодий ва молиявий операцияларнинг қонунийлиги ва мақсадга мувофиқлигини аниқлаш ва давлат бюджетига даромад олишнинг ўз вақтида ва тўлиқлиги. Назорат, ўз навбатида, қонунларни устиворлигини таъминлаш мақсадида, доимий равишда амалга оширилади. Шундай қилиб, молиявий назоратни назорат қилиш орқали талқин қилишда назорат мақсади бузилади[1].

Бошқа муаллифлар, масалан, Ю.М. Воронин, молиявий назоратни фақат қонунийликни белгилаш жараёни сифатида эмас, балки бошқарув объектининг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолаш жараёни сифатида ҳам кўришади [2].

А.Н.Козйриннинг фикрича, молиявий назорат - бу "... махсус шакл ва усуллардан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган давлат органларининг фаолияти, шунингдек, айрим ҳолларда молиявий операцияларнинг қонунийлиги ва ишончлилигини белгилаш ваколатига эга бўлган нодавлат органларининг фаолияти; молия-хўжалик фаолиятининг иқтисодий самарадорлигини объектив баҳолаш, уни ошириш учун захираларни аниқлаш, бюджет рентабеллигини ошириш ва мулкни давлат "қўлида" сақлашдир" деб изоҳлаган[3].

Бошқа бир муаллиф Н.И.Химичева томонидан эса молиявий назоратни "... давлат, муниципал ва бошқа пул маблағларини (молиявий ресурсларни) шакллантириш, тақсимлаш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги ҳаракатларнинг қонунийлиги ва мақсадга мувофиқлигига риоя қилиш" деб таърифлайди[4].

Матвеева Елена Эвгениевна томонидан "Ҳозирги вақтда давлат молиявий назорати соҳасида ушбу соҳани ривожлантириш истиқболларини тавсифловчи кўплаб тадқиқотлар мавжуд. Бугунги кунда норматив-ҳуқуқий базага кўра, вилоятлар ва туманлар давлат ҳокимияти органлари тузилмасида ички молиявий назорат функциялари юклатиладиган алоҳида бўлинма назарда тутилмаган. Бу муаммолар маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг молиявий назорат

самарадорлиги ва самарадорлигини оширишдан манфаатдор эмаслиги, шунингдек, ушбу соҳани ривожлантиришнинг сусткашлиги билан кучайди. Агар ташқи ва ички назорат ўз вақтида ва холисона, аниқ тартибга солинган ва натижага йўналтирилган бўлса, давлат молиявий назоратининг самарадорлиги таъминланиши мумкин, бу эса муайян вазифаларнинг бажарилишини ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш мақсадларига эришишни таъминлайди” деб таъкидланган[5].

### **3. Тадқиқот методологияси.**

Ўзбекистон давлат молиявий назорати тизимидаги ислохотлар: ҳозирги ҳолати ва такомиллаштириш йўллари бўйича дунё олимлари ва иқтисодчилари томонидан олиб борилаётган тадқиқодларни ўрганиш, маълумотлар тоъплаш, тоъпланган маълумотларни таҳлил қилиш, синтезлаш, мантиқий фикрлаш каби иқтисодий тадқиқот усулларида кенг фойдаланилди.

### **4. Таҳлил ва натижалар муҳокамаси**

Бугунги кунда иқтисодий ислохотларни ва молия сиёсатини амалга ошириш учун молиявий муносабатларни бошқаришнинг воситаси ҳисобланадиган самарали давлат молиявий назорат тизимини тубдан такомиллаштиришни талаб этади. Ушбу молиявий муносабатларни яхшилаш учун ҳукматимиз томонидан бир қатор иқтисодий ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Молия вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 августдаги ПҚ-3231-сонли “Таълим ва тиббиёт муассасаларини молиялаштириш механизмини ҳамда давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори билан қўшимча юклатилган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида «УзАСБО» дастурий таъминоти ва бошқа дастурлардан кенг фойдаланган ҳолда бюджет маблағларининг мақсадли сарфланиши юзасидан бюджет ташкилотларида мониторинг ва профилактика ҳамда камерал назорат тадбирларини кенг тадбиқ этилмоқда.

Давлат молиявий назорати органлар фаолияти самарадорлигини ошириш бюджет жараёнининг шаффофлигини ошириш ҳамда турли маълумотлар базалардан фойдаланиш талаб этилади. Давлат молиявий назорати органлари томонидан масофавий назорат ва таҳлилий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган маълумотлар базаси хажм ва таркиб жихатидан жуда кенглиги сабабли замонавий ахборот технологиялари ва махсус автоматлаштирилган дастурий маҳсулотлар воситаларини кенг қўллашни жорий этишни тақозо этади.

Юқоридагиларни инобатга олиб, Молия вазирлиги томонидан “Бюджет маблағларидан мақсадли фойдаланиш юзасидан камерал назорат” дастурий таъминоти бўйича техник топшириқ лойиҳаси ишлаб чиқилган.

Шунингдек, Молия вазирлигида ишчи гуруҳ томонидан “Давлат молиявий назорати тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ишлаб чиқилиб, белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритилган. Лекин, бу қонун лойиҳасини бошқа мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқиб қайта кўриб чиқилмоқда. Бунда давлат молиявий назоратини амалга оширишда асосий эътибор профилактика ишларига қаратилиши ҳамда вазирлик ва идораларда ички аудит хизматларини ташкил этилиши назарда тутилмоқда.

Шунингдек, давлат молиявий назорати тизимини ислоҳ қилиш бўйича халқаро экспертларни жалб этиш масаласида Жаҳон банкининг “Институционал салоҳиятни ошириш” лойиҳаси доирасида “Ўзбекистон Республикаси давлат секторида ички назорат ва ички аудитни ислоҳ қилиш” компоненти бўйича халқаро тендер эълон қилинган. Ҳозирда ушбу тендернинг якуний жараёнлари амалга оширилмоқда. Якуний баҳолашларга кўра тендерда “Присе waterҳоусе сооперс (PWC)” компанияси ғалаба қозонди ва бугунги кунда у билан шартнома тузишишлари якунланмоқда.

Шу билан бирга, ўтган давр мобайнида, қонун лойиҳасини ишлаб чиқишга қадар давлат молиявий назорати ташкилий тузилмасини белгилаш ҳамда вазифалар тақсимотини амалга ошириш мақсадида Молия вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат молиявий назорати тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони лойиҳаси

ишлаб чиқилди ҳамда келишиш учун манфаатдор вазирлик ва идораларга юборилди. Ушбу лойиҳага Ҳисоб палатаси томонидан ўз таклифлари тақдим этилганлиги сабабли бугунги кунда ушбу йўналишда муҳокамалар давом этмоқда. Шунингдек, илғор халқаро тажрибада давлат молиявий назорати тўғрисидаги қонунларда вазирлик ва идораларнинг ички аудит хизматлари фаолияти қамраб олинганлиги сабабли ишлаб чиқилиши режалаштирилган “Давлат молиявий назорати тўғрисида”ги ва “Давлат ички назорати ва ички аудити тўғрисида”ги қонунлар лойиҳаларини бирлаштирган ҳолда “Давлат молиявий назорати тўғрисида”ги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш режалаштирилмоқда.

Давлат молиявий назорати департаменти ва унинг ҳудудий бошқармалари томонидан 2020-йилда бюджет интизомига риоя этилиши ва бюджет маблағларнинг мақсадли фойдаланиши юзасидан 4 729 та (2019 йилда 8 074 та) назорат тадбирларида 246 млрд.сўм миқдорида бюджет интизоми бузиш, пул ва товар-моддий бойликлар камомади ва асоссиз харажатлар аниқланиб, шундан 168,8 млрд.сўмни бюджетга тикланиши таъминланди.




**1-расм. Вазирликлар ва идоралар бўйича қонунбузилиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликлар млрд сўмда<sup>1</sup>**

Юқоридаги расмдан кўришимиз мумкинки: 2019-2020 йилларда вазирликлар ва идоралар бўйича қонунбузилиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликлар сезиларли даражада ўсган. Яни 1,7 мартага ошган. Бу эса ўз ўзидан

<sup>1</sup> www.mifin.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.



давлат молиявий назоратини амалга оширишда бир қатор жиддий ислоҳотларни амалга ошириш кераклигини кўрсатмоқда. Шунингдек, ушбу қонунбузулишларини соҳалар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, қуйдагиларни кўришимиз мумкин.




**2-расм. Вазирлик ва идоралар бўйича қонунбузулиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликлар соҳалар кесимидаги динамикаси <sup>2</sup>**

Юқоридаги расмдан Вазирлик ва идоралар бўйича қонунбузулиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликлар соҳалар кесимидаги таҳлилни коришимиз мумкин. Жумладан, халқ таълими вазирлиги тизимида ўтказилган 709 та назорат тадбирларининг 573 тасида 96,6 млрд.сўм миқдорида қонунбузулиш ҳолатлари аниқланиб, 2019 йилга (29,8 млрд.сўм) нисбатан 3,2 мартага ошган. Соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимида ўтказилган 723 та назорат тадбирларининг 523 тасида 40 млрд.сўм миқдорида қонунбузулиш ҳолатлари аниқланиб, 2019 йилга (13,8 млрд.сўм) нисбатан 2,9 мартага ошган. Мактабгача таълим вазирлиги тизимида ўтказилган 327 та назорат тадбирларининг 270 тасида 16,7 млрд.сўм миқдорида қонунбузулиш ҳолатлари аниқланиб, 2019 йилга (8,3 млрд.сўм) нисбатан 2 мартага ошган. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги тизимида ўтказилган 124 та назорат тадбирларининг 106 тасида 9,4 млрд.сўм миқдорида қонунбузулиш ҳолатлари аниқланиб, 2019 йилга (1,1 млрд.сўм)

<sup>2</sup> [www.mifin.uz](http://www.mifin.uz) Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий маъмуотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

нисбатан 8,5 мартага ошган. Шунингдек, Маданият (6,8 млрд.сўм), Сув хўжалиги (5,6 млрд.сўм), Олий ва ўрта махсус таълими (5 млрд.сўм), Жисмоний тарбия ва спорт (4,1 млрд.сўм), Қишлоқ хўжалиги (3,1 млрд.сўм) вазирликлари ва улар тизимидаги бюджет ташкилотларида ҳам йирик миқдорда молиявий қонунбузилиш ҳолатлари аниқланган. “Ўзбеккино” миллий агентлигида ўтказилган назорат тадбирларида 17,9 млрд.сўм миқдорида молиявий қонунбузилиш ҳолатларига йўл қўйилганлиги аниқланди. Бундан ташқари, ҳокимиятлар (3,5 млрд.сўм), ҳокимликларнинг ободонлаштириш бошқармалари (7,8 млрд.сўм), ҳокимиятлар ҳузуридаги “Ягона буюртмачи хизмати” инжиниринг компаниялари (8,4 млрд.сўм)да ўтказилган назорат тадбирларида ҳам молиявий қонунбузилиш ҳолатларига йўл қўйилганлиги аниқланган.



**3-расм. Вазирлик ва идоралар бўйича қонунбузилиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликларни вилоятлар кесимида таҳлили <sup>3</sup>**

3-расм маълумотлардан, шуни кўришимиз мумкинки, маҳаллий бюджетлар маблағларини мақсадли сарфланиши юзасидан ўтказилган назорат тадбирларида жами 175,3 млрд.сўм миқдорида, жумладан Қашқадарё (26,1 млрд.сўм), Андижон (19,8 млрд.сўм), Сурхондарё (16,5 млрд.сўм), Фарғона (14,4 млрд.сўм),

<sup>3</sup> www.mifn.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

Тошкент (13,2 млрд.сўм), Жиззах (13 млрд.сўм), Самарқанд (13 млрд.сўм), Сирдарё (12,9 млрд.сўм), Наманган (12 млрд.сўм), Хоразм (6 млрд.сўм), Бухоро (3,6 млрд.сўм), Навоий (2,4 млрд.сўм) вилоятларида ҳамда Тошкент шаҳрида (13,8 млрд.сўм) ва Қорақалпоғистон Республикасида (8,1 млрд.сўм) қонунбузилиш ҳолатлари ва бошқа хато-камчиликлар аниқланган.

## **5. Хулоса ва таклифлар.**

Давлат молиявий назоратининг асосий мақсади ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларида молиявий ресурсларни бошқариш амалиётининг давлат молиявий сиёсатининг вазифаларига мувофиқлигини аниқлашдан иборат.

Давлат молиявий назоратининг энг муҳим вазифаси давлат органлари ва жамиятни давлат маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш бўйича кенг қамровли ва ишончли ахборот билан таъминлашдан иборатдир. Бу эса ўз новабатидан мамлакатимизда ҳам иқтисодий ҳам ижтимоий томондан ривожланишига ёрдам беради.

Барчамизга маълумки, Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан амалга оширилиётган молиявий ислохотлар ўз новбаотида мамлакатимиз халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлаш ташаббуси ижобий қўллаб-қувватланиб, қўллаб келинмоқда. Бизнинг асосий мақсадимиз фақатгина халқаро рейтингларда ўрнимизни ошириш эмас, балки улардан аҳолининг фаровонлиги, институционал имкониятлари ва рейтинглари бўлиб, мақсадларга эришиш учун яхши қўлланма сифатида хизмат қилишини таъминлашдир. Шунинг учун барча соҳаларда самарадорликнинг мақсадли кўрсаткичларини (КПИ) тизимини қўллаш зарурдир. Ушбу КПИ тизимини ҳукуматнинг муҳим тармоқларни ислох қилиш ва одамларнинг яшашлари ва бизнесларининг фаровонлиги учун яхши шароитлар яратиш бўйича ҳисобга олиниши лозим.

**6. Адабиётлар /Literatura/Reference:**

1. Козырин А. Н. Финансовый контроль // Финансовое право / под ред. проф. О. Н. Горбуновой. – М.: Юристъ, 1996. – С.48.
2. Химичева Н. И. Финансовое право : учебник / отв. ред. — Ф59 5"е изд., перераб. и доп. — М. : Норма : ИНФРА"М, 2012. — С.129
3. Шохин С.О., Воронина Л. Н. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России: научно-методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 1997.
4. Воронин Ю. М. Государственный финансовый контроль. М.: Финансовый контроль, 2005.
5. Матвеева Елена Евгеньевна “СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ” Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес» Экономический журнал 2020
6. [www.mifin.uz](http://www.mifin.uz) Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий саҳифаси.

**ESTABLISH COMMUNICATION METHODOLOGY**

*Aziza Jorayeva*

*A student of Primary education at Kokan University*

*E-mail:juraevaaziza793@gmail.com*

**Annotation:** In this article, the communication relationship between people, considered the main category of pedagogical-psychological sciences, the teacher should be attentive to the student in the process of communication, it is written that he should carefully study his psychological condition and then give him reprimands or warnings. Also, the principles of communication between the teacher and the student are discussed separately. Various negative consequences occur in the student due to the teacher's incorrect communication with the student, as a solution to this, the recommendations needed by the teacher are given. At the end of the article, it is written in detail about the requirements of the teacher to the student in the process of education.

**Key words:** Communication, teacher, student, live communication, communicative communication, interactive communication, perceptive communication, education, positive influence, young character, psychological, demand, society.

Communication comes from the Greek word for conversation or means of communication between two or more people. Communication is of great importance in this pedagogic-psychology. Each teacher should be able to communicate with the student. If the teacher organizes communication correctly and quickly, this indicates that he has a wealth of vocabulary.

Teachers educate students by organizing communication properly. Improper pedagogical communication causes students to be unable to freely express their thoughts, fear, shyness, and inability to demonstrate their abilities. As a result of this, a student, that is, a person, will not be able to find his place in life and science in the future.

Pedagogic communication is the teacher's ability to create a positive relationship with students in the classroom and extracurricular activities. Before warning, reprimanding and punishing the student, the teacher should study the situation of the student based on his psychological knowledge and take into account his age characteristics. The teacher should study the family environment and interests of each student in the group. At the same time, he should organize live dialogues with his parents and ask them for their opinions about their child. In the group, the leader should form the communication with the students correctly. From the student leader to grouping other students in the group, the teacher should teach how to help to approach each work with responsibility.

The communication between the teacher and the student is manifested in 3 principles:

Communicative communication

Interactive communication

Perceptive communication

The interaction includes the exchange of information with the participants of the cooperation activity and can be described as a communicative dialogue. An important aspect of interactive communication is mutual influence. In interaction, the teacher, who enters into communication, affects the educational activity of students not only through words, but also through the exchange of ideas, it is understood that behavior interacts with actions and behaviors. In perceptive communication, on the basis of mutual understanding of each other, one of them gains the trust of the other, is perceived as a smart, insightful, experienced, well-rounded person<sup>1</sup>. The teacher's demands on the student will give positive results in the following cases. The requirements imposed on the student certainly establish order and discipline in the school. For this reason, it is necessary for the teacher to know how to make demands, and this has been specially emphasized by scientists.

---

<sup>1</sup> 1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -T., 2011.

It is necessary to respect the student as a person and give special importance to his age characteristics. It is necessary to set requirements for the student based on the conditions in the school and classroom. The requirements for the student's clothing, behavior, and behavior should form a culture in them. It is appropriate for the teacher to make demands on the student after he has studied the volume and system of requirements well.

**References:**

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -T., 2011.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o'quv qo'llanma) . -T., 2006.
3. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar Pedagogik psixologiya (o'quv qo'llanma) . -T., 2007.
4. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T., 2000.
5. Pirmuhammedova M. Pedagogik mahorat asoslari-T.: 2001.
6. Karimova V. “Mustaqil fikrlash” metodik qo'llanma. -T.: - 2000 y.
7. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar), 2007.
8. Tolipov O'.Q, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.. 2006.
9. Hodiev B.Y., Boltabaev M.R. “Oliy o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlarga psixologik yondashuvlar”. -T.: 2009.
10. B Xodjayev.Pedagogik mahorat -2017 y.

**ВЛИЯНИЕ ГЕЛЕОБРАЗНЫХ ХИМИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ  
В ПОВЫШЕНИИ БИОМАССЫ СТЕПНЫХ РАСТЕНИЙ  
В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ**

*Тагаев Илҳом Ахрорович*

*Кандидат сельскохозяйственных наук, доцент*

*Исроилов Олтинбек Ихтиёр ўгли*

*Стажер-исследователь*

*Журакулов Бахром Азаматович*

*Ассистент,*

*Навоийский государственный горно-технологический университет*

*Navoi State Mining and Technology University*

**Аннотация.** В данной статье описаны основные проблемы сохранения влаги в пустынных и полупустынных регионах Узбекистана, где рост и развитие пастбищных растений полностью зависит от климата и от количества выпадающих осадков. Полученные результаты свидетельствуют, что некоторые гелеобразные соединения в виде полиакриламидного геля (ПААГ) и карбоксиметилцеллюлозы (КМЦ) в различных минимальных концентрациях способны некоторое время удерживать почвенную влагу, которая может способствовать увеличению биомассы пастбищных растений.

**Abstract:** This article describes the main problems of moisture conservation in the desert and semi-desert regions of Uzbekistan, where the growth and development of pasture plants depends entirely on the climate and on the amount of precipitation. The obtained results indicate that some gel-like compounds in the form of polyacrylamide gel (PAAG) and carboxymethyl cellulose (CMC) in various minimum concentrations are able to retain soil moisture for some time, which can increase the biomass of pasture plants.

**Ключевые слова:** естественная влажность, минералы и сорбенты, гелеобразные соединения, обычная и засоленная почва, полиакриламидный



гель, карбоксиметилцеллюлоза, сушильная печь.

**Keywords:** natural moisture, minerals and sorbents, gel compounds, normal and saline soil, polyacrylamide gel, carboxymethyl cellulose, drying oven.

Выполненные к настоящему времени научные исследования доказали, что в процессе создания биомассы, менее 30% естественных осадков потребляется растениями, остальная часть влаги испаряется в атмосферу, просачивается в грунтовые воды или поступает в виде поверхностного стока в реки. За счет выпадения естественных осадков содержится каракулеводство Навоийской области, сосредоточенное в степной, полупустынной и пустынной зоне Центральных Кызылкумов. Особенностью таких зон в Навоийской области является не обеспеченность осадками (менее 100 мм/год), годовая величина испаряемости которых в несколько раз превышает количество выпадающих осадков, низкая продуктивность эфемерных растений, эфемероидов и многолетних ксерофитов и галофитов, а также их ограниченное произрастание на небольших степных и песчаных участках. Площадь таких степных, полупустынных и пустынных земель в области составляет около 19,8 тыс. га. Раньше, до иссушения Аральского моря, в каждые 4 года один раз выпадали обильные осадки, позволяющие давать богарным землям, степным и полупустынным регионам обильную биомассу, созревание пустынных растений, что позволяло без риска увеличивать поголовье каракульских овец. В последние 3 десятилетия количество обильных на осадки годов уменьшилось до 1 раза в шесть-семь лет. Поэтому развитие каракулеводства в Навоийской области стало рискованным и проблематичным [1-2].

Целью данного исследования является повышение эффективности использования степных пастбищ за счет внедрения инновационных решений по сохранению естественной влаги от выпавших осадков в весенние месяцы, особенно в конце апреля и первую, вторую декады мая.

Одним из возможных вариантов решения данной проблемы является изучение различных видов химических соединений, способных после внесения

в почву, накапливать и удерживать естественную влагу в течение длительного времени, способствуя усвоению растениями этой влаги, накоплению биомассы и созреванию семян.

Задачей проекта является обоснование эффективности использования степных пастбищ за счет внедрения технологии обработки пастбищ растворами гуминовых, гелеобразных соединений в сочетании с минералами и сорбентами, способными удерживать естественную влагу атмосферных осадков в течение длительного времени. Одними из распространенных, влагосберегающих средств являются гидрогели, которые успешно применяются для получения высоких урожаев сельскохозяйственных культур в засушливых условиях Республики Узбекистан [3-5].

Реализация результатов научных исследований позволит решить проблему недостатка влаги в степных, полупустынных и пустынных пастбищных зонах Навоийской области обеспечением устойчивого развития каракулеводства.

На сельскохозяйственном факультете Навоийского государственного горно-технологического университета были проведены эксперименты с дешевыми и легкодоступными полиакрилоамидным гелем (ПААГ) и карбоксиметилцеллюлозой (КМЦ) на обычной и засоленной почвах.

Объект исследований – два обычная и засоленная почвы, просеянная через сито с ячейками 1,0 мм; высушенные при температуре 50 °С в сушильном шкафу в течение 10 часов. Исходный вариант – навеска почвы 400 г для пропитки водой, в количестве 100 мл. Остальные 5 вариантов - навески по 400 г с гранулированным ПААГ и порошковой КМЦ из расчета 0,5 г/л, 1 г/л, 2 г/л, 3 г/л, 4 г/л и 5 г/л, которые также были пропитаны вышеописанными растворами гидрогелей.

После пропитки водой и растворами ПААГ с КМЦ, навески ежедневно взвешивали для определения убыли влаги и выявляли перспективные варианты для применения в полевых условиях.




Рис. 1. Результаты количественного анализа сохранения влаги с водными растворами КМЦ.

На рис. 1. Видно, что наиболее хорошие результаты по сохранению почвенной влаги отмечены с концентрацией КМЦ 2 г/л, при которой в течение 7 дней сохранялось более 7 г/л воды, тогда как в контрольном варианте с обычной водой отмечено уменьшение влаги до исходной навески почвы, т.е. до 400 г.




Рис. 2. Результаты количественного анализа сохранения влаги с водными растворами ПААГ.

Анализ данных на рис. 2. с ПААГ показал, что более перспективным оказался вариант с 3 г/л водного раствора геля, где по сравнению с контрольным вариантом, удерживалось дополнительно до 5 г/л воды.

Сравнительный анализ полученных результатов показал, что карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ) с концентрацией 2 г/л удерживает в течение 7 дней до 7 г/л воды, а полиакриламидная гель (ПААГ) удерживает до 5 г/л воды.

Таким образом, более перспективным является применение карбоксиметилцеллюлозы (КМЦ) концентрацией 2 г/л для удержания влаги в почве.

### **Использованная литература:**

1. Тагаев И.А., Джуракулов Б.А., Рахматова З.А. Результаты изучения степени накопления влаги гелеобразными соединениями на различных типах почв. Международная научно-практическая конференция «интеграция науки, образования и производства – залог прогресса и процветания», том II, город Навои, Республика Узбекистан, Навои. 2022 с. 289-292.
2. Tagaev I.A., Jurakulov B.A., Shermatova Yu.I. Международная научно-практическая конференция «интеграция науки, образования и производства – залог прогресса и процветания», том II, город Навои, Республика Узбекистан, Навои. 2022 с. 292-295.
3. Уникальный гель для сельского хозяйства создали ученые России и Чехии <https://e-cis.info/news/569/92978/>.
4. Ревенко В.Ю., Агафонов О.М. Использование гидрогелей в растениеводстве. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol.11-2. 2019. с. 59-64. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-gidrogeley-v-rastenievodstve>.
5. Годунова Е.И., Шкабарда С.Н., Гундырин В.Н. Использование гидрогеля и влагообеспеченность культур в зоне неустойчивого увлажнения Ставрополя. 29.07. 2014. с. 37-38. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-gidrogelya-i-vлагоobespechennost-kultur-v-zone-neustoychivogo-uvlazhneniya-stavropolya>

ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR TADBIQI

*Saidova Dilrabo Bahodirovna.*

*Toshkent shahar "Xalq ta'limi tasarrufidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashgan umumta'lim maktabi "ning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish, ta'limning tashkil etishida inavatsion yondashuvda bo'lish, pedagogik texnologiyalarni ona tili darslarida eng samarali interfaol usullar yordamida tadbiq etish yo'llari, ularni o'quv jarayonida qo'llanishi haqida va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, o'zaro hamjihatlikda ish olib borishga, fikrlarini ravon bayon etishga undashi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiyasida e'tirof, empirik, ta'limiy-tarbiyaviy, pedagogik texnologiya, tadqiqot obyekti, agar texnologik, umumpedagog, computer texnologiyalari

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqbol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati qatoridan munosib joy topishga qaratilgan ezgu niyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu niyatlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, binobarin, kelajak avlodga zarur bilim asoslarini mukammal o'rgatish, ulardan keng dunyoqarash bilan birga tafakkur ko'lamini ham barpo qilish, ma'naviy-ahloqiy sifatlarni rivojlantirish to'g'risidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Chunonchi, vatanimizning yorug' istiqbolini yaratish, uning nomini dunyoga keng ko'lamda namoyon qilish, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosimizni jamiyatga namoyish etish, ularni

boyitish, mustaqil yurtimizning rivojlangan mamakatlar qatoridan o`rin egallashni ta`minlash kelajak avlodni komil inson va malakali kadrlar qilib yetkazishga bog'liqdir.

Shuni aytish kerakki, Ona tili darslarida ta'lim jarayonining borishi o'quvchilarning qo`yilgan maqsadlari yo'lida harakat qilishlarini doimiy tarzda nazorat qilishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini namoyon etadi. Shuning natijasida ped texnologiya ta'lim maqsadiga tashkiliy-uslubiy vositalar yordamida erishishligini ifodalaydi.

Ona tili darslarida agar texnologik tizimlarida asosiy e'tibor bilimlarni uzatish va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida nazorat yo'lga qo'yish borasidagi harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi. Texnologik yondashuvning yana bir xususiyati bo'lgan davriy ketma-ketlik pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi va rejalashtirilgan standart natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Ta'limning to'laligicha standartlashtirishga yo'naltirilganligi texnologik yondashuvga xos bo'lib, u didaktikada ta'limning asosiy jihatlaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi va keyingi tillarda butun jahon pedagogikasining tadqiqot obyektiga aylangan o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ona tili darslarida yoshlarga bunday yondashuv ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim jarayonining mazmunini, o'quvchiga ilmiy bilimlarni turli jarayonining mazmunini, o'quvchiga ilmiy bilimlarni turli vositalar yordamida yetkazib berishni nazarda tutadi. Umumpedagogi tamoyil nuqtai nazaridan ta'lim natijasi samarali ravishda o'zlashtiriladigan bilim, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyati, bu orada orttirilgan tajriba hamda o'quvchilarda axloqiy-hissiy sifatlarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida computer texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra

mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalari yaratishi yoki internet saytlaridan sifatliharini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik "Science and Education" Scientific Journal September 2020 / Volume 1 Special Issue 2 [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 162 jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalariidan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi. Ayniqsa hozirgi butun dunyoga tarqalishga ulgurgan COVID -19 pandemiyasi sharoitidan kelib chiqilsa, o'qituvchida yana bir imkoniyat bu audio va video darslarning masofaviy ta'lik uchun yaratilishi va o'ero, online ta'lim yurtimiz ta'lim tizimini qamrab olar ekan, televideniya orqali efirga uzatilayotgan online dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quvchilar uchun tanish bo'lgan sevimli ustozlari tomonidan yaratilgan qo'shimcha darslar ularga kuch, motivatsiya va albatta qo'shimcha bilim bera oladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish borgan sayin yuksalib bormoqda, bunday bo'lishiga sabablardan biri shu kungacha ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish esa, ularni mustaqil tanqidiy fikrlashga, kerakli narsalarni izlab topishga, muhokama va xulosa qilishga o'rgatadi. O'quvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi, ta'lim o'quvchi-talabalarga yo'naltiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan to'gri foydalanishlik natijasida yanada mukammal, qulay va tez bo'lishi mumkin.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pedagogik fanlari o`qitishning mazmuni va metodil. Ilmiy tekshirish Instituti.
2. O`rta maktablarda chet tili o`qitish kursil Professor Setlin V.S. tahriri Toshkent —O`qituvchil 1978 y.
3. Jabborov V. —Talabalarning chet tilidan mustaqil ishlaril, Toskkent —1984 y.
4. Rahmatova D. Istiqlol va til ilmiy amaliy anjuman materiallaril Toshkent 2007-yil 3- qism 209-211 betlar.
5. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o`rganishda innovatsion metodlar. *Science and Education*, 1(5).
6. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
7. Ijtimoiy tarmoq



QOZOQ XALQINING KELIB CHIQISH TARIXI

*Amonboyeva Fariza*

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Tarix fakulteti 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Tarix bu butun boshli kelajakni bashorat qilish uchun asos demakdir degan edi, ingliz faylasuflari. Darhaqiqat, har bir millatning tarixi bu uning buguni va ertasidir. Ushbu maqolada qozoq xalqining qisqacha kelib chiqish tarixi bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** qozoq xalqi, Kazak, sart, Oltin O'rda, chingiziylar, bronza asri, rus bosqini va h.k.

"Qozoq" atamasi turkiy "qozoq" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "erkin", "ozod", "mustaqil" yoki "sayyor" degan ma'noni anglatadi. Tarixchilarning fikricha, qozoq xalqining shakllanishidagi asosiy voqea 15-asr o'rtalarida sodir bo'lgan. Keyin birinchi qozoq xonlari Janibek va Kerey 100 mingga yaqin odamni Yetisuvga olib ketdi. Bu o'zbek xoni Abulxayrga qarshi qo'zg'olon paytida yuz berdi. Yaxshi hayot izlash odamlarga "o'zbek-kazak" atamasini qo'shib qo'ydi, bu "erkin o'zbek" yoki "sargardonga ketgan o'zbek" degan ma'noni anglatadi. Oradan yuz yil o'tgach, O'rta Osiyo aholisiga nisbatan "o'zbek" atamasi qo'llanila boshlandi va G'arbiy Yetisuv hududida qolgan xalq qozoqlar deb atala boshlandi. 16-asr boshlarida qozoqlarga bir qancha turkiy qabilalar va ko'chmanchilar qo'shildi va ular nihoyat etnik guruhga aylandi. Bu qozoq xalqi etnogenezining yakuniy bosqichi edi.

Qozoq xalqining kelib chiqishi bronza davridan boshlangan. Bu davrda O'rta Osiyo hududida turli qabilalar joylashdilar. Ular Kavkaz xalqlariga asoslangan edi. Olimlarning fikricha, aynan shu yerda chorvachilik ko'chmanchiligi vujudga kelgan. O'sha davrda qozoq madaniyatining paydo bo'lishida sezilarli iz Andronovo qabilalari tomonidan bo'lgan. Qozog'iston hududida ularning ko'plab binolari va qabrlari saqlanib qolgan. Topilgan qozon va ko'zalarda esa qozoq gilamlarida uchraydigan naqshlarni ko'rish mumkin. Temir davrining boshida Qozog'istonda saklar, sarmatlar, usunlar va

kangyuylar yashagan. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, saklar o'z yerlari chegaralarini himoya qilib, forslar bilan astoydil kurashganlar. Turkiy qabilalar qozoq xalqi tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Usunlar va kangyuylarning birlashishi Qangyuylar davlatining paydo bo'lishiga va Sharqiy Turkistonning o'troqlashuviga olib keldi. Katta juzda Qanli va Sari Uysin urug'lari hozirgacha saqlanib qolgan. Temir davrining oxiriga kelib, qozoqlarning ajdodlarining ko'rinishi yevropacha bo'lib qoldi. Arablarning kelishi bilan islom dini islom taqvimi qatori o'troq qabilalar orasida ham tarqaldi. 6—13-asrlarda hozirgi Qozog'iston hududida yirik turkiy davlatlar vujudga keldi. Turgesh xoqonligi qudratli davlat bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan u Karluk va Qimak xoqonliklariga, shuningdek, O'g'uzlar davlatiga bo'linib ketgan. Ulardan keyin turkiy davlatlar orasida birinchi marta islom dinini qabul qilgan Qoraxoniylar davlati tashkil topdi.

11-asrda turkiy qabilalarning birlashishi Yevroosiyoning tarixiy mintaqasi - Desht-i-Qipchoq (Qipchoq cho'li)ning paydo bo'lishiga olib keldi. Rossiya tarixida u Polovtsian cho'li deb ataladi. O'sha davrda chorvachilik, dehqonchilik va shahar turmush tarzining rivojlanishi va o'zaro bog'liqligi qozoq etnik guruhining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy qozoqlarning paydo bo'lishiga Chingizxonning istilolari va Oltin O'rdaning paydo bo'lishi muhim hissa qo'shdi. Mo'g'uloid xususiyatlari tarqoq mo'g'ul qabilalarining turklar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq. Qozoq xalqi shakllanishining yakuniy bosqichi allaqachon yagona ko'rinishga ega bo'lgan turklarning barcha urug' va qabilalarining birlashishi bilan bog'liq. Bu Oltin O'rda parchalanganidan keyin 14-15-asrlar oralig'ida sodir bo'ldi. Undan keyin alohida davlatlar: Oq-O'rda, No'g'ay O'rdasi va O'zbek xonligi vujudga keldi. 1458-yilda o'zbek xoni hukmronligidan norozi bo'lgan Janibek va Kerey Sirdaryodan odamlarni Sharqiy Yetisuvga olib borib, o'sha yerda Qozoq xonligiga asos soladi. O'sha paytda allaqachon qozoq tili deb atalgan yagona til shakllangan edi. Xon Qosim boshchiligida qozoqlar No'g'ay O'rdasining poytaxti Saraichikni no'g'aylardan qaytarib olib, davlat hududini Irtishdan Uralgacha kengaytirdilar. 1521 yilga kelib qozoqlar soni million kishiga yetdi.

Qozoqlar kimlar? Bu qariyb ming yil davomida shakllangan o'ziga xos tili va madaniyatiga ega xalq. Vaqt o'tishi bilan ko'plab millatlar halok bo'ldi, ammo qozoqlar omon qoldi va katta salohiyatga ega davlatga asos soldi. Hozir Qozog'iston Respublikasida 18 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi va bu ko'rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda. Qadimgi Qozog'iston shaharlarining rivojlanishiga mamlakatning janubiy qismidan o'tgan Buyuk ipak yo'li katta ta'sir ko'rsatgan. Xitoy, Hindiston, Vizantiya va Forsdan yuk tashish, minglab karvonlar Qozog'istonda savdo-sotiqning rivojlanishiga, shahar hayotining gullab-yashnashiga hissa qo'shgan. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab karvonlardan tashqari minglab ko'chmanchilar: skiflar, bolgarlar, pecheneglar, hunlar, sarmatlar, avarlar va boshqalar o'tgan. Ular hunarmandlar, savdogarlar va yaxshi hayot izlayotgan har bir kishi bilan birga kichik qishloqlarga yugurdilar. Shunday qilib, kichik bir mashinalar to'xtash joyi qishloqqa aylandi va u to'liq shaharga aylandi. Shaharlarning o'sishi o'rta asrlar Qozog'iston madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. 5—10-asrlar davrida ko'chmanchi xalqlar soni ko'p bo'lganligi sababli an'ana va urf-odatlar turlicha bo'lgan. Shuning uchun yagona madaniyatning shakllanishi asta-sekin sodir bo'ldi. Yog'och, suyak va toshga o'ymakorlik, qurol-yarog' va temirchilik, zargarlik va kulolchilik rivojlangan. Yozuv aynan shaharlarda paydo bo'lgan. O'rta asrlardagi eng yirik qozoq shaharlari: O'tror, Talxiz, Signak, Sauran, Suzoq. Ular o'rta asrlarda Qozog'istonning savdo-iqtisodiy, siyosiy va strategik markazlari bo'lgan.

Semirechye — Qozog'istonning janubi-sharqiy qismi va shimoliy Qirg'izistonni o'z ichiga olgan viloyat. Bu erda o'rta asrlarda zamonaviy qozoqlarning madaniyati, hunarmandchiligi va ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan shaharlar paydo bo'ldi. O'sha davrning eng yirik shaharlari qaysilar edi? O'tror O'tror shahri haqiqatan ham ulkan edi: O'tror shahar atrofi bilan birga 200 gektar maydonni egallagan. U Aris va Sirdaryoning quyilishida joylashgan edi. Hozir bu yer O'tror vohasi deb ataladi. 10—12-asrlarda O'tror savdo-iqtisodiy markaz bo'lib, tom ma'noda yo'llar bilan o'ralgan edi. Ulardan keyin Kavkaz, Hindiston, Xitoy va Erondan karvonlar kelgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, shaharda Karfagen va Iskandariyadan qolishmaydigan kutubxona bo'lgan. Qazishmalar davomida

arxeologlar kulollar va g'isht kuydiruvchi pechlarning chorak qismini, suv quvuri ham topilgan. Mo'g'ul istilolari davrida O'tror olti oy qamalda edi. Ochlikka chiday olmay, xoin dushmanga darvozani ochdi. Mo'g'ul qo'shinlari qal'ani yana bir oy bosib ololmadilar. Oxir-oqibat, barcha himoyachilar halok bo'ldi va shahar butunlay vayron bo'ldi. Mo'g'ullar xoinning yordamini o'ziga xos tarzda qadrlashdi: uni Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jochi qatl qildi.

Qozoqlar uzoq vaqtdan beri Qozog'istonga qo'shni bo'lgan Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Turkmaniston, shuningdek, Mo'g'ulistonning g'arbiy hududlarida yashab kelishgan.

• Tarixan uchta yirik birlashma-juzdan iborat bo'lgan: Katta yuz, O'rta yuz va Kichik juz.

• Til - qozoq, turkiy tillar guruhining qipchoq kichik guruhiga kiradi

• Qozoqlar - turkiy kelib chiqishi, Turon irqiga mansub (Janubiy Sibir deb ham ataladi), Kavkaz va Mongoloid irqi o'rtasidagi o'tish davri hisoblanadi.

Hozirda Qozog'iston mamlakat hududidan majburan yoki ixtiyoriy ravishda chiqib ketgan yoki milliy-davlat demarkatsiyasidan so'ng uning zamonaviy chegaralaridan tashqarida qolgan etnik qozoqlarni vataniga qaytarish siyosatini olib bormoqda. Markaziy Osiyo, va ularning boshqa mamlakatlarda yashovchi avlodlari (bu atama ishlatiladi oralmanlar). Umuman olganda, so'nggi yigirma yil ichida, rasmiy hisob-kitoblarga ko'ra, Qozog'istonga 1 milliongacha etnik qozoq ko'chib kelgan. Hozirda dastur amalga oshirilmoqda "Nurli kosh" 2009-2011 yillar uchun, (so'zma-so'z tarjimasi "yorqin ko'chmanchi", "yorqin harakat"). Dastur Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2008 yil 2 dekabrda 1126-son qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu oqilona ko'chirish va joylashtirishda yordam berish bo'yicha davlat dasturi: etnik muhojirlar; uning hududiga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan Qozog'istonning sobiq fuqarolari; mamlakatning noqulay hududlarida yashovchi Qozog'iston fuqarolari. Qozoqlar soni va ularning Rossiya aholisidagi ulushi doimiy ravishda oshib bordi. Chegara hududlarda qozoqlar ixcham yashashiga qaramay, Rossiya Federatsiyasida qozoq tilida gazeta va jurnallar nashr etilmagan, qozoq tilida o'rta ta'lim ham yo'q, biroq qozoq tili o'qitiladigan bir necha o'nlab maktablar mavjud.

alohida mavzu sifatida. Astraxan viloyati Qozog'iston bilan eng faol hamkorlik qiluvchi Rossiya Federatsiyasining sub'ekti bo'lib qolmoqda, Oltoy o'lkasida faqat bitta maktab mavjud bo'lib, u erda Qozog'iston xalq ta'limi bo'limi dasturiga muvofiq qozoq tilida o'qitish olib boriladi.

"Qozoqlar" nomiga kelsak, Shakllanish Qozoq xalqi uzoq va qiyin davom etdi. Bu, aslida, uch ming yillik davom etgan mahalliy aholi va Qozog'iston hududiga kelganlar o'rtasidagi etnik o'zaro munosabatlar jarayoni edi. Bir paytlar bizni deyarli qipchoqlar, keyin esa o'zbeklar deb atashardi, lekin tarix boshqacha qaror qilgan. Eslatib o'tamiz, Turk xoqonligi xarobalarida tashkil topgan butun chiziq davlat tuzilmalari. G'arbda (Kavkaz va G'arbiy Kaspiy dengizi) — Xazar xoqonligi, Volga bo'yida — Bulgarlar davlati, hozirgi Qozog'iston hududida esa uchta davlat: o'g'uzlar — Sirdaryoda, Karluklar - Jetisda va kimeklar - Irtish havzasida. Sharqda Yeniseyda Qirg'iz davlati, Mo'g'uliston hududida esa Uyg'ur xoqonligi vujudga keldi. Bu shakllanishlarning barchasi qadimgi turkiy an'analarni - siyosiy, ijtimoiy va madaniy an'analarni davom ettirdi.

Bu davrda Markaziy Qozog'iston hududida o'rnashgan qipchoqlar va Janubiy Ural, 9-asrda Sharqiy va Markaziy Qozog'iston hududida tashkil topgan Kimek xoqonligiga siyosiy qaram bo'lgan. Bu holat 11-asr boshlarigacha davom etib, qipchoq hukmdorlari hokimiyatni qo'lga kiritib, o'z davlati – Qipchoq xonligini tuzgan paytgacha davom etdi. Ya'ni, ular kimek davlatining vorislari bo'lib chiqdi. O'sha paytda "Kazak" nomini faqat uchta qozoq juzi emas, balki boshqa qabilalar ham olgan. Ularning ko'pchiligi o'troq hayotga o'tib, turli hududlarga o'rnashib, no'g'ay, bir qismi boshqird, bir qismi esa o'zbek va sart deb atala boshlagan. Oxir-oqibat, "Kazak" nomi biz bilan birga qoldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дониёров А. Х. Марказий Осиё халклари этнографияси, этногенези ва этник тарихи фанидан таълим технологияй / Услубий кулланма. Марказий Осиё халклари тарихи сериясидан. - Тошкент, 2010. - 144 б.
2. Жабборов И. М. Жахон этнологияси асослари. - Тошкент, 2005. 32. Жилище народов Средней Азии и Казахстана. - М., 1982.
3. Занятия и быт народов Средней Азии // СЭС. -М -Л ., 1971.
4. Зиёдов З. Туркий кавмлар. - Тошкент, 2008. 35. Из истории Средней Азии и западного Туркестана XV-XIX вв. - Ташкент, 1987.
5. <https://gigafox.ru/uz/management-of-pregnancy/proishozhdenie-kazahov-i-simvoly-kazahstana-proishozhdenie-kazahov/>

**MAKTABDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Yunusova Sayyora Odiljon qizi, Fayziyeva Zubayda Salimovna*

*Toshkent shahar Yunusobod tumani 235-sonli maktabning*

*Biologiya fani o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari, biologiya ta'limi, hujayra, to'qima, kimyoviy elementlar.

Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta'limiy vazifasi - o'quvchilarga o'rganiladigan mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to'g'risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi.

2. O'quvchilarning o'quv faoliyatini yo'naltirish vazifasi — o'quvchilar axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan ta'lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animatsiyalar vositasida ishlash barobarida, mazkur dasturlar o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni O'quvchilarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo'naltiradi.

3. Ko'rgazmalilik vazifasi — boshqa o'qitish vositalaridan farq qilib, axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan animasiyalar o'quvchilarni biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o'qitish jarayonida o'rni beqiyos.

4. Nazorat vazifasi — biologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, biologiya darsining barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi.

5. Rivojlantiruvchi vazifasi — o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarni bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi, fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratib shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

6. Tarbiyaviy vazifasi — o'quvchilar axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

7. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish vazifasi - tabiat va undagi obyektlarni o'rganish 2 olam: makro va mikroolamga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikroolam: hujayra, to'qimalarda boradigan jarayon, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir o'quv materiallarni animasiyalar orqali o'rganib, abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarash rivojlanadi va pirovard natijada kengayadi. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va



individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin: 1. Har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni taqdimot materiallari. 2. Biologik jarayonlarning animasiyasi. 3. Virtual laboratoriya va amaliy ishlar. 4. Ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya. 5. Biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturi. 6. Biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari. 7. O'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari. 8. O'quvchilarning mustaqil tahsili va ishi uchun o'quv-axborot saytlari. 9. Didaktik o'yinga asoslangan animasiyalar. 10. Qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi biologiyani o'qitishda tabiiy vositalar muhim o'rin tutadi, lekin tasviriy vositalarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.

O'qituvchi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalarining mahsullari bo'lgan elektron darslik, versiya va multimediyalarni o'rganishi va ularni tahlil etish natijasida mavzuning didaktik maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari, ta'limiy, modellashtirilgan va nazorat dasturlar, multimediyalardan foydalanish yo'llarini belgilashi zarur. Buning uchun mazkur axborot texnologiyalari mahsullaridan biologiya darslarida foydalanish yo'llarini aniqlash, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llarini ishlab chiqishi lozim. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish dolzarb muammo sanaladi. Shu sababli axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun uning didaktik funksiyalarini aniqlash zarurati vujudga keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. N. Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya, 2003.
2. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007.

**INFORMATIKA INSON TARAQQIYOTINING ASOSIDIR. KASB-HUNAR  
MAKTABLARIDA INFORMATIKA DARSLARIDA O'ZLASHTIRISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH.**

*Saida Djumaniyazova Saparbayevna*

*Qoraqalpog'iston respublikasi Kasbiy ta'limni  
rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi*

*To'rtko'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi*

*Informatika va axborot texnologiyasi fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Informatika inson taraqqiyotining asosidir Kasb-hunar maktablarida Informatika darslarida o'zlashtirish samaradorligini oshirish" haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Informatika metodlari, dars texnologiyasi, AKT, Individuallik.

Informatika darslarida o'zlashtirish samaradorligini oshirish yo'nalishining istiqbollari va rivojlanishi bilan bir qatorda hozirgi kunda informatika fanini o'qitishning talablari, mazmuni hamda shakllari ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda o'quvchilar informatika darslaridan tashqari kompyuterda ishlashi uchun juda ko'p imkoniyatlarga egadirlar, bular ayrim texnologiyalarga ixtisoslashgan to'garaklar, kompyuter klublari, kompyuterning uyda mavjudligi. Bunday faoliyat yo'naltirilib, aniq tashkil etilmasa, nomaqbul natijalarga olib kelishi mumkin:

❖ O'quvchilarda informatika fanidan o'z bilim darajalari xususida noto'g'ri fikr shakllanishi mumkin. Umuman o'quvchilar "Informatika" hamda "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fanlarini vazifalarini aniq ajrata olmaydilar;

❖ informatika darslarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilar doim ham qo'llay olmaydilar. "Informatika va AKT" bu turli soxalarda biror bir maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan vosita degan tushuncha xali o'quvchilarda shakllanmagan;

❖ bolalarning yosh xususiyatlariga qarab har xil yoshdagi o'quvchilarning kompyuterda ishlash uchun psixologik tayyorgarligi turli bo'ladi.

Axborot madaniyatini to'liq o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish xozirgi zamon talablaridan biridir. Informatika va AKT o'qituvchisining maqsadi axborot jamiyatida yashay oladigan shaxsning shakllanishiga o'z xissasini qo'shish.

*Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:*

3- o'quvchilarda axborot madaniyati elementlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

4- mustaqil bilim olish hamda o'z ustida ishlash malakalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

5- informatika va AKTni o'qitishda fanlararo bogliqlik;

6- iqtidorli o'quvchilarni aniqlash uchun shart-sharoit yaratish.

Informatika fanini o'qitish shakllari.

***O'qitishning umumiy shakllarini quyidagilarga ajratish mumkin:***

- *frontal o'qitish*
- *jamo bo'lib o'qitish*
- *guruhlarga bo'lib o'qitish*
- *juftlikda ishlash*
- *individual o'qitish*

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarini o'qitishning umumiy shakllarini ajratishda o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi orasidagi kommunikativ aloqa xususiyatlariga asoslanilgan.

Frontal o'qitish — o'qitishning an'anaviy turlaridan biri xisoblanib, o'qituvchi butun guruh bilan yagona mazmun, maqsad va vazifalar asosida ish olib boradi. Ushbu o'qitish shaklidan suhbat, korgazmalilik, amaliy metodlarni qo'llashda hamda o'quvchilar bilimni nazorat qilish jarayonida foydalaniladi.

Jamo bo'lib ishlash — o'qitishning frontal shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda sinf o'quvchilariga o'z liderlari va o'zaro aloqa qilish xususiyatlariga ega bir butun bir jamoa deb qaraladi.

Guruhlarga bo'lib ishlash – o'quvchilar turli muddatga shakllangan guruhlarga bo'linadi. O'qitishning bu shaklidan yangi dasturiy vositalarni o'rganishda, loyihalar utida ishlashda, kompyuterlar soni yetarli bo'lmaganida foydalanish mumkin. Guruhlarga bo'linib ish olib borilganda, guruhlar ichida jadal axborot almashish amalga oshiriladi. Shuning uchun, guruhlar turli bilim darajasiga va qiziqishiga ega o'quvchilardan shakllantirilishi zarur. Turli bilim darajasidagi o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish natijasida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

Juftliklarda ishlash – o'quvchilar juftliklarga bo'linib, yagona bir vazifani hal qilish maqsadida o'zaro o'rganish, o'zaro nazoratni amalga oshiradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda o'quvchiga sinfdoshining yordami o'qituvchining yordamidan ko'proq samara berishi mumkin.

Individual ishlash – o'qituvchining bir o'quvchi bilan o'zaro aloqasi (repetitorlik, tyuterlik, konsultatsiyalar berish va boshqalar)undan tashqari Kasb-hunar maktablarida Informatika darslarda har bir o'quvchining individual faoliyatini boshqarish murakkab jarayondir. O'qituvchi ushbu faoliyatni samarali boshqarishi uchun o'z pedagogik tajribasini yo'naltirib, o'rgatuvchi dasturlar, mavjud dasturiy vositalar hamda axborot resurslaridan dars jarayonida foydalanishi zarur. Kasb-hunar maktablarida Informatika individual o'qitishning yangi bir turi "o'quvchi va kompyuterni shakllantiradi. Kasb -hunar maktablarida o'quvchi kompyuter bilan yakka yakka qolib, o'zi uchun o'quv materialini o'zlashtirishning individual rejasini ishlab chiqadi.

*Kasb-hunar maktablari o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri bu o'quvchida mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish.*

Namoyish. O'qituvchi ekranda o'quvchilarga kurs mazmunining turli elementlarini namoyish etadi: interfeys, dasturlar, sxemalar, matnlar, rasmlar va boshqalar. O'qituvchi ekran yordamida kompyuterda turli vazifalar bajarilishini ko'rsatadi, o'quvchilar o'z kompyuterlarida bajaradilar. Namoyishning asosiy funksiyasi – o'quvchilarga yangi o'quv axborotni yetkazish. Laboratoriya ishi (frontal)informatika kabinetida ishlashning asosiy shakllaridan biri. Barcha o'quvchilar o'z ish joylarida tegishli dasturiy vositalar bilan ish olib boradilar.

Shuningdek o'quvchilar sinxron tarzda turli dasturiy vositalar bilan o'quv faoliyatini olib borishlari mumkin. Frontal laboratoriya ishi jarayonida o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning ishlarini kuzatish (jumladan lokal tarmoq orqali) hamda ularga amaliy yordam berish. Foydalanilayotgan dasturiy vositalarning didaktik vazifasi turli bo'lishi mumkin: yangi materialni o'zlashtirish (masalan, o'rgatuvchi dasturlar orqali), yangi mavzuni mustahkamlash (masalan, trenajer dasturlar yordamida), olingan bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish (nazorat dasturlari yoki testlar orqali). Individual amaliyot frontal laboratoriya ishidan darslik, qo'shimcha materiallar, Internet resurslariga tayangan holda olib borilishi, mashqlarning murakkablik darajasi bo'yicha ko'p turliligi bilan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. To'raqulov X.A., Fayzimatov B.N., Ubaydullaev S., To'raqulov O.X., Hamidov J. A. «Texnika fanlarini o'qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy -pedagogik asoslari» o'quv qo'llanma. -Farg'ona. «Texnika». 2003.
2. Taylaqov N.I. Mallaev Z. Kasbiy ta'lim uchun axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv adabiyotlarini yaratish. "Kasbiy ta'lim muammolari" Respublika ilmiy -amaliy konferentsiya materiallari. Samarqand 24-25 aprel. 49-50 betlar.
3. Shodiev N. Sh. «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.
4. H.Egamov Buyoqlar bilan ishlash. –T.: O'qituvchi, 1981. 116 bet.
5. S.I. Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash . -T.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN  
TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI VA SINFDAN TASHQARI  
ISHLARNI TASHKIL ETISH**

*Baltashova Muqaddes Qallibek-qizi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich talim fakultetining 3-bosqich talabasi*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar, ularning ahamiyati, sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga bolgan qiziqishini oshirish bo'yicha va boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining o'rnini haqida toxtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, matematika, dars, sinfdan tashqari ish, pedagog, metodika.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda tasirchan va his tuygularga boy boladi. Ular asosan oyin bolalari hisoblanadi. Ular bilan sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda ish olib borish yaxshi samara beradi. Boshlang'ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratiladi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yonaltirilgan boladi. 6-10 yoshli bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida masul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan.

Vatanimizning kelajagi bolgan yosh avlodni bilimli, qobiliyatli, har tomonlama yetuk bolib oshishida boshlang'ich talim fundament vaziyfasini o'taydi. Barchaga malum fundament qanchalk yaxshi qurilsa, imorat shunchalik mustahkam boladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ham asosiy maqsadi-o'quvchilarining bilimli va fikrlash qobiliyatining keng bolishini taminlash bolib hisoblanadi. Bolaning ongi endi

rivojlanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda oqituvchining chevarligi, uning zamonaviy texnologiyalarni talim jarayonida foydalana olishi, yoqori pedogogik tajriyalaridan oqilona foydalanishi, talim berishning yangi usullaridan foydalanishi asosiy ahamiyatni kasb etadi. Sónigi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika óqitish, ayniqsa, boshlang'ich tálím tizimida óz kólami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bólган ózgarishlarni amalga oshirdi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini oqitish jarayonida oquvchilarning aktivligini oshirish va matematika faniga bolgan qiziqishini yanada rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari ishlar tashkillashtiriladi. Bu oquvchilar bilan aloxida ishlashga va ularning bilimlarini baholashda yaqindan yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda matematika faninidan óquv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quydagi turlari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. Óquvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.
3. Matematikaga qobiliyatli óquvchilar bilan ótkaziladigan mashg'ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.
5. Óquvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya .

Bu yerda sanab ótilgan ish shakllari va dars bir-birini tóldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita oqituvchi rahbarlik qiladi. Qóshimcha mashg'ulotlarda esa ish óqituvchining ózi tomonidan yoki óqituvchi rahbarligida oquvchilar tomonidan bajariladi. Biz hozir óquv ishini tashkil etishning darsdan tashqari shakllaridan biri bólган sinfdan tashqari ishlar haqida toxtab ótamiz.

Matematikadan "sinfdan tashqari ish" deyilganda oquvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bólган material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishlar oquvchilarning matematika fanidan bilimlarini shuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechish bilan shug'illanish, matematikaning hayot bilan bog'liq bólган taraflarini ochib beradigan va dasturga kirmagan ayrim savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: matematik tógaraklar, olimpiadalar,

matematik ekskursiyalar, qiziqarli matematik kechalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil etish. Sinf dan tashqari ishlarni tashkil etish orqali quyidagilar amalga oshiriladi: o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirish, bilimlarni va amaliy konikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyishqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinf dan tashqari ishlar darsga nisbatan bazi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

- O'z mazmuni boyicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bolishi kerak.

- Sinf dan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni taminlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qoyilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

- Sinf dan tashqari ishlarimkoni borichabarcha o'quvchilarni jalb qilishi, yani qiziqarli bolishi zarur. Past ozlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

- Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha moljallangan bolishi mumkin.

- Sinf dan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi.

Sinf dan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, otkir zehinlilikka oid masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar, tarixiy malumotlar berish va boshqalar kiradi. Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik 10 minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika togaraklari, olimpiadalar, viktorinalar, tanlovlar.

Sinf dan tashqari ishlarni tashkillashtirish orqali biz oquvchilarning fanga bolgan qiziqishini orttirishimiz mumkin. Sinf dan tashqari ishlar asosan ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanib tashkillashtiriladi. Ammo barcha o'quvchilarni qiziqtirish oqituvchining maxoratiga bogliq boladi. Sinf dan tashqari ishlarni tashkillashtirish davomida barcha



óquvchilarni jalb qilishga harakat etishimiz zarur. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va ótkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Sinfdan tashqari ishlar óquvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

2. Darsda óquvchilar olgan bilim, malaka va kónikmalarini hisobga olgan holda ótkaziladi.

3. Sinfdan tashqari ishlarni ótkazish shakllari darsdan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bóladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, ótkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkabligidadir.

Biz sinfda yoki sinfdan tashqari vaqtlarda matematika fanidan darslarning samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanishimiz, qiziqarli tarixiy hikoyalar, olimlarning ijodi va hayotidan yangiliklar bilan boyitib borishimiz mumkin. Mashg'ulot ótkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masala tuzishga oid masalalar, qiziqarli topishmoqlar, rebuslar va boshqalar material bolib xizmat qiladi.

Matematikadan tizimli olib boriladigan, sinfdan tashqari ishlarning eng kóp tarqalganidan bir bu – matematik tógarak bolib hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziqish kórsatgan óquvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematika tógaragini ótkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

Matematik tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar bólib hisoblanadi. Asosan óquvchilarning xohishi bóyicha masalalar yechishda óz kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok etadi. Tanlov mavzusi va uni ótkazish vaqti oldindan belgilanadi.

Matematik olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng kólamda ótkaziladigan va matematika organishda óquvchilar erishgan muvaffaqiyatlarini namoyish qiladigan ishdir. Olimpiada ishtirokchilarining tarkibiga bog'liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda ótkazish mumkin.

Bulardan boshqa biz qiziqarli matematik soatlar tashkil qilishimiz va qiziqarli masalalar, rebuslar, krasvordlar bilan ishlashimiz, oquvchilar bilan birga ekskursiyalar tashkil qilib tarixiy muzeylarga sayohat qilishimiz, har xil mavzularda matematik oyinlar, matematik viktorinalar, devoriy gazetalar ishlashimiz mumkin. Bularning barchasi oquvchilarning darsga, fanga bolgan qiziqishini oshirishga katta hissa qoshadi.

Xulosa qilib aytadigan bolsam, matematika barcha fanlarning asosi bolib hisoblanadi. Boshlang'ish sinfdan boshlab bolalarga bu fanni chuqur ózlashtirishiga yordam berishimiz lozim. Bunda sinfdan tashqari ishlar bizga asosiy yordamchi bolip xizmat qiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tez-tez tashkil etish oquvchilarning salohiyati va ziyrakligini oshirishga yordam beradi. Boshlang'ish sinf bolalarining matematikaga nisbatan tóplangan qiziqishlari juda baland boladi. Boshlang'ish sinflarda har bir mavzu rasmlar, audiolar, zamonaviy multimedialar, slayd va videoroliklar bilan olib borilishi lozim. Buning uchun har bir pedagog oqituvchi zamon talabiga mos ravishda zamonaviy innovacion texnologiyalardan foydalana olishi, izlanuvchan va talabchan bolishi darkor. Chunki, hozirgi bolalar har kuni yangi texnologiyalarni, innovაციyalarni korib ósayotgan XXI asr farzandlari hisoblanadi. Demak, biz bolajak pedagoglar hozirdan boshlab óz ustimizda ishlashimiz, har bir metodlarni chuqur ózlashtirishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva, Boshlang'ich sinflarda matematika oqitish metodikasi, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005
2. M.E. Jumayev, Matematika oqitish metodikasidan praktikum, Toshkent, "Óqituvchi", 2004
3. <https://lex.uz>

**BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA TA`LIM-TARBIYA BERISHDA  
ERTAKLARNING O`RNI**

*Kalbaeva Gulchexra Polat qizi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,*

*Boshlang`ich ta`lim fakulteti, 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim-tarbiya berishda qanday ertak turlaridan foydalanish, ularning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati, bolalarni ertak o`qishga va ulardan to`g`ri xulosa qilishga o`rgatish usullari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Ertaklar, ezgu faziylatlar, yaxshilik va yomonlik, bir haftada bir ertak, ertaklar yaxshilikka yetaklaydi, eng ko`p ertak o`qigan o`quvchi, hafta ertakchisi

Xalq og`zaki ijodining ertak janri bolalar tarbiyasida o`zgacha ahamiyatga ega. Ulardagi yomonlik ustidan yaxshilikning g`alaba qozonishi bolalarni hamisha ezgulik tarafdori bo`lishga chorlaydi. Boshlang`ich sinf rahbari o`z sinfidagi bolalarga haftada bir kun bitta ertak kitobdan o`qib berib mazmunini, ertakdan olgan xulosalarini so`rab, "Ertaklardan o`rganganlarim" nomi ostida qo`shimcha dars tashkil qilib, ularni to`g`ri baholasa maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki, bunday darslarda bolalar erkin bo`lishadi va o`zlarining ertak asosida tushinganlarini aytib o`tishadi. Bu bolalarning o`z fikrini erkin bayon qila olish ko`nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda, yaxshilik qilsak hamisha yaxshilik qaytishini tushinishadi. Ushbu darsta o`qituvchi barcha bolalarning fikrini eshitib, o`zining yakuniy xulosasini aytib o`tadi va bolalarga ertak qahramonlarining qilgan harakatlari to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligi, yoki o`zlari shu holatga tushganlarida qanday yo`l tutishlarini so`rab savollar beradi. Bolalardan javoblarini eshitgandan so`ng, ertak asosida sahna ko`nishini sahnalashtirishadi. Bu orqali ertakning bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishini taminlashga erishish mumkin.

1-2-sinf o`quvchilari bilan ishlaganda ertaklarni o`qituvchining o`zi o`qib berib, ulardan fikrlarini so`rganlari maqul. Sinfda bu kabi darslarni tashkil qilibgina qo`ymay, ota-onalar bilan bolalar orasidagi munosabatlarni yanada yaxshilash, ularning farzadi tarbiyasiga e`tiborini yanada kuchaytirish maqsadida, ushbu qo`shimcha darsda uyga vazifa sifatida ota-onalaringiz bilan birga bitta kitobni o`qing va undan to`g`ri xulosa chiqarib, sinfda kelasi darsda sinfdoshlaringizga so`zlab berishga tayyorlanib keling kabi topshiriqni berish kerak. Buning natijasida bola uydagi bo`sh vaqtini ota-onasi bilan birga maroqli o`tkazish bilan birga o`z bilimini ham boyitishga erishish mumkin.

3-4-sinfga qadam qo`yganda esa, bu darsning mazmuniga biroz o`zgarishlar kiritish kerak. O`qituvchi sinfda kitoblarni o`qib berishga vaqt ketqazmagan, bolalarning har biriga bir-birini takrorlamaydigan ertaklarni topshiriq qilib berishi kerak. Ular uyida ota-onalari bilan birga kitobni o`qib, ertasi kuni sinfda bir-birlariga aytib berishadi. Bir-birini takrorlamaydigan birqancha ertakning mazmunini bolalar bir kunda bilib olishadi. O`qituvchi esa, bolalarning chiqargan xulosasini eshitishi va ularga o`zi ham qo`shimcha qilishi kerak.

Bolalarni baholashga keladigan bo`lsak, ularning hech birini e`tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ularni har xil nominatsiyalar bilan mukofotlab, eng ko`p kitob o`qigan o`quvchilarga qo`shimcha sovg`a sifatida oldin o`qib chiqmagan ertak kitobini sovg`a qilsa bo`ladi. Hafta davomida o`zining namunali xulqi va xulosalari bilan faol qatnashgan o`quvchilarni ham kitob bilan mukofotlash to`g`ri bo`ladi.

Ertakni o`rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

a) o`quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

b) o`qituvchining ertakni ifodali o`qishi, yod aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o`quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o`tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo`lib o`qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma`nodosh so`zlarni topish, lug`at ishi (ayrim so`zlar ma`nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o`qish);

5. Ertakni so'zlab berish;
6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
7. Ma`lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
8. Vazifani tekshirish va yakunlash;
9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi o`z mahoratidan foydalanib, bolalarga to`g`ri o`qishni va xulosa qilishni o`rgatishi zarur. Chunki, bolaning kelajakda yaxshilik yo`lidan yurishi maktabdagi ilk ustozining bergan bilimi, tarbiyasi va e`tiboriga ham bog`liq. Ertaklar – yaxshilikka yetaklar. Shu sababdan, bolalarga ko`proq ertak o`qib bering va ularni yaxshilikka boshlang.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. G'ulomov, Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari, Toshkent, 1992
2. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva, Sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlari, Toshkent, 1997.
3. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, SH. Yo`ldosheva, SH. Sariyev, Ona tili o`qitish metodikasi, Toshkent, 2009

**BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHLARINING KREATIVLIGINI OSHIRISH**

*Turaeva Nasibaxon Xalimjonovna*

*Farg`ona viloyati Dang`ara tumani 30- umumiy o`rta talim maktabi*

*Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining lug`atlar bilan ishlash jarayonida kreativligini oshirishning usullari va metodikalari to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** kreativlik, imloviy lug`at, nutq, imloviy savodxonlik, qunt, nutqiy leksikografiya, ibora, leksikologiya, atama, tasviriy ifoda.

Bugungi kunda ta`lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri, bu o`quvchilarning har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o`rinda boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativligini oshirishda, asosiy ustuvor usullardan ongli o`qitish, nutq madaniyatini o`stirish, yozma va og`zaki nutq mashqlarini uyg`un holatda olib borishdir. O`z navbatida lug`atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug`atlar bilan ishlash o`quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so`z boyligini orttiradi, o`quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Tildagi jamiki so`zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug`atshunoslik o`rganadi. Lug`atlar qadimdan yaratilib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg`ariy tomonidan XI asrda yaratilgan “Devoni lug`atit-turk”, XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug`atlari tarixda bizga ma`lum. So`z tilning ma`no bildiradigan asosiy birligidir. So`z va so`z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo`lgan barchaso`z va iboralarning yig`indisi lug`lat tarkibi yoki leksiko deyiladi. Leksikologiya o`zbek tilining lug`at tarkibini o`rganadigan bo`limdir. Leksikologiya lug`at tarkibidagi so`zlarning nutqda ma`no ifodalash xususiyati, qo`llanish faolligi, boyib borishi, ba`zi so`zlarning eskirib, iste`moldan chiqib ketishi, ma`no ko`chish

hodisasi kabilarni o`rganadi. Shu sababli ham leksikologiya lug`at ustida iqlash metodlarining lingvistik asosi hisoblanadi. Kishining lug`at boyligi qanchalik boy va rivojlangan bo`lsa, uning nutq ham shunchalik boy bo`ladi, o`z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug`atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o`stirishning muhim sharti hisoblanadi. O`quvchi lug`atining boyishiga birinchi navbatda, uni o`rab ilgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o`qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo`lgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo`lishi natijasida so`z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so`zlarni o`rganadi, ularni o`z so`zlariga aylantiradi.

Boshlang`ich ta`limda lug`at ustida ishlashning umumiy yo`l- yo`riqlari, yo`nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo`lsada, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo`lmaydi. Lug`atlar ustida ishlash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. O`quvchilar barcha predmetlarni o`rganishda, asosan, ona tili va o`qish darslik materiallarini o`rganish bilan bog`liq holda olib boradi. Ona tili hamda o`qish darslarida lug`atustida ishlash o`quvchilar nutqini o`stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so`z boyligini boyitishga nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish 1-sinfdanoq boshlanadi va butun o`quv jarayonida davom ettiriladi.

Lug`at- imlo savodxinligini oshirish, so`z boyligini kengaytirishning muhim manbaidir. Maktabda o`quvchilarning nutqiy kreativligini oshirishning muhim vazifalaridan biri lug`at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo`nalishlarini ajratish va asoslash, o`quvchilarning lug`atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Lug`atlardan foydalanish va ular ustidan ishlash malakasini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki, ehtiyoj sezilmasa, o`quvchi lug`atlarga murojaat qilmaydi. Ma`lum bir so`zning imlosi, ma`nosi, ma`nodoshi, qarama-qarshi ma`nosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining lug`atlar ustida ishlash jarayonida kreativligini oshirish uchun quyidagi metodlarni qo`llash yaxshi samara beradi:

Badiiy asar o`quvchilar nutqini oshirish uchun eng muhim va ishonarli manbadir. O`qituvchi hafta davomida o`quvchilarga turli ertaklarni o`qittirib, notanish bo`lgan so`zlarni ajratib, uning ma`nosini tushintirishi va kelasi badiiy asarni o`qilguncha bu so`zlarni yozdirib yodlattirishi zarur. Chunki, bolalar o`zbek tilini yuksak badiiy obrazlar orqali o`zlashtiradilar.

O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

- so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

- so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

- ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faolyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi. O`quvchilarning so`z boyligini takomillashtiruvchi va boyituvchi vositalardan biri bu atrof- muhitdir. Shuning uchun darsdan tashqari holatlarda o`quvchilarni turli ekskursiyalarga olib chiqish juda katta ahamiyatga egadir. Chunki, tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsava hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.



Dars davomida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Bunda o`qituvchi dars davomida turli xil video va audio matnlardan foydalanishi mumkin. Masalan o`qish darsini oladigan bo`lsak, darslikda berilgan har bir hikoya va ertakni audiosi yoki video variantlarini o`quvchilarga qo`yib berishi, hamda bu matnni kitoblardan foydalanmagan holda o`quvchilardan gapirib berishlarini so`rash, zarur dars oxirida esa matnda uchragan notanish so`zlar ustidan ishlash, ularning ma`nolarini tushintirib berish zarur.

Turli xil didaktik o`yinlardan foydalanish.

Didaktik o`yinlar o`quvchilarning kreativligini, reaksiyaviyligi hamda zukkoligini o`stiruvchi eng asosiy vositadir. Shuningdek lug`atlar ustida ishlash jarayonida ham didaktik o`yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: “Kim ko`p aytadi” didaktik o`yini o`ylaylik. Bunda o`qituvchi ona tili darslarida har bir dars davomida o`zlashtirilgan so`zlar yuzasidan musobaqa uyishtiradi. Bu o`yinda barcha o`quvchilar ishtirok etadilar. Har bir dars davomida o`zlashtirilgan so`zlarni o`quvchilar bittadan aytadilar. Kimki ayta olmay to`xtab qolsa o`yindan chetlashtiriladi. O`yin davomida qaysi o`quvchi oxirigacha qolsa, ya`ni so`z ayta olmay to`xtab qolmasa o`sha o`quvchi lider deb topiladi.

Lug`at diktantlaridan foydalanish.

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun lug`at diktantlari mavjud. O`qituvchi darsdan tashqari vazifa sifatida o`quvchilardan 10-15 ta so`z yodlab, uning yozilishi va talaffuzini o`rganib kelishini talab qiladi va haftada ikki marotaba bu so`zlardan lug`at diktantini oladilar. O`qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlarda) muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin.

Maxsus mashqlar, grammatika va imloni o`rganish darslarini tashkillashtirish.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslar ko`p o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi,

so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi. O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi. Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'zlarni ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshiyordamida tushuntirish. Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

So'zni o'ziga yaqin tushuncha boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Masalan, o'zboshimchalik-o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis - biror hunar egasi; shunqor- uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh-mol terisidan tikilgan idish; guldon - gul solib qo'yiladigan idish va boshq. Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq — suvsiz joyda o'sadigan tikanli o'simlik; akula okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi. Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug'atlar bilan ishlash, o'quvchilarga so'z ma'nosini tushuntirish o'quvchilarning lug'at boyligini orttiradi, duny qarashini kengaytirib, ularning kreativligini rivojlantiradi. Lug'at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borish zarur. Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat'iy reja

asosida izchil amalga oshirilsa, o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G`ulomova,
2. Sharofat Yo`ldasheva, Sharofjon Sariyev “Lug`at ustida ishlash metodikasi”
3. “O`zbek tili fanidan lug`atlar ustida shlash orqali talabalarning so`z boyligini oshirish” metodik ko`rsatmasi. Toshkent-2005
4. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000- yil

OLMANING ZARARLI ORGANIZMLARIGA QARSHI KURASH  
USULLARI

*Abdulvohidova Mahliyo*

**Annotatsiyasi:** O'simliklar dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, qishloq daraxti olmaning xam zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan ximoya qilish dolzarb mavzu xisoblanadi. Ushbu maqola olmaning kelib chiqish tarixi, foydali xususiyatlari, zararli organizmlar (zararkunanda, kasallik va begona o'tlar) iga qarshi kurash usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalitso'zlar:** Olma, olmaning foydali xususiyatlari, olma zararli organizmlariga qarshi kurash usullari.

**Olma** (Malus) — ra'nodoshlar oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi; urug'li meva daraxti. Shimoliy va janubiy yarim sharning mo'tadil mintaqalarida olmaning 25— 30 turi, jumladan, O'rta va Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo va Kavkazda 10 turi tarqalgan. Ekiladigan mevali daraxtlar orasida maydoni jihatidan birinchi o'rinda turadi. Yalpi olma hosili bo'yicha AQSH (4,8 mln. t), Xitoy (22,01 mln. t) oldingi o'rinlarda turadi (1999). Jahon bo'yicha yalpi hosili 60,2 mln. t ni tashkil etadi (1999). O'zbekistonda —0,4 mln. t. AQSH, Chili, Xitoy, Rossiya, Eron, Turkiya, Fransiya, Italiya mamlakatlarida olmozorlar katta maydonlarni egallaydi. Shuningdek O'zbekistonda 2017-2019-yillarda uzumni keyingi eng ko'p yetishtirilgan meva hisoblanadi.<sup>[1]</sup> O'zbekistonda 8 turi yovvoyi holda uchraydi (qarang yovvoyi olma). Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan navlarining asosiy qismi xonaki olma turiga kiradi. Past bo'yli olma turiga kiradigan dusen va paradizkadan mevachilikda payvandtag sifatida foydalaniladi. Olma sovuqqa chidamli, yorug'sevar va namsevar, tuproq tanlamaydi, lekin unumdor tuproqlarda yuqori hosil beradi. Olma daraxti bo'yi 15 m gacha boradi. Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishda ekilgan „Fuji“ olmalari mart oyining oxirida ildiz o'sishi kuzatilgan. O'zbekistonda olma aprel oyida gullaydi. Guli 5 bo'lakli, gultojibargi oq, pushti, ayrimlari qizil. Mevasi, naviga qarab, iyun— oktabrda pishadi.

Bir dona mevasi vazni 15 g dan 400 g gacha boradi. Tarkibida (%) fruktoza 6,5—11,8, saxaroza 2,5—5,5, organik (olma va limon) kislotalar 0,2— 1,6, vitamin S 5-30 mg, pektin, oshlovchi moddalar va boshqa mavjud. Mevasi yangiligida yeyiladi, qoqi, konserva, murabbo, jem qilinadi. Olma urug‘idan hamda payvandlash, parxish qilish yo‘li bilan ildiz bachkilaridan ko‘paytiriladi. Hosildorligi 130—300 s/ga. Daraxti 100 yilgacha yashaydi. Odatda, bog‘ga o‘tqazilganidan keyin 4 yil o‘tgach, hosilga kiradi. 40—50 yil mo‘l hosil beradi. Ko‘chatlari kuzda va bahorda 30—60 sm chuqurlikda haydalgan yerga ekiladi. Ko‘chat o‘tqaziladigan chuqurga 5-6 kg chirigan go‘ng, 150 g ammiakli selitra, 200 g superfosfat tuproqqa aralashtirib solinadi. Ko‘chatlar 8×8m, 8x6 m, past bo‘yli payvandtaglarga ulanganlari 4x6 m, 3X5 m, 4x4 m sxemada ekiladi. Yosh daraxtlar 8—12-marta, hosilga kirganlari 4—6-marta sug‘oriladi, tup va qator oralari yumshatib turiladi. Hosilga kirgan olmalar gektariga har uch yilda 20—40 t chirigan go‘ng va har yili sof holda 120 kg azot, 60-90 kg fosfor, 30 kg kaliy hisobidan o‘g‘itlanadi. Daraxtlar har yili kuzda va bahorda butaladi (qarang butash, daraxtlarga shakl berish). O‘rta Osiyoda ekiladigan olma navlari kelib chiqishi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi: xalq seleksiyasi yo‘li bilan yetishtirilgan O‘rta Osiyo mahalliy navlari — oq olma, qizil olma, Samarqand olmasi, Namangan olmasi, achchiq olma, qimizak olma, Xorazm olmalari guruhi va boshqa olma.

Daraxtlar dunyosining xar bir turi vakillarida bo‘lganidek, olmaning ham bir qancha ixtisoslashgan zararkunandalar va kasalliklar tasirida zararlanish xolatlari ko‘p qayt etilgan. Bular quydagilar.

- Olma va nok parshasi(kalmaraz)-Fusicladium dendriticum
- Oq qanot-Trialeurodes vaporariorum Westw
- O‘rgimchak kana-Tetranychus ulmi L
- Teshikli dog‘lanish-Clasterosporium caespitosum (Lew) Aderh
- Monilioz kasalligi-Monilia cinerea
- Bakteriyali rak-Corynebacterium michiganense
- Olma shirasi-Aphis pomi deg
- Kizil qon shirasi- Eriosoma lanigerum hausm
- Olma vergulsimon qalqondori-Lepidosaphes ulmi L

-Olma mevaxori-Laspeyresia (Carpocapsa) pomonella L

-Olma kuyasi-Yponomeuta malinellus L

Olma mevaxo'ri-Laspeyresia (Carpocapsa) Pomonella L

Tarifi: Kapalaklari qanot yozganda 17-22 mm keladi, oldingi juft qanotlari kulrang bo'lib, eng uchida yirik burchak dog'I bor, qanotlarini yig'ib o'tirganida ular o'ziga xos umumiy dog'ni tashkil qilib, boshqa kapalaklardan keskin ajralib turadi.Orqa juft qanotlari och qo'ng'ir tusli.Qanotlarning tashqi kalta, qoramtir popugi bo'ladi. Tuxumi yumaloq (1,5 mm) yassi, rang oqish.Tuxumdan chiqqan qurti oqish tusda. Keyinchalik qurtning boshi va ensa usti och qo'ng'ir yoki qizg'ish tusga kiradi.Voyaga yetgan qurtning kattaligi 19 mm keladi,usti oushti, ost tomoni oq yoki sarg'ish.G'ummagi oq yumshoq pilla Ichida joylashadi, kattaligi 10-12 mm, tusi jigarrang, 8-9 segmentlarida xamda qorin oxirida bir qator tikanlari mavjud.

**Xayot kechirishi.** Olma mevaxo'ri oxirgi yosh qurt shaklida "belanchakda" turli joylarda (po'stloq osti, soxta belbog', yashik, qop, xaschoplar osti, yer Stxiga yaqin tuproqda) qishlab chiqadi.Baxorda o'rtacha 10 kunlik xavo xaroratida 10°C dan oshishi bilan qurtlar sekin-asta g'umbaklana boshlaydi.Bu jarayon cho'zilganligi sababli, kapalak uchi chiqishi xam 1,5-2 oyga cho'ziladi.Olma mevaxo'rinining sharoitga moslashish qobilyati yuqori, xatto ayrim qishlob qolgan (diapauzadagi) qurtlar keying yilgacha qolib ketishi mumkin.Kapalaklar uchib chiqishi qurtlar g'umbaklanganidan 2-3 hafta keyin sodir bo'lishi mumkin, Ular paydo bo'lgach modda ajrata boshlaydi va urchigach 2-3 kundan keyin tuxum qo'yishga kirishadi.Bu davr odatda olma qiyg'oz gullab bo'lgan davrga to'gri keladi.Kapalaklar o'rtacha 50 ta (ko'pi bilan 100 ta ) tuxumni yakka yakka qqilib yosh barg xamda meva nishonalarga qo'yadi.Mevaxo'r tuxumini ko'proq daraxtning yuqori qismiga (48%),o'rta qismiga o'rtacha (32 %) va ozrog'ini ostki qismiga(20%) qo'yadi.

### **Kurash choralari.**

Zararkunanda rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni inkor etadigan barcha usullarni(agrotexnik,fizik-mexanik) qo'llash/Mavsum mobaynida meva bergan daraxtlarga maxsus zaxarlangan <<aldamchi belbog'>> bog'lab qo'yish Belbog'larni

olma qurtiga qarshi tavsiya etilgan biror inseksid eritmasi bilan bir yilda 2 marta shimdirib bog'lash zararni 30-50% ga kamaytirish mumkin.

**Kimyoviy usul.** Kimyoviy ishlov daraxtlarda meva tugmachalari paydo bo'lgan davrda 5% tugunchalar zararlangan bo'lsa yoki 5 kun ichida xar bir feromon tutgich esa 5 kunda 2-3 ta kapalak ilinsa o'tkaziladi. O'zbekiston sharoitida olmani mevaxo'rdan saqlab qolish uchun mavsumdan 3-5 marta kimyoviy ishlov o'rtkazish zarur. Bulardan 2 tasi zararkunandaning 1-bo'g'iniga qarshi, 2-3 tasu 2-3-bo'g'inlariga qarshi. Preparatlardan talstar, 10% em.k.-0,4-0,6 l/ga; kimeks, 55 em.k.-0.6 l/ga; breyk.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R. Qovun pashshasidan himoya qilishning kompleks usullari va uning ekologik xususiyatlari. //Fan va amaliyot byulleteni jurnali -2018.-№9.-114-118b.
2. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R. Qovunning foydali xususiyatlari va zararkunandalari // Internauka jurnali. - 2019-yil, 13-son (95), 2-qism. 54-55 b.
3. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R., Parpieva M.K. Qovunning foydali xususiyatlari va yetishtirish texnologiyalari // Agro iml jurnali. 1[57] o'g'li 2019.37-38b.
4. Abdullayeva X.Z., Rahmonova G.R., A'zamov A.A. Qovunning foydali xususiyatlari va zararkunandalariga qarshi kurash // Ekologiya xabarnomasi jurnali. № 7/2019/iyul.
5. Raxmonova G.R., A'zamov A.A. Qovunning foydali hussiyatlari va zararkunandalariga qarshi kurashi // "Agrar soxani istikbolli rivojlashtirishda resource tejoychi innovation technologylardan samarali foidalanish" mavzusidagi halqaro ilmiy-technician anjuman.makollalar toplami.
6. Ro'zimetov R., Ro'zimov J., Tojiyev A, Egamberdiyev O. Qovun kasalliklari va ularning ekspertizasi. – Urganch, -2017. -8-14b.
7. Toreniyazov E.Sh. Qovun pashshasi rivojlanish biologiyasi va unga qarshi kurash chora takliflari.- Nukus, -2009.-413b.
8. Xjashev Sh.T., Gaimov R. Polizni zararkunandalardan himoya kilish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnallari. -2012.-№8.-17b
9. Xojayev Sh.T. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish vositalari asoslari. -Toshkent, -2019. -186-194b.



G'O'ZANING O'SIMLIGINING ZARARLI ORGANIZMLARGA QARSHI  
KURASH USULLARI

*Mahammadjonova Vazira*

**Annotatsiyasi:** O'simliklar dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, qishloq ekini g'o'zaning xam zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan ximoya qilish dolzarb mavzu xisoblanadi. Ushbu maqolada g'o'zaning kelib chiqish tarixi, foydali xususiyatlari, zararli organizmlar (zararkunanda, kasallik va begona o'tlar) iga qarshi kurash usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** G'o'za, G'o'zaning foydali xususiyatlari, g'ozaning zararli organizmlarga qarshi kurash usullari.

**G'o'za** — gulxayridoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi; paxta tolasi olish uchun ekiladigan texnika ekini. 3 ta kenja turkum (*Gossipium, Karpas, Sturtia*)ni o'z ichiga oladi. Bular bir yillik va ko'p yillik butalar, daraxtlar hamda tropik mintaqa buta va o'tlaridir. G'ning 50 turi ma'lum. G'o'za turkumida xromosomalar soni diploid ( $2n = 26$ ) va tetraploid ( $2n = 52$ ) bo'lgan turlari bor. Genomining tarkibiga ko'ra ular 6 guruhga (A, V, D, S, Ye, G') bo'linadi. Tetraploidlarda genomi AD. Turlar guruhlar ichida oson, guruhlar o'rtasida esa qiyin chatishadi yoki duragaylarning to'liq bepushtligi kuzatiladi. Tola olinadigan o'simlik sifatida hindi-xitoy, afrika-osiyo, meksika, peru g'o'zalari ekiladi (qarang Yovvoyi g'o'zalar, Madaniy g'o'zalar). G'o'za dehqonchilikdagi qad. ekinlardan biri. G'o'za paxtasidan olinadigan toladan foydalanish qadim zamonlar — paleolit davridan boshlangan. G'o'zaning vatani Hindiston hisoblanadi. Hind vodiysida mil. dan 3 ming yil ilgari paxta yetishtirilib, undan yigirilgan ip tay-yorlangan. Shuningdek, Xitoy, Eron, Peru va Meksikada G'o'za miloddan bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgan. arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda miloddan avvalgi 6—5-asrdan boshlab ekilgan. 10-asrdan Ispaniyaga va undan boshqa Yevropa

mamlakatlariga tarqalgan. Jahonda g'o'zaning 80 dan ortiq mamlakatda yetishtiriladi. Asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlar: Xitoy (3,7 mln.ga, 30,6 s/ga, 11,4 mln. t), AQSH (5,4 mln. ga, 17,5 i/g'a, 9,5 mln.t), Hindiston (9,0 mln.ga, 6,9 s/ga, 6,2 mln.t), Pokiston (2,9 mln.ga, 15,3 s/ga, 4,4 mln.t). Shuningdek, Braziliya, Turkiya, Misrda ham katta maydonlarni egallaydi. 20-asr oxiriga kelib asosiy paxta yetishti-ruvchi mamlakatlardan Xitoyda 3,8, AQShda 3,6, Hindistonda 2,0, pokistonda 1,5, Turkiyada 0,8 mln.t; jahon bo'yicha 18,2 mln. t paxta tolasi yetishtirildi (1999). O'zbekiston paxta tolasi yetishtirish bo'yicha jahonda 4-o'rinda turadi (g'o'za ekin maydoni 1440,8 ming ga, hosildorligi 24,5 s/ga, yalpi hosili 3537,1 ming t; 2004).

O'simlik dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, g'o'zaning ham bir qancha ixtisoslashgan zararkunandalar va kasalliklar tasirida zararlanish xolatlari ko'p qayt etilgan. Bular quydagilar.

- O'rgamchakkana- *Tetranychus urticae* Koch
- Akatsiya shirasi-*Aphis medicaginis*
- Tamaki tripsi-*Thrips tabaci* Lind
- Beda qandalasi-*Adelphocoris lineolatus* Coeze
- Karadrina-*Spodoptera exigua* Hb
- Kuzgi tunlam-*Agrotis segetum* Den.et Schiff)
- G'o'za tunlami-*Heliothis armigera* Hb
- Ildiz cherish- *Rhizoctonia solani* Kuehn
- Qora ildiz cherish- *Thielaviopsis basicola*
- Fuzarioz so'lish-*Fuzarium oxysporum*

**Zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurash usullari.**

**Agrotexnik usulda** ekinlarni almashlab ekishga rioya qilish, yerni chuqur xaydash, yaxob suv berish.

**Biologik usulda** zararkunanda xashorotlarni turiga qarab oltin ko'z kushandasini, oq qanotga qarshi enkarziya parazitini qo'llash tavsiya etiladi.

**Kimyoviy usulda** 10 sotixga oq qanot, shiralarga qarshi Mospilan 20% (25-

30ml), Sipermetrin 25% (30ml) va Karat-55 20%(25-30ml), boshqa preparatlar qo'llanadi.

**Kuzgi tunlam - *Agrotis segetum Den.et Schiff***

**Tarifi.** Sug'oriladigan paxtachilik tumanlarida keng tarqalgan zararkunandalardan biridir. Uning qurtlari 34 ta o'simliklar oilasiga mansub bo'lgan yuzlab ekinlarga zarar yetkazadi. Kuzgi tunlam qanotlari yozganda 40mm ga yetadi. Oldingi qanoti oq tusda. Oldingi qanoti asosiga yaqin joyda ponasimon qoramtir dog'i, qanotining markazida yumaloq va yuqorirog'ida buyraksimon dog'I bor.

**Xayot kechirishi.** Kapalak ko'pi bilan 2000 ta, askari 500-600 ta tuxum qo'yadi. U tuxumlarini o'simliklarning ildiz yonidagi qismlariga va tuproq betiga (bittadan yoki 2-3 tadan) qo'yadi. Tuxumi qubbasimon bo'rtliqli bo'lib, 0.65 mm keladi. Endigina ko'yilgan tuxumlari oq rangda bo'ladi. Kuzgi tunlamning yetuk qurti 5 sm kattalikkacha bo'ladi. Qurti qilinsa ,yumaloq bo'lib oladi. G'umbagining uzunligi 14-20 mm bo'lib, och-qo'ng'ir rang va oxirgi bo'g'imida ikkita o'simtasi bor. Kuzgi tunlamning qurtlari ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlarini shuningdek, g'o'zani ildiz bo'g'ziga yaqin qismlarini, yer betiga chiqmagan urug' barglari, o'ralib yotgan maysalarini kemirib zararlaydi. Urug'barglar yer betiga chiqib yozilganda ularda simmetrik bir xilda teshikchalar mavjud bo'ladi. Kuzgi tunlam bir yilda uch marta avlod berib, g'umbalik bosqichida tuproqda qishlaydi.

**Zarari.** G'o'za, beda, qand lavlagi, makkajo'xori, g'alla, moyli o'simliklar va poliz ekinlari, shuningdek, pechka, yovvoyi tojixo'roz, sho'ra, olabuta kuzgi tunlamning eng xush ko'rgan ozig'idir. Kuzgi tunlam qurtlari unib chiqayotgan g'o'za chigitini shikastlab, urug' pallalarini teshadi, ildizlarini yoki ildiz bo'g'zi yaqinidagi poyani kemiradi, bazan maysaning yer ustki qismiga xam zarar yetkazadi.

**Kurash choralari.**

**Agrotexnik tadbirlar.** Yerni kuzda chuqur shudgorlash, erta baxorda begona o'tlarga qarshi kurashish, sifatli sug'orish almashlab ekish.

**Biologik usul.** Xar bir avlodiga qarshi xar ikki gektar ekin maydoniga 1 donadan

feroman tutqich o'rnatiladi, uning yordamida kapalaklar uchish muddatini aniqlab, 1 kechada xar bir tutqichga o'rtacha 2-3 ta kapalak tusha boshlasa, 3 kundan so'ng xar gektar maydonga 1 gramm xisobidan 100 ta nuqtaga 5 kun oraliqda 3 marta tuxumxo'r trixogramma chiqarish; o'rta va katta yoshdagi qurtlariga qarshi 1:20, 1:10, 1:5 nisbatta 5 kun oralatib 3 marta brakon chiqarish.

**Kimyoviy usul.** Agar xar  $1_M^2$  da qurt soni o'rtacha 1-1,5 donaga yetsa quyadigi preparatlardan birini ishlatish tavsiya etiladi: kinmeks, 55 em.k- 0.6l/ga; vanteks, 6% sus.k. – 0,25-0.3 l/ga; detsis, 2,5% em.k – 0,7 l/ga xisobida purkash.ishchi suyuqlik sarfi gektariga 300 litr.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R. Qovun pashshasidan himoya qilishning kompleks usullari va uning ekologik xususiyatlari. //Fan va amaliyot byulleteni jurnali -2018.-№9.-114-118b.
2. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R. Qovunning foydali xususiyatlari va zararkunandalari // Internauka jurnali. - 2019-yil, 13-son (95), 2-qism. 54-55 b.
3. Abdullayeva X.Z., Raxmonova G.R., Parpieva M.K. Qovunning foydali xususiyatlari va yetishtirish texnologiyalari // Agro iml jurnali. 1[57] o'g'li 2019.37-38b.
4. Abdullayeva X.Z., Rahmonova G.R., A'zamov A.A. Qovunning foydali xususiyatlari va zararkunandalariga qarshi kurash // Ekologiya xabarnomasi jurnali. № 7/2019/iyul.
5. Raxmonova G.R., A'zamov A.A. Qovunning foidali hussiyatlari va zararkunandalariga qarshi kurashi // "Agrar soxani istikbolli rivojlashtirishda resource tejoychi innovation technologylardan samarali foidalanish" mavzusidagi halqaro ilmiy-technician anjuman.makollalar toplami.
6. Ro'zimetov R., Ro'zimov J., Tojiyev A, Egamberdiyev O. Qovun kasalliklari va ularning ekspertizasi. – Urganch, -2017. -8-14b.
7. Torenliyazov E.Sh. Qovun pashshasi rivojlanish biologiyasi va unga qarshi kurash chora takliflari.- Nukus, -2009.-413b.
8. Xjashev Sh.T., Gaimov R. Polizni zararkunandalardan himoya kilish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnallari. -2012.-№8.-17b
9. Xojayev Sh.T. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish vositalari asoslari. -Toshkent, -2019. -186-194b.

**MAKKAJO'XORI O'SIMLIGI VA UNGA ZARAR KELTIRUVCHI  
ZARAKUNANDA VA KASALLIKLAR**

*Turg'unboyeva Sayyora*

**Annotatsiyasi:** O'simliklar dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, qishloq ekini karamning xam zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan ximoya qilish dolzarb mavzu xisoblanadi. Ushbu maqola karamning kelib chiqish tarixi, foydali xususiyatlari, zararli organizmlar (zararkunanda, kasallik va begona o'tlar) iga qarshi kurash usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalitso'zlar:** Karam, karamning foydali xususiyatlari, karam zararli organizmlariga qarshi kurash usullari.

Makkajo'xori (lotincha nomi *Zea Mays*) boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik turi, don va yem xashak ekini. Makkajo'xori yer sharidagi yovvoyi holda o'smaydigan eng qadimgi ekinlardan biri. Vatani Markaziy Amerika, dastlab Meksika hududida qadimgi mayya va atstek qabilalari tomonidan miloddan avvalgi 5200-yillarda dehqonchilikda ekilgan. Yevropaga 15 asr oxirida keltirilgan. O'zbekistonda ham bu ekin qadimdan ekiladi. Poyasi tik 5-6 m gacha, bo'g'imli, ichi g'ovak. Barglari keng nashtarsimon, ketma-ket joylashgan, ustki tukli, Makkajo'xori bir uyli, bir yillik, ayrim jinsli o'simlik. Changchi t'pguli rovak, urug'chi to'pguli so'tada joylashadi.

Makkajo'xori uglevodlarga boy bo'lib, qon shakarini normalizatsiya qilish va barqarorlashtirishga hissa qo'shadi. Ular, shuningdek, asab hujayralarini oziqlantirish uchun zarurdir. Shuning uchun makkajo'xori markaziy asab tizimi kasalliklari (epilepsiya va polimelit) bilan kasallangan odamlar uchun juda foydali. Makkajo'xori bu mushaklar uchun juda yaxshi ovqatlanishdir, shuning uchun progressive mushak distrofiyasi bilan birga u ajralmas hisoblanadi.

**Makkajo'xori navlari**

Hozirgi kunda O'zbekistonda makkajo'xorining 79 navi yetishtiladi. O'zbekistonda Vatan, Qorasuv< O'zbekiston tishsimoni, UzROS-Kremnistaya,

Figara, Mart va boshqa navlari ekiladi. Uz ROS-kremnistaya-mahalliy populyatsiyalardan tanlash yo'li bilan yaratilgan. Don va silos uchun Samarqand, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida ekish uchun davlat reystriga kiritilgan. Doni oq, kechpishar nav hisoblanadi. Qorakuya kasalligi bilan o'rtacha zararlanadi.

O'simlik dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, makkajo'xoring ham bir qancha ixtisoslashgan zararkunandalar va kasalliklar tasirida zararlanish xolatlari ko'p qayt etilgan. Bular quydagilar.

**Makkajo'xori kasalligi** ning bakterial kasalligi makkajo'xori va boshqalar o'tlar. Semptomlarga o'sishning sustlashishi va barglarning qizarib ketishi kiradi. Bunga bakteriya sabab bo'ladi Spiroplazma kunkelii.

### **Kasallik davri**

*S. kunkelii*, ko'pincha Misr Stunt Spiroplasma deb ataladigan spiroplazma omon qolishi va qishlashi mumkin *D. maidis* (DeLong va Wolcott), bu bahorda makkajo'xori o'simliklarini yuqtiradi va Corn Stunt kasalligini keltirib chiqaradi. Bu haqda Kaliforniyadagi San Xoakin vodiysida ma'lum qilingan ko'ngilli o'simliklar yordam berish uchun juda muhimdir barg barglari qish mavsumida omon qoling, u erda ko'ngilli o'simliklar barg barglariga qo'shimcha ikki oylik mavsum berishi mumkin. Ushbu qo'zg'atuvchining tarqaladigan doimiy va sirkulyatsion, deb topilgan vektorda to'planadigan va ko'paytiruvchi deb ta'riflangan. gemolimf, ichak hujayralari va hasharotlar vektorlarining tuprik bezlari. Oziqlantirish paytida u etkazib beriladi phloem mezbon makkajo'xori o'simliklarining to'qimalari.

Muhim munosabatlar mavjud *S. kunkelii* bilan *D. maidis*, bu erda uning qishda saqlanib qolishi barg bargining omon qolishiga bog'liq. Ushbu munosabatlar ham foydali bo'lishi mumkin *D. maidis*. Dalbulus barg barglari yuqtirilganda *S. kunkelii*, tug'ilish va umr ko'rish davomiyligi pasayganligi haqida xabar berilgan. Biroq, o'ziga xos *D. maidis*, bitta tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mavjudligi *S. kunkelii* ehtimolini oshiradi *D. maidis* jo'xori berilganda yoki nam qumda yashaganda, sovuq havoda, xususan 10-20 daraja Selsiyda omon qolish, garchi muzlash haroratida tirik qolishga bu ta'sir haqiqat deb topilmagan bo'lsa. Xuddi shu tarzda, bir guruh spiroplazma barg

barglari vektori uchun foydali metabolitlar bilan ta'minlanishi mumkinligini ta'kidlamoqda.

*S. Kunkelii* boshqa barg barglari tomonidan yuqishi mumkin, ammo barg barglari *D. maidis* Lotin Amerikasida eng muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1 . M.: Mir, 1995. 344 c. Myeller E. Leffler V. Mikologiya.
2. Popkovka K. V., Shkalikov V. A. Straikov YUM. - << Drofa, Lekomtseva C.H .. Skvorsova C.H. Umumiy fitopatologiya.
3. Xamrayev A.Sh., Hasanov B. A.. Azimov J.A., va b. Biozararlanish asoslari. Oliy va o'rta - maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: << Fan va texnologiyani>>.
4. Xamrayev A.Sh., Hasanov B.A., va b. Biozararlanish. Oliy o'quv yurtlari biologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, ToshDAU, 2009. 5. Hasanov B.A. Qishloq xo'jalik ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, ToshDAU, 2011
6. Chikin YU.A. Umumiy Fitopatologiya. – Tosk.
7. Yacheviskiy A.A. Asosiy Mikologiya.
8. Agrios G. N. Plant pathology . Fifthrdition . Elsevier.
9. Alexopoulos C.J .. Mims C.W. , Blackwell M. Introductory mycology . Fourth edition . Wiley - India.

LIMONNING ZARARLI ORGANIZMLARIGA QARSHI KURASH  
USULLARI

*Siddiqova Iroda*

**Annotatsiya:** O'simliklar dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, qishloq ekini limonning xam zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan ximoya qilish dolzarb mavzu xisoblanadi. Ushbu maqolada limonning kelib chiqish tarixi, foydali xususiyatlari, zararli organizmlar (zararkunanda, kasallik va begona o'tlar) iga qarshi kurash usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Limon, Limonning foydali xususiyatlari, limon zararli organizmlariga qarshi kurash usullari.

O'zbekistonda limonning qishloq xo'jaligining eng qadimgi soxalaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Limon [STRUS (L)Burm]-rutadoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 4 m gacha boradigan daraxt. O'simlik barglari qalin, tuxumsimon, cho'ziq, o'tkiruchli, to'q yashil rangli, yaltiroqdir. Ular qisqa bandi bilan poyalarda ketma-ket joylashgan bo'ladi. O'simlik gullari mayda, hidi yoq imliy, oq rangli bo'lib, barg qo'ltig'idan joy oladi, mevasi tuxumsimon g'urra vaqtida yashil, pishib yetilgach, sariq ranga kiradi. Mazzasi nordon, ko'p urug'li meva. Mevasining yumshoq, sersuv va juda nordon mag'zi asosan suvdan va limon kislotasidan iborat, shuningdek, uning tarkibi daqand, askorbin kislotasi, A, B, C, P darmodorilari mavjud. Mevasi mag'zida pektinli moddalar, kaliy tuzlar, mis va boshqa mikroelementlar mavjud. Qobig'ida 0.6% miqdorda efir moyi mavjud. Limon asosan Yevropaning subtropik, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlarida yetishtiriladi. Keyingi vaqtlarda limon O'rta Osiyo respublikalari, ayniqsa, O'zbekiston va Tojikistonda issiqxonalarda keng ko'lamda yetishtirilib, yaxshi hosil olinmoqda. Shifo maqsadida limomlar C, B darmondorilari yetishmasligida qo'llaniladi. Limomlar yoki limon sharbatlari oshqozon-ichak trakti kasalliklari, modda almashinuvi buzulishlarida va revmotizm kasalliklarini davolashda tavsiya etilgan. Limon sharbatlari zamburug'lar tufayli yuzaga keladigan kasalliklarda



qo'llaniladi. Kosmetik maqsadlarda limonlar sepkillar, pigment d,p g', larni ketkazishda foydalaniladi. Limonlar doim yashil, issiqlikni sevuvchi o'simliklar bo'lib, asosan uncha katta bo'lmagan daraxtlar yoki butalardir. Mintaqa iqlim sharoitiga mos ravishda ular yillik vegetatsiya davrida bir martadan to'rtmarta gacha o'sishni tiklash xususiyatiga ega. O'simlikni o'sishida tiklanish va nisbatan tinch davri o'simlikning uning holatiga, ob-xavo hamda agratexnika sharoitiga bog'liq.

O'simlik dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, limonning ham bir qancha ixtisoslashgan zararkunandalar va kasalliklar tasirida zararlanish xolatlari ko'p qayt etilgan. Bular quydagilar.

- O'simlik biti- *Tetranychus urticae* Koch
- Oq qanot-*Trialeurodes vaporariorum* Westw
- Yumshoq soxta qalqondor- *Eulecaniutrilesperidum* L
- Sitrus inli kuyasi- *Phyllocnistis Citrella* Staintona
- O'rgimchak kana-*Tetranychus telarius* L
- Gammoz-*Xantomonas malvearum*
- Alternarioz- *Makrosporium macrospora*
- Un shudring(oidium)-*Podospilum leucotricha*
- Sitrus o'simliklarining saratoni
- Teshikchali dog'lanish-*Klyasterosporioz*

### **Zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurash usullari.**

Agrotexnik usulda ekinlarni almashlab ekishga rioya qilish, yerni chuqur xaydash, yaxob suv berish. Biologik usulda zararkunanda xashorotlarni turiga qarab oltin ko'z kushandasini, oq qanotga qarshi enkarziya parazitini qo'llash tavsiya etiladi.

Kimyoviy usulda 10 sotixga oq qanot, shiralarga qarshi Mospilan 20% (25-30ml), Sipermetrin 25% (30ml) va Karat-55 20%(25-30ml), boshqa preparatlar qo'llanadi.

**Sitrus inli kuyasi.** Sitrus inli kuyasi (*Phyllocnistis Citrella* Staintona) ilk bor Hindistonda G.T. Steinton tomonidan aniqlangan. Sitrus inli kuyasi limon o'simligining xavfli kushandasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda u mandarin, apilsin,

greypfrut, evkalipit, tol, yasmin o'simliklarida rivojlanishi aniqlangan. U g'ummakka aylanishdan oldin harakatlanishdan to'xtaydi. G'umbaklik davri pilla ichida o'tadi. Pillasining rangi qizil. Kapalagi pillaning uchki qismidan chiqadi. Zararkunanda bir yilda 6-7 ta ba'zan 10 marta avlod beradi. Shulardan 2 ta avlodi bahorda, 4 tasi esa yoz va kuzga to'gri keladi. Bitta avlodning rivojlanishi 30-40 kun davom etadi.

**Kurash choralari.** Hasharot tarqalgan ko'chatlarga barcha yoshdagi qurtlarga qarshi 10 l suvga entovant 15 gr, indokamektin 30 gr, protekt 25 gr va boshqa preparatlarni qollash tavsiya etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

